

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat Universiteti

Tarix fakul'teti

IBTIDOIY JAMIYAT

TARIXI

(ma`ruzalar matni)

bakalavriyat yo'nalishi: B-5220200 TARIX

Namangan - 2010

Ushbu dastur ibtidoiy jamiyat tarixi fani kursida insoniyatning paydo bo'lishi, kishilik jamiyatining shakllanishi, mazkur jamiyatning ilk sinfiy jamiyatlar vujudga kelishiga qadar o'tgan tarixiy davrlar muammolariga vazifa qilib qo'ygan.

Tuzuvchi:

B.Xolmurodov

Taqrizchilar:

t.f.n A.Pozilov

t.f.n B.Tursunov

Ma'ruzalar matni Namangan Davlat Universiteti Tarix fakul'teti ilmiy kengashida (bayonnoma №___ 26. 08. 2010 yil) tasdiqlangan.

Fakul'tet dekani:

t.f.n. R. Jo'rayev

1.Mavzu: “Ibtidoiy jamiyat tarixi” fanining predmeti.

REJA:

1. Ibtidoiy jamoa kursining mazmuni vazifalari va ahamiyati.
2. Ibtidoiy jamoa tarixi fanining vujudga kelishi, rivojlanishi.
3. Ibtidoiy jamoa tarixi bosqichlarining umumiy tavsifi.

Ibtidoiy jamiyat tarixining predmeti vazifasi va ahamiyati. Mashhur tarixchi olimlarning aytganidek, biz uchun hamma narsadan ham muhim va yuksak bo'lgan tarix fanini kishilik jamiyati, uning rivojlanish qonuniyati haqida bahs etadi. Jahon xalqlari tarixi muqarrar ravishda biri ikkinchisi bilan almashinuvi beshta tarixiy davrga bo'linadi. Ular ibtidoiy jamoa, qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi tarixiy davrlardir. Ularning eng dastlabkisi ibtidoiy jamoa tuzumi hisoblanadi. U yer kurrasida odamzod paydo bo'la boshlagan vaqtdan boshlab ibtidoiy gala, urug', urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, urug'chilik tuzumining emirilishi, mulkiy tengsizlik tabaqalar va davlatning kelib chiqishigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi o'zidan keyingi barcha davrlarga nisbatan mehnat o'qurollarining soddaligi, binobarin ishlab chiqarish kuchlarining nihoyat darajada past bo'lishi bilan belgilanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ayniqsa urug'chilik tuzumigacha bo'lgan davrda odamlar tosh, yog'och, suyak va boshqa buyumlardan yasalgan juda sodda qurollarga ega edilar. Ular erda mavjud bo'lgan narsalarni terib eb ovchilik va termachilik qilganlar.

Keyingi 40-50 yil ichida arxeolog olimlar Afrika, Osiyo, Evropa va yer kurrasining boshqa joylaridan ibtidoiy kishilarning juda ko'p makon va manzillarini kavlab ochishga muvaffaq bo'ldilar. Arxeologik qazishlar natijasida mazkur manzilgohlardan kishilikning eng qadimgi tosh asriga mansub bo'lgan ko'plab tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan oddiy, sodda qurollar, hamda ularning ayrim siniq parchalari topilgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, ayniqcha uning dastlabki bosqichlarida odamlar yasab foydalangan mehnat qurollari shunchalik sodda ekan, bu ularning mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasining nihoyat darajada past bo'lganligidan darak beradi.

Demak, mehnat qurollari turlarining ozligi, ularning soddaligi, qurol yasash texnikasining rivojlanmaganligi, o'z imkoniyatlarini bilmaslik ibtidoiy kishilarni tabiat oldida, unda ro'y beradigan turli tuman dahshatli tabiiy hodisalar oldida ojiz va himoyasiz qilib qo'ygan edi. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi odamlarning yakka tartibda yashab kun kechirishlariga, binobarin tabiatdagi xilma-xil hodisalarga o'arshi ayrim-ayrim

holda kurashlariga sira ham imkon bermas edi. Insonni bu dahshatli kuchlardan, azob-uqubatlardan faqat mehnat, shunda ham umumlashib qilingan ijtimoiy mehnat qutqara olar edi, xolos. Ibtidoiy kishilar birgalashib mehnat qilishlari natijasidagina qadam-baqadam tabiatning dahshatli kuchlarini eng boradilar. Ibtidoiy davr kishilari o'sha vaqtlarda birgalashib mehnat qilmaganlarida ular qurshovida yashay olmay mazkur hayvonlarga emish bo'lib, yuzidan yo'q bo'lib ketar edilar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ular umumlashib yashash va mehnat qilishlari tufayligina yovuz kuchlardan g'olib chiqdilar.

Demak, o'sha davrdagi shart-sharoit ibtidoiy kishilarni birgalashib mehnat qilish va yashashga majbur etdi.

Birgalashib mehnat qilish yashash ishlab chiqarish vositalari, hamda iste'mol mahsulotlarini hamma uchun umumiy mulkka aylantirgan edi.

Umum mehnati natijasida qo'lga kiritilgan oziq-ovqat va boshqa iste'mol buyumlari u yoki bu guruhda yashagan barcha katta-kichik kishilar orasida barobar taqsimlanar edi.

Ibtidoiy kishilar tomonidan qo'lga kiritilgan iste'mol buyumlari o'rtada bo'lib hammaga barobar taqsimlanar edi. Lekin umumiy mulk bilan bir qatorda kishilarning shaxsiy buyumlari ham bo'lgan. Kiyim-bosh, jangovar, ov va ba'zi ishlab chiqarish qurollari shular jumlasidandir. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nozi-ne'matga hammaning egalik qilishi, tenglik mavjud ekan, unda xususiy mulk ham, kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilish ham qabiladan alohida ajralib turuvchi zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat ham yo'q edi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tabaqasiz va davlatsiz jamiyat edi. XIX va XX asrning mashhur tarixchilari bu eng dastlabki davriga baho berib, uni hamma barobar, teng bo'lgan ibtidoiy davr deb ta'riflagan edilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumining xuddi shu eng muhim xususiyati ham bilish, ham dunyoqarash jihatdan juda katta amaliy ahamiyatga egadir.

Ibtidoiy jamiyat tarixining dalillari xususiy mulk, ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatining kelib chiqishining tub mohiyatini bilib olishga imkon yaratib berdi. Darhaqiqat tabaqalar davlat hokimiyati tizimi va qismlari hech qachon azaldan mavjud bo'lgan emas, u ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi natijasida vujudga kelganligini olimlar tomonidan isbotlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik tarizining eng dastlabki, eng oddiy shakli edi. Dedik. Lekin u bir yerda qotib qolmadi, oddiylikdan murakkablik sari qadam qo'ya borib, keyingi davr uchun olmaslum tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p kashfiyotlarning poydevor toshini yaratdi. Insoniyatning iqtisodiy hayotida juda katta ahamiyatga ega

bo'lgan xo'jalik shakllari – dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, arxitektura, savdo va dastlabki almashuv munosabatlari ibtidoiy jamiyat tarixi zaminida shakllandi va rivojlana borgan. Bu hol ibtidoiy davrdan so'ng yashagan avlod uchun benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ibtidoiy jamiyat tarixi haqidagi ma'lumotlarini bilish nazariy jihatdan tashqari amaliy ahamiyatga ham egadir.

Xususiy mulk, tabaqalar, davlat va dinni vujudga keltirgan tarixiy sharoitlar va sabablarni bilish ularni tugatishga aniq yo'l ochib beradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini tashkil etar ekan ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vazifasi mazkur qadimiy davr tarixini har tomonlama chuqur o'rgana borishidan iboratdir.

Adabiyotlar

- 1. Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2. Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4. Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5. Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

2-Mavzu: Ibtidoiy jamoa tuzumini o'rganish manbalari

REJA:

1. Ibtidoiy davrning tarixiy manbalari va ularni hususiyatlari.
2. Arxeologiya manbalari va ularni hususiyatlari.
3. Fizika va kimyo, tilshunoslikka oid yozma manbalar.

Ajdodlarimiz tarixining ilk davrini-ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini qayta tiklash, uni o'rganish nihoyat darajada murakkab, ayni vaqtda sharaflı vazifadir. Uzoq davom etgan mazkur tarixiy davrda tabiatning turli-tuman xodisalari girdobida yashagan ibtidoiy kishilar er sharining katta qismida hayot kechirib, xilma-xil tarxda tirikchilik o'tkazganlar. SHunday ekan ibtidoiy davr kishilari tirikchiligining asosiy manbai ularni o'rab turgan geografik muhitning turli shart-sharoitlariga muvofiq ovchilik, baliqchilik, termachilik, keyinchalik esa dehqonchilik va chorvachilikdan keladigan mahsulotlar bo'lganligi shubhasizdir. Ibtidoiy kishilar o'z tirikchilik vositalariga muvofiq keladigan qurol-yaroqlarni, asbob-uskualarni turar-joylarni va boshqa turli narsalarni yaratganlarki, ular yaratgan buyumlar, mehnat qurollari, turar-joylarning qoldiqlari, ayni vaqtda o'sha davr kishilarining butun skeletlari, yoki ular skeletining ayrim qismlari yer ostida saqlanib

keladi. Bu vositalar kishilikning ibtidoiy davrini o'rganishda asosiy manba bo'lib hisoblanadilar.

Shu narsa ravshanki, kishilikning keyingi davr tarixini bayon qilishda olimlar asosan yozma manbalarga suyanadilar. Lekin ibtidoiy davr tarixi bunday manbalarga ega emas. Chunki ibtidoiy davrda yozuv ham, manbalar ham bo'lmagan.

Lekin ibtidoiy davr tarixining shunday ajoyib, nodir manbalari mavjudki, mazkur manbalar qanday qilib odamzod hayvonlar dunyosidan ajralib chiqib, kishilik jamiyatini vujudga keltirganligini isbotlab bera oladi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini qayta tiklashning ilmiy manbalari xilma-xil bo'lib, bular arxeologiya va etnografiya, antropologiya va lingvistika, paleobotanika va paleozoologiya, paleoklimatologiya va geologiya hamda qator boshqa aniq fanlar keltirgan dalillardir.

Arxeologik ma'lumotlar. Kishilikning ibtidoiy davri hayotini o'rganishda tarixchilikning ajralmas bo'limini tashkil etgan arxeologiya fanining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ibtidoiy arxeologiya umumiy arxeologiyaning tarkibiy qismini tashkil etib, yer ostidan, g'oyalardan qoya toshlardan topilgan moddiy, madaniy va san'at buyumlarini sinchiklab o'rganish asosida kishilik jamiyati tarixining yozuvgacha bo'lgan ibtidoiy davri tarixini sinchiklab o'rganadi.

Odamlar yozishni bundan 5 ming yillar ilgari o'rgangan bo'lsalar, dastlabki oddiy tosh qurollar yasashni va ulardan foydalanishni esa qariyb bundan 3,5-3 million yil muqaddam bila boshlashganlar». Ana shu katta davr tarixini tiklash va o'rganish ibtidoiy arxeologiya fani oldida turgan eng muxim va sharaflı vazifadir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yozuv va yozma manbalar kishilikning ibtidoiy hayoti haqida juda oz ma'lumot beradi. Demak, bu sohada arxeologiya fanining ahamiyati hammadan kattadir. Mazkur fan mutaxassislari esa juda ko'p va xilma-xil arxeologik yodgorliklarni o'rganadilar.

Demak, arxeologiya kishilikning yer ostida qolib ketgan moddiy, madaniy qoldiqlarini qidirib topishi va ularni tekshiruvchi tarixiy fandır. Arxeologiya mutaxassisi tosh qurollarni, suyaklarni, ro'zg'or va turar joy qoldiqlarini, zeb-ziynat va ibtidoiy davrda yaratilgan san'at obidalarini qidirib topish, tekshirish va o'rganish asosida kishilikning eng qadimiy tarixini tiklashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrini o'rganishda mazkur davr kishilaridap qolgan hamma ashyolari orasida mehnat qurollarining ahamiyati kattaroqdir. Shunga binoan ibtidoiy kishilarning nimalarni, qanday ishlab chiqarganliklarini tiklash mumkin.

Faqatgina, mehnat vositalarinigina emas. ayni vaqtda ibtidoiy makonlar turar joylarning qoldiqlari, qabrlar, shaxtalar, ustaxonalar, odamlar uchun boshpana bo'lgan g'orlar, ung'urlar, sug'orish inshootlari, ibtidoiy qishloq xarobalarining qoldiqlari ham kishilikning ilk davri hayotini tiklash va o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrida yaratilgan san'at obidalari, xususan qoya toshlarga urib-o'yib ishlangan, g'orlarning devor hamda shiplarining tabiiy bo'yoq oxra (angob) bilan chizilgan odam, hayvon, qurol-yaroq, uy-ro'zg'or, mehnat qurollari va boshqa narsalarning rasmlari ham ibtidoiy tarixni o'rganishning muxim arxeologik man'basi hisoblanadi. Ularning ahamiyati shu bilangina kifoyalanmaydi, unda ibtidoiy kishilarning kundalik hayotidan olingan ayrim voqea va hodisalar haqqoniylik bilan aks ettirilgan.

Ibtidoiy san'atning bunday ajoyib namunalari yer yuzining hamma burchaklarida keng tarqalgan.

Shuni nazarda tutish kerakki, xar bir arxeologik yodgorlik va buyumning o'ziga xos xususiyati bo'lib, ular kishilik (tarixining) hayotining u yoki bu tomonini tiklashga xizmat qiladi. Mehnat qurollari kishilarning nimalar ishlab chiqarganliklari va qanday qilib tirikchilik o'tkazganliklarini o'rganish imkoniyatini bersa, o'lik ko'mish tartiblari ba'zi san'at obidalari esa ularning e'tiqodi qanday bo'lganini aks ettirishi mumkin.

Ibtidoiy odamlar yashagan turar joylar, makonlar, manzillar va qishloq xarobalarini o'rganilishi esa oila va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida ham fikr yuritish imkonini beradi.

Bu hol ibtidoiy kishilarning umumiy ravishda yashaydigan turar joylarining oilaviy turar joylar bilan almashinuvini oddiy, mustahkamlanmagan qishloqlarning murakkab, mustahkam istehkomli qishloqlarga aylana borishi jarayonini kuzatishga imkon beradi.

XIX asrning oxiriga kelib arxeologiya fanida arxeologik madaniyat tushunchasi vujudga keldi. Arxeologik madaniyat deb muayyan territoriyada joylashib, o'zining maxalliy xususiyatlarga ega bo'lgan, ayni vaqtda muayyan davrga mansub arxeologik yodgorliklar majmuasiga aytiladi. Arxeologik madaniyatining ahamiyati va eng muhim vazifasi shundaki, u qabilalar va xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlarini hamda o'zaro murakkab bo'lgan umumiy tomonlarini aks ettirishdan iboratdir.

Arxeologiya boshqa fanlarga nisbatan juda yosh bo'lib XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi va rivoj topa boshladi. Mazkur fanning qadimgi tosh asrini o'rganish sohasidagi dastlabki qadamlari ham XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Bu sohadagi ishlar G'arbiy Evropada Bushs-de pert, Larte, Martil'e Vankil', G.CHayld, Rossiyada esa F.I.Kalinskiy, I.S.Polyakov, D.CHerskiy, A.A.Chekanovski, V.V.Dakuchaev, A.S.Uvarov, Melejkovski va boshqalarning nomlari bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asr birinchi yarmi, ayniqsa-60-90 yillarida arxeologik tekshirish ishlari keng quloch yoyib, arxeologik materiallar ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishning asosiy bosh man'basiga aylandi.

Sobiq SSSRda ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish I.P.Efimenko S.N.Zamyatnik, YA.Bryusov, M.E.Foss, V.A.Gorodkov, O.N.Bader, P.I.Boriskovski, L.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, B.B.Piotrovski, D.A.Krannov va boshqalarning nomi bilan uzviy bog'liqdir.

Shunday qilib, yer ibtidoiy davrining o'ziga xos arxivi bo'lib, mazkur arxivdan chiqqan moddiy-ma'naviy yodgorliklar ibtidoiy kishilar hayotining o'rganishning asosiy manbasi hisoblana di. Jahondagi mamlakatlarda ilmiy asosda olib borilayotgan sistematik qazish ishlari kishilikning ibtidoiy davr tarixiga doir bo'y, ko'pdap-ko'p materiallar bermoqda, mazkur materiallarining tadqiq qilinishi ibtidoiy jamiyat kishilarining turmush tarzi, diniy e'tiqodi va boshqa masalalarini hal qilish uchun xizmat qilmoqda.

Etnografik ma'lumotlar. Kishilikning uzoq o'tmishini tarixini tiklashda arxeologik ma'lumotlarning o'zi kifoya qilmaydi.

Arxeologlar tomonidan topilgan moddiy madaniy yodgorliklar ibtidoiy davrdagi iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishi va darajasini tiklashga yordam borsada, mazkur davrning sotsial tuzumini ma'naviy taraqqiyotini chuqurroq darajada bilib olishga imkon bormaydi.

Ibtidoiy kishilarning xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi, turmush darajasi oila-nikox munosabatlari g'oyaviy qarashlari qanday bo'lganligini o'rganishda etnografik ma'lumotlar ham alohida qimmatga egadir. Tarixchilikning eng muhim tarmog'i hisoblangan etnografiya fani yer yuzidagi turli halqlar, qabilalar, elatlar va etnik guruppalarining turmushi, madaniyatini, hamda g'oyaviy qarashlarida esa ibtidoiy davrga xos bo'lgan ba'zi irim-sirim odatlar saqlanib qolganligini kuzatish mumkmn.

Etnografiya fani yer yuzining barcha burchaklarida kishilikning ibtidoiylik darajasida hayot kechirgan va kechirayotgan juda ko'p qoloq qabilalarini biladi.

XIX asr o'rtalarida ingliz kolonizatorlari tomonidan yaxshiylarcha qirib tashlangan Tasmaniyaning erlik aholisi, oz miqdorda saqlanib qolgan mahalliy avstriyaliklar, Sumatra orolidagi kubu. Tseylon orolidagi vedda, Okeaniya orollaridagi (ayrim qabilalar) Amerika va Afrikada istiqomat qiluvchi qator qabilalarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

Mazkur qabilalar esa metall nima ekanligani ham bilmaydilar, yarim yalang'och yurib toshdan, suyakdan va yog'ochdan yasalgan oddiy qurollardan foydalanadilar. Ular tirikchilikning asosiy manbai ovchilik va termachilik bo'lib. tosh asri kishilari kabi hayot kechiradilar. Ularda diniy tushunchalar ham juda oddiydir.

Shu singari qabilalarning turmush tarzini har tomonlama chuqur o'rganish va ta'riflash kishilikning ibtidoiy davri hayotini tiklash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Lokin mazkur qoloq qabila va xalqlarning barchasi, haqiqiy ibtidoiylikdan ancha yuqori bo'lgan rivojlanish bosqichida turar edilar. Chunki ularning hammasi o'tmishda qanchalik ajralgan holda yashagan bo'lishlari, o'zlariga nisbatan ancha rivoj topgan xalqlar ta'siriga so'ngroq esa kapitalistik madaniyatining yemiruvchi ta'siriga uchraganlar.

Lekin shunga qaramay, ular turmushida mafkurasida ibtidoiy davrning ko'p tomonlari saqlanib qolgan. Ibtidoiy davr uchun xos bo'lgan belgilarni faqat qoloq xalq va qabilalar turmushidan qidirishning o'zi kifoya qilmaydi.

Dunyodagi barcha xalk, qabila va etnik guruxlar o'z rivojlanishining qaysi darajasida turganliklaridan qat'iy nazar ular turmushi mafkurasida ozmi-ko'pmi hamda qadimgi davrning sarqit va qoldiqlarini ko'rish mumkin.

Keksa o'tmishning keyingi ijtimoiy jamiyatlar nigizida saqlanib kelayotgan ayrim sarqit qoldiq va an'analari kishilikning ibtidoiy davr hayotini tiklashda muxim ahamiyat kasb etishi mumkin. Qadimgi davrning mazkur qoldiq, sarqit va an'analari jaxondagi qator qabila, millat va milliy guruxlarning to'y, bayram, ko'mish marosimi, mafkuraviy qarashlari, kiyimlari, bezak buyumlari, san'ati, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylarining tuzilishi va bolshqa har turli udumlarida ko'zga tashlanadi. Bular esa olimlarga ibtidoiy jamiyat tarixining ochilmagan masalalarini hal qilinishida muhim kasb etadi.

Shunday qilib, jahon miqyosida to'plangan etnografik ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tarixining ayrim tomonlarining tiklashda eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Antropologiya ma'lumotlari. Ma'lumki, inson hayvonlar olamidan ajralib chiqib odam holatiga kelguniga qadar juda uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tdi. Odamzodning vujudga kelish masalasi bilan paleontropologiya (odamning qazilma qoldiqlarini o'rganuvchi antropologiya bo'limi) shug'ullanadi. Antropologiya-morfologiya, antropogenez va irqshunoslik kabi uch asosiy bo'limlardan iboratdir.

Morfologiya odamning tana tuzilishi va undagi o'zgarishlarni o'rganadi. Antropogenez esa odamning kelib chiqishi va jismoniy rivojlanishi masalalari bilan shug'ullanib, uning hayvonlar dunyosida tutgan o'rniga baho berib, hozirgi zamon odami vujudga kelishi shart-sharoitlari va sabablarini o'rganadi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar allaqachonlar o'lib ketganlar, lekin ularning suyak qoldiqlari yer yuzinng juda ko'p joylaridan topildi va topilmoqda.

Ibtidoiy odamlarning suyak qoldiqlari Tangan'ika (Sharqiy Afrika)-dagi Olduvay darasidan, Keniyaning Rudolf ko'li yaqinidan, Efiopiyadan, Aljirdan, Janubiy Afrikadan, Chad respublikasidan, Xitoydan, Indoneziyadan, Sobiq SSSR territoriyasidan, shu jumladan Qrimdan, Gruziyadan, Armaniston, O'zbekistondan ko'plab topilgan va topilmoqda.

Mazkur suyaklar altropologlar uchun asosiy material bo'lib, ular bu suyaklarni har tomonlama sinchiklab o'rganish asosida ibtidoiy davr kishilarining tana tuzilishi va umumiy ko'rinishini tiklaydilar.

Qazilma odamlarning saqlanib qolgan suyaklarini sinchkovlik bilan siyosiy-anatomik jihatidan o'rganish ularning saqlanib qolgan qismini topish imkonini beradi. Buning uchun antropologiya fanida puxta ishlangan skeletni o'lchash sistemasi keng ko'lamda qo'llaniladi.

Antropologlar (ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari va butun skeletlarni chuqur o'rganish asosida ular muskulining joylashishi, rivojlanishi yuz tuzilishi, bosh miya qopqog'i, miya qismining xajmi, uning katta-kichikligi hamda ichki va tashqi tomonining tuzilishini tiklaydilar. Bu esa ibtidoiy kishilarning qiyofasi qanday ekanligining, nimalarga qodir ekanligini bilib olish imkonini beradi. Bu sohada V.V.Bunak, G.A.Bong-Osmolovskiy G.F.Debets, M.M.Gerasimov, M.F.Nesturx, YA.YA.Roginskiy, M.I.Uro'sov, V.I.Yakimov N.A.Sinelnikov, V.P.Alekseev va boshqa chet el antropologlari juda katta xizmat qildilar va xizmat qilmoqdalar. Demak antropologik dalillarsiz kishilikning ibtidoiy davrining tasavvur qilish qiyin va mushkul ishdur:

Shuning uchun antropologik dalillar ibtidoiy jamiyat tarixan shakllanishining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Tilshunoslik ma'lumotlari. Kishilikning uzoq o'tmishining tiklashda arxeologik, etnografik va antropologik ma'lumotlar bilan bir qatorda tilshunoslik dalillarning ham ahamiyati kattadir.

Tafakkur va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan tillar kishilik jamiyatining tongida odamlarning birgalashib mehnat qilishi jarayonida zaruriyat natijasida shakllanib vujudga keldi. Ibtidoiy kishilarning tili va tafakkuri rivojlanishidan sira to'xtamadi, aksincha yanada taraqqiy qilishda davom etaverdi.

Odamlar tabiat bilan, uning turli-tuman hodisalari bilan borgan sari chuqurroq tashisha boshladilar. Ular orasida asta-sekin narsalarga, yashab turgan joylariga, o'zlari yasagan qurollarga, jonli va jonsiz buyumlarga va o'zlariga nom qo'yish rasm bo'la

boshlagan. Oqibat-natijada ibtidoiy kishilarning soʻz boyligi orta borib, har bir narsa, hodisa, uning konkret nomiga ega boʻlgan.

Bu soʻz va gaplar esa asrlar osha avloddan -avlodga oʻtib, ayrimlari baʼzi oʻzgarishlarga uchragan, baʼzilari esa hech qanday oʻzgarishga yoʻliqmay, qanday boʻlsa shundayligicha saqlanib qolgan, lekin qanchalari unutib yuborilgan.

Biz rus tilida otmoq (strelyat) soʻziga murojaat qilsak, uning yoy, kamon oʻqi (strela) soʻzidan kelib chiqqanini bilib olishimiz qiyin emas. Mazkur soʻzning kelib chiqishi esa kishilik jamiyat tarixining uzoq oʻtmishiga, yaʼni ibtidoiy kishilar hayotida muhim rol oʻynagan, oʻq- yoy kashf etilib, odamlar undan keng foydalangan davrga toʻgʻri keladi. Biz uchun juda oddiy boʻlgan, oʻz davri uchun esa nihoyatda murakkab va muhim boʻlgan bu qurol ibtidoiy jamiyat tarixining oʻrta tosh (mezolit) davrida kashf qilingan. Shunday ekan, mazkur jangovor va ov qurolining kashf qilinganligiga 12-15 ming yildan ortiqroq vaqt oʻtdi.

Demak, mazkur qurolga berilgan nom ham xuddi oʻsha davrga mansub boʻlishi shubhasizdir. Chiqib kelishi kishilikning ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqaluvchi suv va iboralarning har bir qabila, xalq va millatlar tilidan olish mumkin.

Koʻpgina hind-Evropa tillarida xususan rus tilida skot ..(hayvon, chorva) soʻzi mol, bisot, xazina, mulk, pul kabi maʼnolarni anglatadi. Sababi shuki qadimda chorva (qoʻy, echki, qoramol, ot, tuya va boshqalar) mollari aholining buyum almashinuvida pul vazifasini oʻtagan.

Qadimgi hind tili hisoblangan (sanskritda) rus tilidagi «plemyannik» - jiyan soʻzi «sopernik» - raqib. yov, dushman kabi maʼnolarni ham anglatgan. Bunday misollarni juda koʻplab keltirish mumkin.

Hozirgi zamon tillarining oʻzaro munosabatlari va oʻxshashlik tomonlarini chuqur oʻrganish asosida turli xalqlarning tarixan bir-biri bilan aloqador va oʻzaro bogʻliq ekanligini bilib olish mumkin. Bu hol oilaviy tillar, shuningdek xalqlarning kelib chiqishida mushtarak umumiy bogʻlanish mavjudligini anglatadi.

Tilshunoslik maʼlumotlari orasida biror mamlakat, oʻlka, shahar, qishloq, daryo, koʻl, togʻ, ayrim joylarning geografik nomlarini oʻrganuvchi toponimika fanining dalillari ham ibtidoiy davr tarixini asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Baʼzi geografik nomlar juda ham qadim zamonlarda kelib chiqqan boʻlib, uning (negizi) asosi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. Shubhasiz ibtidoiy odamlarning soʻz boyligi u qadar koʻp boʻlmasa ham oʻzi yashab turgan joy va uning atroflariga nom qoʻyganlar. Tevarak- atrofda sodir boʻlgan hodisalarni nimadir deb ataganlar qabila,urugʻlarning oʻz nomlari boʻlib, ular ovchilik, chorvachilik va

dexqonchilik bilan shug'ullangan. Demak, ularni ham o'ziga yarasha nomlari bo'lganligi shubhasizdir.

Shuni aytish mumkinki, hanuzgacha biror-bir oddiy qabila yo'qqi, ular odamlar va joy uchun xos bo'lgan nomlardan foydalanmagan bo'lsinlar. Insonni aqli qurollarni va boshqa ko'p narsalarni ishlab chiqaruvchisi deyishadi. Biz erkin ravishda ayta olamizki, ibtidoiy odamlar nom qo'yishning asoschisidir, deb yozgan edi amerikalik mashhur toponimi Jorj Styuart. Geografik nomlar ma'lum tarixiy sharoitda tug'ilib, o'z shaklini o'zgartirib, ma'lum vaqt o'tgach unutiladi. Lekin ularning ayrimlari uzoq yashovchan bo'lib, zamonamizgacha saqlanib keladi.

Nisbatan turg'un va barqaror bo'lgan, uzoq yashovchan joy nomlari «o'lik» so'zlardan iborat bo'lib qolmay, balki zahirida urug', qabila va xalqlar hayoti tarixi, tili va boshqa ko'p ma'lumotlarni o'zida saqlab keladi.

Joy, qabila, kishi va urug' nomlari xaqidagi dalillar ibtidoiy va qadimgi axolining qabilaviy tarkibi, joylar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, qabilalararo munosabat va ularning mashg'ulotlari haqida ajoyib ma'lumotlar berishi mumkin.

Qadimgi Sharq, Sobiq SSSR, O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston tarixining sahifalarini varaqlanar ekan, unda asosiy negizi ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqalishi juda ko'p geografik nomlarni, kishi ismlarini uchratish mumkinki, bu ibtidoiy tarixning shohidlaridir.

Ibtidoiy jamiyat tarixida, ayniqsa uning keyingi bosqichlarida xalq og'zaki ijodiyoti rivojlana boshladi. Xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki ko'rinishi, o'zga davr kishilarining o'tmishi haqidagi afsonalardan iborat bo'lgan.

Tafakkur doirasi rivojlanayotgan ibtidoiy inson o'z o'tmishi haqida o'ylay boshlaganligi shubhasizdir. Odamlar atrofni o'rab turgan narsalar va sodir bo'layotgan tabiat hodisalariga qiziqib qarab, ularni qayerdan paydo bo'lgani haqida fikr yurita boshlaganlar. O'tmish haqida mana shunday sodda fikr yuritishning o'zi ma'lum darajada tarixning boshlanishidir, deb juda to'g'ri ta'kidlaydi, taniqli etnograf M.O.Kosven. Garchi ibtidoiy davrda to'qilgan rivoyat va afsonalar ibtidoiy davrdagi animistik, fetishistik va totemistik ruhda yaratilgai bo'lishiga qaramay, ularda ibtidoiy davr kishilarining kundalik hayotidan olingan haqiqiy voqealar ham aks ettirilgan bo'lib, ular tarixiy asosga egadirlar.

Bu hol afsona va rivoyatlarni kishilikning sinfiy jamiyat tarixini o'rganishning muhim ma'nbalaridan biriga aylantiradi. Undan tashqari ibtidoiy kishilarning turmishi, kundalik hayoti va mafkuraviy qarashlari o'sha vaqtda yaratilib, og'izdan-og'izga ko'chib keyingi avlodlarga etib kelgan xalq og'zaki ijodining ertak, masal, maqol, mehnat,

qahramonlik, marosim va mavsum kishiliklari janrlarida o'z ifodasini topganki, bular ham kishilikning qadimgi hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Maksim Gor'kiy «Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning ma'lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy mag'zini chuqurroq tushunishlaringizni istardim. Bularning asosiy g'oyasi qadimga davrlardagi mehnat kishilarining yukini yengillashtirishga, ularning ish unumini oshirishlariga to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi-«avrash» «afsun» yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etishlariga qaratilgan» deb yozgan edi.

Shunday qilib, miflar, afsonalar, ertaklar, maqollar va xalq og'zaki ijodiyotining boshqa eng qadimgi idabiy-yodgorliklari ibtidoiy davr tarixini o'rganish (muhim) asosiy bo'lmasa ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yozuv kashf qilinmagan, binobarin, yozma manbalar ham yo'q edi. Lekin ibtidoiy jamoa tuzumi emirilib tabaqaviy jamiyat vujudga keldi, xat va yozuv kashf qilinib, diniy va dunyoviy mazmunga ega bo'lgan asarlar yaratila boshlandi. Bu asarlarning ba'zilari butunicha, ayrimlaridan esa parchalar zamonamizgacha saqlanib kelgan. Bular orasida «Avesto» A.Firdavsiyning «Shohnoma», ham hindilar yaratgan Maxabxarata va Ramayana kabi asarlar alohida ahamiyatga egadir.

Mazkur asarlarda kishilikning tabaqaviy jamiyatdan oldingi hayoti, mashg'ulatlari va mafkuraviy qarashlari haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. va dorivor o'simliklarning kashf qilinishi, hunarmandchilik, dastlabki Ularda odamlarning o'zlari har turli hayvonlarni qo'lga o'rgatilishi madaniy dehqonchilikning vujudga kelishi, qurollar yasash, ibtidoiy meditsina, davolash tartibi va boshqa narsalar to'g'risidagi ma'lumotlar bor.

Shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, paleobotanika, paleozoologiya, paleoklimatologiya, geologiya kabi tabiiy fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlarisiz ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganib bo'lmaydi.

Agar paleobotanika o'simlik turlarini, ularning turlarini saqlanib qolgan gul changiga qarab o'rgansa, paleozoologiya esa qirilib ketgan hayvonlarning qazilma suyaklariga qarab ibtidoiy odamlar bilan bir davrda yashagan qadimga xayvonlar olamini o'rganib, ularni qaysi turga mansub ekanligini belgilaydi.

Paleoklimatologiya (qadimgi iqlimlar xaqidagi fan) u yoki bu davrdagi iqlimni o'simliklarning changi va tasmasimon gullariga qarab, nam miqdoriga bog'liq holda o'zgarib boradigan havzalar chegaralariga qarab aniqlanadi. Demak tabiatdagi o'simliklar

olami, hayvonot dunyosi, jumladan inson ham davr iqlimining o'rganish ibtidoiy kishilar hayoti qay tarzda edi degan masalani yoritishda katta yordam beradi.

Geologiya fani esa yer po'sti cho'kindi qavatlarini paydo bo'lish jarayonini, vaqt izchilligini va shu cho'kindilar ichidagi organik qoldiqlarga qarab, aniqlab berar ekan, odamzodning hali, u yaratgan moddiy-madaniy buyumlar yoshini ham bilib olishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining manbalari xilma-xildir. Lekin bu manbalarining hech biri alohida olganda kishilikning ibtidoiy davri hayotini chuqur va har tomonlama yoritib bera olmaydi. Mazkur manbalarning eng asosiysi hisoblangan arxeologik yodgorliklar ham masalani biz o'ylagandek oydinlashtirib berishga qodir emas.

Bunga qo'shimcha ravishda qoloq qabilalar hayotidan olingan etnografik ma'lumotlarni jalb qilingan taqdirda ham ibtidoiy kishilar hayoti manzarasini ibtidoiy davrdagidek qilib tavsiflash qiyin, albatta. Chunki ibtidoiy kishilar bilan hozir ibtidoiy tarzda hayot kechirayotgan kishilar orasida juda katta tarixiy davr yotadi. Binobarin ibtidoiy kishilarning turmush madaniyati, tili va diniy e'tiqodi- bilan hozir fanga ma'lum bo'lgan qoloq qabilalarning moddiy madaniyati, tili va mafkuraviy qarashlari orasida juda katta tafovut bor. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hali etnograflar moddiy madaniyati so'nggi tosh asri darajasida turgan biron-bir kichik qabilani o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlari yo'q. Fanda Avstraliyaning mahalliy aholisi, xususan materikning sharqiy-janubidagi Tasmaniya orolida yashab kelgan tasmaniyaliklarning kishilikning etnografiyaga ma'lum bo'lgan qoloq guruhi deb hisoblanadi. To'g'ri, tasmaniyaliklar hozir yo'q bo'lib ketganlar.

Inglizlarning XIX asrning 20-yillarida boshlagan shafqatsiz mustamlakachilik harakatlari Tasmaniya mahalliy aholisining yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Etnograflarning keltirgan ma'lumotiga ko'ra 1869 yili Xobarta yaqinidagi Ustrichnoy qo'ltig'i qirg'og'ida Uillyam Lenni ismli tasmaniyalik erkak kishi dunyodan ko'z yumgan. 1876 yilda esa Truganini ismli tasmaniyalik ayol 70 yoshlarida vafot etgan. eng so'nggi ma'lumotlarga qaraganda, Tasmaniya mahalliy aholisining oxirgi vakili Fenni Smit ismli ayol 1905 go'rga qo'yilgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u 1833, 1831 yillarda tug'ilib, onasi tasman ayoli, otasi esa noma'lum bo'lgan.

U yoshligida eshitgan o'z xalqining qo'shiqlarini umrining oxirigacha eslab yurgan. Ingliz mustamlakachilarining o'taketgan zolimligi, berahmliligi tufayli tasmaniyaliklarning madaniyati haqida juda oz, aniq vaqtda bir-biriga zid ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tabiiy to'siqlar, tashqi dunyo bilan o'zaro aloqaning yo'qligi Avstraliya

va Tasmaniyadagi qabilalarni rivojlanmasligiga va qoloq bo'lib qolishiga sabab bo'lgan. Ularning turar joylari, uy-ro'zg'or buyumlari juda oddiy bo'lib, ular hali juda sodda bo'lgan. Ular asosan baliqchilik, termachilik va ovchilik bilan tirikchilik qilishgan. Ularning moddiy madaniyati, texnikasi so'nggi tosh asriga yaqin bo'lib, ayni bir vaqtda Mezolit (o'rta tosh asri) hamda Neolit (yangi tosh asri) davriga xos qator belgi va xususiyatlarini topish mumkin. Ularning ba'zilarida hatto o'q-yoy bo'lmagan. Shunday va shunga yaqin qabilalar hozir ham Afrika va Janubiy Amerikadagi chakalakzorlarda yashaydilar. Lekin ular etnografik jihatdan yaxshi o'rganilgani yo'q. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning keng bosqichida turgan mazkur qabilalar bilan ibtidoiy kishilarning moddiy madaniyati orasida ayrim o'zgarishlar mavjud bo'lsa ham, lekin ular o'rtasida davr jihatdan juda katta tavofut mavjud. Ikkinchidan, mazkur qabilalar u yoki bu darajada madaniy dunyoning taqdiriga ham ko'nikib qolganlar.

Shunday ekan, hozirgi zamon qoloq qabilalarining hayotining ibtidoiy kishilar turmushining nusxasi deb bo'lmaydi. Mavjud etnograflardan qiyosiy foydalanib, ibtidoiy kishilar hayotining ayrim tomonlarining tasavvur qilish mumkin. Lekin etnografik ma'lumotlar va arxeologik dalillarning o'zi masalani chuqurroq va har taraflama bayon qilishga ozlik qiladi. Bu sohada arxeologiya, etnografik, antropologiya, geologiya, tilshunoslik, paleozoologiya, paleoklimatologiya, fizika, ximiya, kibernetika va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy gala, urug'chilik jamoasining vujudga kelishi ravnaq topishi, mehnat qurollarining takomillashuvi, chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi, ibtidoiy jamoa tuzimining yemirilishi, ibtidoiy kishilarning madaniyati haqida birmuncha to'laroq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Demak, insonning kelib chiqishi, ibtidoiy jamiyat tarixini tiklash, u davrning qator masalalarini o'rganish uchun hozirgi zamonning qator fanlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

- 1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

3-Mavzu: “Ibtidoiy jamiyat tarixi” fanining tarixshunosligi.

REJA:

1. Yozma manbalar va rasmlar.
2. Demokrit, Lukretsiy Kar insoniyat rivojlanishining kuzatishlari.
3. Evropa sayohatchilari XIX asrda ibtidoiy jamoa to'g'risida ma'lumotlar to'planishi va ularni umumlashtirish.

Qadimgi va o'rta asrlarda ibtidoiy davr haqidagi tushunchalar.

Ibtidoiy jamiyat tarixi bashariyat tarixining ajralmas qismini tashkil etadi. U tarix fanining boshqa sohalariga nisbatan ancha yosh bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarimlaridan vujudga keldi va yuz yildan beri mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda. Lekin bu degan so'z ilgari odamlar insonning jamiyati tarixining bu dastlabki davri haqida hech qanday tushunchalarga ega emas edilar, degan fikr kelib chiqmasligi kerak.

O'zining uzoq o'tmishiga qiziqish kishilarda ular taraqqiyotining dastlabki bosqiyalaridayoq vujudga kelgan. Shu narsa ravshanki, etnograflar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa fan sohiblari tomonidan o'rganilgan xalq, qabila, elatlarda ularning uzoq o'tmishi, ajdodlarining ajoyib-g'aroyib qahramonligi, urug', qabila va xalqlarning kelib chiqishi ularning turmush tarzi haqida juda ko'p og'zaki rivoyat va afsonalar saqlanib kelayotganligi hisobga olingan.

O'zaro qo'shni bo'lib yashagan qabilalar bir-birlarining turmush tarzi mashg'uloti, diniy e'tiqodi qanday ekanligini kuzatishliklari shubhasizdir. Bu kuzatishlar faqatgina so'nggi davrga mansub bo'lib qolmay, juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib tabaqaviy jamiyat vujudga kelishi bilan qadimgi odamlar haqidagi ibtidoiy ertaklar “YArim hayvonlik davri” yoki “Oltin davr” haqidagi afsonalar bilan almashindi.

SHumer-bobilliklarning “oltin davri haqidagi doston”larida davr haqida na ilon, na chayon, na sirtlon, na arslon bo'lgan, yovvoyi itlar ham, bo'rilar ham bo'lmagan, qo'rqinch, dahshat bo'lmagan, insonning ham raqibi bo'lmagan, odamlar g'am g'ussasiz, mehnat qilmay yashab, dushman va urush nimaligini bilmaganlar, deb madh qilinadi. Bu tasavvurlar keyinchalik turli xil shakllarda uzoq vaqt davom etdi.

Qadimgi mualliflar xususan Demokratik ibtidoiy jamoa tuzumi davriga baho berib, ibtidoiy davr kishilari hech qanday oltin asrda yashagan emaslar, qadimgi zamon kishisi ham tirikchilik qiyinchiliklari, tabiat bilan kurash qiyinchiliklari ostida ko'p ezilib azob tortgan deb ta'kidlangan edi.

Ibtidoiy jamiyat tarixi haqidagi dastlabki ilmiy bilimlar diniy qobiqqa o'ralib, afsonaviy tarzda bayon etilgan. Lekin ularda haqiqat kurtaklari bo'rtib turar edi.

Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoy va Qadimgi SHarqning boshqa o'lkalarida yaratilgan qator dostonlar, hikoyalar, qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodiyotida kishilikning ibtidoiy davri haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi.

Bu borada qadimgi grek, rim va bobillik tarixchilari tomonidan qayd qilingan ma'lumotlar qimmatlidir. Qadimgi davr tarixchilari tasavvurida madaniylashgan dunyo faqat O'rta yer dengizi atrofidagi mamlakatlar bilan chegaralanib, undan tashqaridagi bepoyon yerlarda esa ular "varvarlar" deb atalgan qabilalar yashagan. Mazkur qabilalarning ko'pchiligi hali ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida yashar edilar.

Varvarlarning turmush tarzi rim va grek tarixchilariga u qadar yaxshi ma'lum emas edi. Sayohatchilar ular yurtiga kamdan kam borar, borganlari ham u yerlarda qisqa bo'lib, og'zaki ma'lumot to'plash bilan kifoyalanar edilar. To'plangan ma'lumotlar esa ko'pincha bo'rttirilgan va g'ayri tabiiy mazmunga ega bo'lar edi.

Lekin shunga qaramay, xuddi shu qadimgi davrda ibtidoiy qabilalar hayotini bayon etishga asos solinib, bu keyinchalik ibtidoiy davr haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Skiflar, pigmeylar va boshqa ko'p qabilalar haqida Gerodotning (484-425), Kichik Osiyo xalqlari haqida Straboshning er.avv. (63 er. 20) germonlar haqida Yuliy Tsezar' (100-14) va Tatsit, Misr va O'rta Osiyo qabilalari haqida Trog Pompey yozib qoldirgan ma'lumotlari juda qimmatlidir.

Gerodot va Strabonlar varvar qabilalarining ba'zilarida umumiy mulk mavjud bo'lib, ona nasabidan qarindoshlik hisobi barqarorligini payqaganlar.

Xususan, Gerodot laqaylarda ona urug'i tartibi hukmron bo'lib, ular qayliqlarni xotin-qizlarning o'zlari tanlaydilar, sarmat xotin-qizlari juda mag'rur, jangovar bo'lib, o'z dushmanini o'ldirgach, turmushga chiqadilar.

Old Osiyo xalqlari haqida yozgan qadimgi tarixchilar orasida Alenksandr Makedonskiy va dastlabki Salavkiylar sulolasining zamondoshi er.avva. IV-III asrlarda yashagan grek tilini yaxshi bilgan bobillik tarixchi Berossning xizmatlari ham alohida o'rin tutadi. Uni grek tilida Bobil tarixi va mifologiyasi ocherkidan iborat katta tarixiy asar yozganligi ma'lum. Afsuski, Beross yaratgan bu asar zamonamizgacha saqlanib qolmagan. Beross asarining Iosif Flaviiy va boshqa tarixchilarning asarlarida keltirilgan parchalari va tsitatalarigina bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Beross asarlaridan qolgan mazkur parchalarda ibtidoiy zamonlarga oid ma'lumotlar ham uchraydi.

Qadimgi davr, xususan, grek va rimlik mualliflar orasida insoniyatning bu ilk davri to'g'risidagi yagona fikr bo'lmagan albatta.

Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda grek shoiri Gesiod o'zining "Mehnat va kunlar" poeziyasida insoniyat tarixining ilk bosqichini "jamiyat" yoki "oltin asr" shaklida tasavvur qilgan.

Gesiodning o'zi o'rta hol dehqon, mayda quldor bo'lib, u o'zining ikki quli va bir batragi bilan birgalikda dalada ertadan kechgacha mehnat qilgan. U dehqon mehnatiga va har qanday mehnatga g'oyat hurmat va ehtirom bilan qaragan. Lekin ilk quldorlik sharoitida dehqonlarning og'ir ahvolda bo'lishi Gesiodni g'azablantirgan. Bu hol Gesiodni inson tabiati va kishilarning turmush sharoiti asta-sekin yomonlashib uzoq o'tmishdagi baxtli oltin davrdan Gesiod zamonidagi qayg'uli temir davrga borayotganligi haqida pessimistik xulosa chiqarishga olib kelgan. Qadimgi davrning mashhur materialist filosoflaridan biri bo'lgan Gesiod kishilarning qanday hayot kechirganliklari haqida sodda, lekin haqqoniy fikrlar uchraydi.

Demokratning fikricha, yer yuzidagi dastlabki odamlar dag'al, qo'pol va vahshiyona suratda hayot kechirganlar, yemish qidirib o'tloqlarda ko'chib yurganlar. Ular yerda mavjud bo'lgan tabiiy ozuqalar va daraxtlardagi yovvoyi mevalar bilan ovqatlanaganlar.

Oziq- ovqat topish, yog'in-sochin va vahshiy hayvonlardan saqlanish zarurati, kishilarni tabiatning turli-tuman hodisalari bilan kurashish usullarini qidirib topishga majbur etgan, albatta.

Demokrit qarashlarining davomchisi qadimgi rim filosofi va mashhur shoiri Lukretsiy Kar (99-55) "Buyumlarning xislati haqida" nomli poemasida kishilikning eng qadimgi yovvoyilik holatidan olov, kiyim-bosh, turar-joy va boshqa narsalarning kashf qilishigacha bo'lgan taraqqiyot manzarasi qisqacha, lekin haqqoniylik bilan bayon qilingan.

Lukretsiy Kar Demokrit kabi odamlarning muxtojlik, zaruriyat tufayli qilgan kashfiyotlarini izohlab ko'rsatgan va o'sha vaqtda hudoning odamni yaratganligi hamda kishilik jamiyati tarixining tongida "oltin asr" mavjud bo'lganligi haqida tarqalgan afsonalarni tanqid qilgan.

Lukretsiy Karning muhim xizmatlaridan biri shuki, u mehnat qurollarini qanday buyumlardan yasalganiga asoslangan holda kishilik tarixini tosh, mis, bronza va temir davrlariga bo'lishni tavsiya qilgan.

U o'zining mazkur farazi bilan hozirgi zamon arxeologiyasining bu eng muhim qoidasini davrimizdan ikki ming yilcha avval payqashga muvaffaq bo'lganligi kishini hayratga soladi.

Demokrit va Lukretsiylarning kishilik hayotining ilk tonli haqidagi sodda, haqqoniy qarashlari genial farzand iborat bo'lib, u keyingi davrda, xususan, o'rta asarlarda unutib yuborilgan.

O'rta asrlardagi diniy dunyoqarash ilmiy bilimlarni, xususan ibtidoiy jamiyat haqidagi g'oyalarni rivojlanishiga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqdi. Evropadagi ilohiyot olimlari «Tavrot» dagi go'yo xudo tomonidan yaratilgan va o'z gunohlari uchun jannatdan quvib chiqarilgan eng dastlabki odamlar Odam Ato bilan Momo Havo haqidagi afsonani xalq orasida keng tashviqot qila boshladilar. Mazkur afsona xudoning xoxishi bilan dunyoda paydo bo'lgan birinchi odamlar hayoti to'g'risidagi yahudiylar o'zlashtirib olgan shumer afsonasiga asoslanadi. Odam Ato va Momo Havo haqidagi afsona keyinchalik islom dinining asosiy kitobi bo'lgan «Qur'on» ga ham kiritilgan. Ayrim afsonalarda ibtidoiy odamlar it boshli, boshsiz, shuningdek ko'kragida ko'zlari bo'lgan maxluqlar qiyofasida tasvirlab ko'rsatilgan.

XIII asrda yashagan ruhoniylar Foma Akfinskiy tuzgan traktatda olam va odamning yaratilishi ilmga zid barcha yolg'on afsonalar va be'mani davolar bilan tuzatilib yuborilgan ekan. Garchi o'rta asrlarda din homiylari ilmiy bilimlarni xususan, ibtidoiy jamiyat haqidagi ilg'or g'oyalarni har tomonlama bo'g'ishga harakat qilmasin, yer va unda yashagan xalqlar haqidagi bilim asta sekinlik bilan bo'lsa ham olg'a qadam tashladi.

Sharqning mashhur olimlari Evropa va Osiyo xalqlari haqida juda ko'p ma'lumot yozib qoldirishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning «Osori boqiya», «Xindiston» Xitoy geografi CHan-CHunning (XIII asr) asarlari va yilnomalarida SHarq xalqlari, qabilalari, xaqida ularning urf-odati, turmushi, mashg'uloti va madaniyatiga doir juda ko'p ma'lumotlar bor.

Sharq o'lkalariga savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni tiklash uchun borgan plono Karpin, Rubruk, Marko Polo va Afanasiy Nikitin mazkur joylardagi xalq qabilalarining hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'plab, ketganlarki, bu bilan Evropaliklarni Sharq xalqlari haqidagi bilimlari ortdi.

Ularning, kundaliklari, yilnomalari va asarlaridan kishilik tarixining ilk bosqichiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar topish mumkin.

Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, qiyosiy etnografiyasiz kishilikning uzoq o'tmishini tiklash mumkin emas. Shu jihatdan XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va keyingi asrlarda davom etgan, buyuk geografik kashfiyotlar Amerika, Hindiston,

Afrika, Avstraliya, Okeaniya, Osiyo va Evropadagi yashagan qabilalar, elatlar va xalqlar etnografiyasini o'rganish uchun shart- sharoit vujudga keltirdi.

1492 yilda Xristofor Kolumb, Ameriko Vespuchchi, Amerika qirg'oqlariga 1497 Vasko-da Gama o'z odamlari bilan Hindiston yerlariga, 1519-1521 yillarda Magellan butun yer kurrasini aylanib chiqar ekan, ular ketidan okean ortiga kon izlovchilar, savdogarlar, bosqinchi-talonchilar hamda har xil sohaning mutaxasislari ham yo'l oldilar. Ularning ba'zilar mahalliy aholining turmushi bilan qiziqib, mazkur qabilalarning hayoti, ijtimoiy tuzimi, madaniyati va diniy e'tiqodlari haqida qimmatli etnografik ma'lumotlar to'plab juda katta ish qildilar.

Ulardan biri Amerikadagi irokez va guonlar turmushini kuzatgan J.F.Lofitodir (1670-1740) u o'zining «Obuchay Amerikanskix dikarey v sravnenii s obuchayami pervobutnix vremen», - degan asarida shimoliy Amerikada yashovchi qabilalar hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlar bo'lib, ulardan kishilikning ibtidoiy hayot manzarasini tiklashda foydalanish mumkinligini aytgan edi. Lofito mazkur qabilalar orasida bo'lar ekan, o'zining kuzatishlariga asoslanib ibtidoiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi ham Shimoliy Amerika hindularining, xususan guonlar va irokezlarning ijtimoiy tuzimiga o'xshash bo'lgan bo'lsa kerak, degan fikrni bayon qilgan. Ana shularga asoslanib, Lofito Evropa xalqlarining eng qadimiy davrini Shimoliy Amerika hindularining urf-odatlarini asosida izohlab tushuntirib berish mumkinligini birinchi bo'lib maydonga tashladi.

Yangi yerlarni kashf qilinishi XVIII asrning oxirigacha davom etib, bu ibtidoiy tarzda hayot kechirayotgan xalqlar bilan yanada kengroq tanishishi imkonini berdi. Laperuz Monertyun, Butenval', J.Kuk va boshqa sayyoxlar o'z kashfiyotlari to'g'risida ajoyib ma'lumotlar qoldirib ketdilar. O'zlari ochgan yerlar, u yerdagi aholi haqida, ularning ijtimoiy tuzumi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladilar.

XVIII asr boshlaridan boshlab Sharqiy Evropa va Shimoliy hamda Sharqiy Osiyoga ham qator ekspeditsiyalar uyushtirildi. Ajoyib rus sayyohlari va ta'dqiqotchilaridan G.Novitskiy, G.F.Miller. I.G.Gmelin, S.N.Krashennikov, G.V.Stiller, I.S.Pallas, I.G.Georgiy, V.F.Zuev, I.I.Lepexin kabi sayyoxlar Ural, Volga bo'yi, Rossiya, Evropa qismi Shimoliy va Sharqiy Osiyoda yashovchi xalqlarning turmushi, dini, mashg'uloti, xalq og'zaki ijodiyotiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar to'pladilar.

S.P.Krashennikov (1713-1755) «Kamchatka yerlarining bayoni» nomli asarida kamchatkalilarning itel'men qabilalari haqida to'xtalib, ular ham metall nima bilmas va urug'chilik tuzumi sharoitida yashar edilar deb yozgan edi.

Rus sayyohlaridan I.F.Kruzenshtern, YU.F.Lisyanskiy, O.E.Kotsebu, F.P.Litke, A.P.Lazarev, L.YA.Zagoskin va I.E.Kennaminov kuabilar Okeaniya haqida hamda

Shimoliy Amerikaning eskimos, hind-atapask va boshqa qabilalari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladilar.

Mashhur rus etnograf olimi N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888) yangi Gvineyadagi papuaslar orasida uzoq yashab, ularning urf-odatlarini va turmush madaniyatini chuqur o'rganib, katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plagan.

Ulug' geografik kashfiyotlar va undan keyingi davrlarda juda ko'p etnografik materiallar to'plandiki, bular ibtidoiy tuzumning shakllanishi haqida turli xil nazariyalarni vujudga kelishiga asos bo'ldi. XVIII-XIX asarlarda yashab ijod etgan Adam Fergiyuson. I. Forster uning o'g'li Georg, K.YU.Tomsen, I.YA.Verso. S. Nilson, J. Bushe de Pert, D. Evans. CH. Layel'. Mak-Ineri SHmerling, CH. Darvin. T. Gekspi kabi olimlar odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy jamiyatning davrlarga bo'linishi, u davr kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnat qurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil mulohazalar bildirdilar. XIX-XX asrlarda esa e.Teylor, G.Speyser, J.Fyurgyuson. Mak-Lennai. YU.Lippert. J.Lobbok. G.Mortel'e, O.Mon-Telnus I.YA.Baxofen kabilarning ibtidoiy jamiyat tarixiga bag'ishlangan asarlari chop etila boshladi.

Mazkur olimlarning aksariyati ibtidoiy jamiyat tarixining ko'pgina masalalariga ob'ektiv suratda yondoshib, ularni ilmiy asosda talqin qila boshladilar.

Bu sohada Shotlandiya filosofi Adam Fergiyusonning (1723-1816) fikrlari ayniqsa diqqatga sazovordir. U o'zining «Grajdanlar jamiyati tarixi ocherki» nomli asarida tarixni yovvoyilik, yaxshilik va madaniylik degan uch davrga bo'lgan. Shuni alohida o'qtirib o'tish kerakki, Fergiyuson birinchilardan bo'lib, ibtidoiy jamiyatda ibtidoiy kommunizm tartibi mavjud bo'lganligi haqidagi fikrni bayon qilgan. Nemis olimlaridan Iogann Forster (1729-1798) va uning o'g'li Georg Forster (1754-1794) ham shunday fikrlar bilan maydonga chiqib, kishilikning eng qadimgi tarixini bolalaik yoki yovvoyilik, yoshlik yoki yaxshilik va yetuklik yoki madaniy holatlari bosqichiga ajratishgan.

Frantsuz arxeologlaridan J.Bushe de Perta (1788-1868) juda qo'pol ishlangan tosh qurollarni topib, ular qadimgi mamont, nosorog va boshqa yovvoyi hayvonlar bilan bir zamonda yashagan ibtidoiy kishilarning mehnat qurollari haqida bayon qildi. Bushe de Pertaning kashfiyoti insonning kelib chiqishi haqidagi «Bibliya» -«Ibijil», «Tavrat» va «Quron»da keltirilgan sanaga katta zarba berib, uning qidimiyligini isbot qilib berdi.

J.B.Demark, CH.Darvin va Tomas Gekelilar esa insoniyatning eng, qadamgi ajdodi odamsimon maymun ekanligini bayon qilib berdilar.

Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar dastlabki kishilar, ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vujudga kelishi, uning davrlarga bo'linishi, rivojlanish etaplari, u davr

kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnatqurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil fikr hamda mulohazalar bilan maydonga chiqdilar.

Bu bilan ular ibtidoiy jamiyat tarix fanining vujudga kelishida salmoqli hissa qo'shdilar. Lekin bular orasida I.YA.Baxofen, Mak-Lennan va amerikalik mashhur etnograf L.G.Morganning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Shvetsariyalik tarixchi va yurist I.YA.Baxofen ibtidoiy rila va nikoh masalalarini o'rganish ishiga eng dastlabki asos solgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U qadimgi klassik adabiyot, etnografiya va arxeologiya fanlari qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga asoslanib yaratilgan «Onalik huquqi» va boshqa asarlarida oila va nikohning vujudga kelishi haqida qimmatli mulohazalar bildirdi.

I.Ya.Bahofen dastlabki jinsiy aloqa, onalik huquqi, ayollarning tutgan o'rni, ona va ota o'rtalari haqida qadimgi fikrlarni bildirdi:

1. Kishilar dastlab tartibsiz jinsiy aloqa qilib yashaganlari, buni-Baxofen geterizm erkin hayot kechiruvchi ayol degan nomuvofiq nom bilan atagan. 2. Shunday ekan, tug'ilgan bolaning otasi kim ekanligini bilishning imkoniyati bo'lmagan, binobarin nasl-nasabni faqat ona tomonidan qarab onalik-huquqiga qarab belgilash mumkin edi.

3. Demak shunday ekan, xotinlar tug'ilgan bolalarning onalari yosh bo'g'inni tug'ib o'stirishlari hammaga aniq ma'lum bulgan. Birdan-bir onalar bo'lganliklari sababdan, juda katta e'tibor qozonganlar va izzat-ikrom qilinar edilar.

Ayollar bunday izzat-ikrom qilinganliklari tufayli to'la hukmronlik-ginekokratik darajasiga etishar edilar.

4. Bir nikohlilikka o'tish, bu juda erkakniki bo'lib, bu hol eng qadimdan diniy nizomni buzish, degan gap edi: bu tartibni buzish jazo berilishini talab qilar, yoki hech bo'lmaganda bu xotin bundan keyin ma'lum bir vaqt ichida boshqalar bilan aloqa qilib gunohini yuvishi kerak edi.

Uning fikricha, geterizmdan monogamiyaga va ona huquqidan ota huquqiga taraqqiy etish diniy tasavvurlarning yanada taraqqiy etishi natijasida sodir bo'ladi, deb noto'g'ri fikrni bildirishgan. Shunga qaramay, Baxofen Aristotel zamonidan beri hukm surib kelayotgan patriarxal nazariyaga kishilikning boshlang'ich shakli ota-onalar va ularning avlodlaridan tashkil topgan oiladan, oilada esa katta yoshdagi erkak hukmron, uning huquqi chegaralanmagan edi, degan noto'g'ri fikrga qattiq zarba berdi. Ammo Aristotelning patriarxal oila nazariyasi burjua adabiyotida hamon saqlanib kelmoqda.

I.YA.Baxofenning «Onalik huquqi» asari bosilib chiqqandan so'ng oila tarixini o'rganishga asos solindi.

Ibtidoiy nikoh va oila tarixini o'rganishda shotlandiyalik yurist J. F. Mak-Lennaning (1827-1881) ham xizmati bor.

Mak-Lennan qadim zamonda yashagan va yangi zamonda yashayotgan qabila va xalqlarda nikohlanishning formalari shubhasiz xilma-xil bo'lgan, degan fikrni bayon qiladi. Qoloq qabilalar orasida deydi u, shunday gruppalar mavjud bo'lganki, mazkur gruppalar ichida o'zaro nikohlanish mutlaqo man etilgan. Shuning uchun ham erkaklar xotinni, xotinlar erni o'zlari yashab turgan gruppadan tashqari joydan olishgan. Lekin shunday gruppalar ham mavjud bo'lganki, ularda erkaklar xotinni, xotinlar erni o'z gruppalari ichidan tanlash odati bo'lgan.

Mak-Lennan birinchi gruppani ekzogamiya, tashqaridan nikohlanish, ikkinchisi esa endogamiya, ichkarida gruppa doirasida nikohlanish tartibi deb atagan.

Mak-Lennaning xizmati shundaki, u o'zi ekzogamiya deb atalgan nikoh tartibining hamma joyga tarqalganligini va uning katta ahamiyati borligini ko'rsatdi.

Uning boshqa xizmati shundaki, u nasl nasabni onalik huquqiga qarab tayin qilish, dastlab hukm surgan tartib ekanini e'tirof etdi. Ammo u barcha qabilalar ekzogamiya va endogamiyaga bo'linib, ekzogamiya mazkur gruppada qiz bolalarni tug'ilishi bilanoq o'ldirilishi natijasida ayollar sonining kamayib ketishi oqibatida kelib chiqqan, deb noto'g'ri xulosaga keladi.

Mak-Lennan o'zining bu mulohazalarini «Qadimgi tarix ocherklari», «Boshlang'ich nikoh» kabi asarlarda bayon qilgan.

Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda mashhur Amerika olimi L.G.Morgan (1818-1881) ham alohida o'rinni egallaydi. L.G.Morganning ibtidoiy va qadimgi davr qabila va xalqlari haqidagi qarashlari uning «Qon qarindoshlik tizimi», «Amerikaliklarning uyi va uy xo'jaligi», ayniqsa «Qadimgi jamiyat» degan asarlarida o'zini to'liq ifodasini topgan. Uning xulosalari yer sharining hamma joylaridan olingan juda ko'p etnografik, arxeologik va tarixiy dalillarga asoslangan edi. L.G.Morgan Shimoliy Amerika hind-irokezlar orasida 40-yildan oshiq yashab, ular hayotini chuqur o'rgangan. Bu kuzatishlar Morgan tadqiqotlarining negizini tashkil etadi. Baxofen va Mak-Lennandan so'ng oila va nikoh tarixi bilan qiziqib, uni tiklashga kirishdi. L.G.Morgan oila va nikoh taraqqiyotining qator bosqichlarini-eng dastlabki nikohdan monogamiyagacha bo'lgan bosqichlarini belgilab berdi.

L.G.Morganning ulug' xizmati shundan iboratki, u yozma tariximizning ana shu tarixdan bugungi negizining asosiy xususiyatlarini ochib bordi va tikladi hamda qadimgi greklar, rimliklar va germanlar tarixining hozirgacha hal qilinmay kelgan eng muhim

muammolarini hal qilishga imkon beradigan kalitni Shimoliy Amerika hindularining urug'doshlik birlashmalaridan topdi.

L.G.Morganning asarlari, xususan uning, «Qadimgi jamiyat» kitobi, ibtidoiy davr tarixini o'rganishda eng qimmatli manbalardan hisoblanib, Engels aytganidek, zamonamizda, butun bir davr ochadigan juda nodir asarlardan biridir.

Lekin ibtidoiy davr tarixini ilmiy asosda o'rganish XIX asr o'rtalarida boshlandi.

Ayrim chet el olimlari eng qadimgi davr fanidan o'zining fazilatlarini mustahkamlash uchun foydalanib, bu davrda xususiy mulkchilik, qulchilik, yakka xudolik va davlat ham mavjud bo'lgan deb, ibtidoiy munosabatlarning mohiyatini qo'pol ravishda sohtalashtirishga urindilar.

To'plangan ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tarixini to'laroq tushunish uchun yangi dalil bo'lib xizmat qildi. V.V.Bunok. G.A.Bonch Osmolovskiy, G.F.Debets. M.M.Geratsimov. M.F. Nisturx. YA.YA Roginskiy, V.P.YAkimov, V. P. Alekseev va boshqa antropologlarning asarlari odamning kelib chiqish bosqichlari. Kishilik jamiyat vujudga kelishining yo'llari. Tart-garoitlari haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish yangi-yangi imkoniyatlarni ochib berdi va bermoqda.

P.I.Boriskovskiy. A.YA.Bryusov. P.P.Efimenko. S.N.Zamyatin. A.P.Okladnikov. V.I.Rovdonikos. S.T.Semyonov. D.A.Kraynov. A.V.Artsixovskiy. O.N.Bader. V.L.Gorodtsov, S.P.Tolstov. V.M.Masson va boshqa arxeologlarning tadqiqotlari esa ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan kishilarning ekonomikasi va madaniyatini qayta tiklash uchun qimmatbaho ashyo va muhim manba hisoblanadi.

Etnograflardan A.M.Zolotoryov. E.YU.Krichevskiy. M.Kosven. V.K.Nikolngskiy. D.A.Olderogge. S.A.Tokarev. S.T.Tolstov. YU.P.Averkeva. L.A.Foynberg. V.R.Kabo kabi atoqli namoyondalarning ishlari esa urug', qabila, nikoh, din va ibtidoiy davrdagi boshqa masalalarni rivojlanish jarayonini tushunishda katta imkoniyatlar ochib berdi.

Antropolog, etnograf, arxeolog va boshqa aniq fan mutaxassislarining birgalikda ish olib borishlari natijasida kishilikning ibtidoiy davri haqida to'laroq ma'lumotlarga ega bo'lindi.

Davrlashtirish masalasi. Kishilik jamiyati tarixini, shu jumladan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lmay turib o'rganish mumkin emas. Davrlarning o'rganish tarixiy jarayon zamon va davrlarga bo'linib, ular muxim voqealar bilan bir-biridan ajraladi. Tarixni xususan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish juda murakkab bo'lib, xali bu ilmiy jihatdan nihoyasiga yetgani yo'q.

Kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish qadimgi dunyodayoq eramizdan avvalgi 1-asrda yashagan Rim faylasufi Lukretsiy Kar o'zining «Narsalarning tabiati»

nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini, tosh qurollar bilan undan so'ng temir qirollar bilan almasha borganligini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutilib yuborilgan.

Shotlandiya filosofi A.Fergyuson kishilik tarixini uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va tsivilizatsiyasiga bo'lib o'rginishni tavsiya qilgan. Arxeologlar ibtidoiy davr kishilaridan qalغان moddiy va madaniy buyumlarni o'rganish asosida kishilikning ibtidoiy tarixini uch davrga: tosh, bronza, (jez) va temir asrlariga bo'ladilar.

Tosh asri esa o'z o'rnida yana qadimgi va yangi tosh davrlariga bo'linadi. qadimgi tosh asri qazilma odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda yerning iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqlangan tosh va sopol idishlarni bilmaganlar. Ular yog'ochdan tayyorlangan so'yil va oddiy tosh qurollaridan foydalanganlar.

Qadimgi tosh asri kishilari ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar, baliqchilik esa endi shakllana boshlagan bo'lib, ular dehqonchilik va chorvachilikdan mutlaqo xabarsiz edilar. Kishilik jamiyati tarixining juda katta davrni o'z ichiga qamrab olgan tosh davri 2-bosqichga: eng qadimgi (quyi, ilk) va keyingi (yuqori) tosh asrlariga bo'linadi.

Eng qadimgi tosh asri Olduvay, (Ashel'gacha), qadimgi Ashel', keyingi va o'rta Ashel' hamda Must'e davrlariga bo'linadi. Uning eng quyi sanasi 3,5-3 ml, yuqorisi esa 100-35 ming yilga kelib taqaladi.

So'nggi paleolit esa orinyak solyutriy va madlen davrlariga bo'linib, 40-35 ming yilliklardan 15-12 ming yilliklargacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

So'nggi tosh asridan so'ng esa o'rta tosh-mezolit asri boshlanib, 12-15 ming yilliklar orasidagi davrni qamrab oladi.

Mezolitdan so'ng tosh asrning so'nggi bosqichi neolit-yangi tosh asri boshlanib, Evropaning markazi g'arbi, sharqi va janubiy o'lkalarida, Osiyoda uning sanasi 5-3 ming yilliklarga mansubdir.

Neolit davridan so'ng Iniolit va undan so'ng bronza asri boshlanadi. eneolit eramizdan avvalgi 4-ming yillikka mansub bo'lsa, bronza davri 3-ming yillikning oxiridan eramizdan avvalgi 1-ming yillikning boshlarigacha davom etadi.

Bronza asridan so'ng Evropa, Osiyo va boshqa joylarda temir asriga o'tish boshlandi. Ibtidoiy jamiyat tarixini arxeologik jihatdan davrlashtirish mazkur davrning ishlab chiqarish kuchlarini puxta o'rganish uchun muxim ahamiyatga egadir.

Lekin bu masalani oydinlashtirish uchun etarli emas.

Ayni vaqtda mazkur arxeologik davrlar yer tarixining geologik bosqichlari bilan zamondosh bo'lishi mumkin.

Odamning paydo bo'lishi zaminimiz tarixining to'rtlamchi bosqichiga to'g'ri keladi.

Geologik jihatdan to'rtlamchi davr to'rt: Neogen, evilestotsen, Pleystotsen va Golotsen bosqichlariga bo'linadi.

Mazkur davrda Shimoliy Evropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning ko'p joylarini vaqti-vaqti bilan Dunay, Gyuns, Mindel, Riss va Vyuriy deb ataluvchi muzlik qoplab turgan. Lekin golotsenga kelib mazkur joylardagi muzlar erib u erlarning tabiati o'zgarib ketdi. Arxeologik nuqtaiy nazardan neogen va evpleystotsen qadimgi tosh asrining oldvay (Shelgacha) pleytotsen qadimgi shell. O'rta va so'nggi ashel, mushte va so'nggi paleolit davrlariga to'g'ri keladi. Golotsen esa mezolit va neolit asrlariga mos tushadi. Kishilikning ibtidoiy bosqichini to'g'ri davrlashtirish uchun arxeologiya, geologiya, klimatologiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarni joriy qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzimi davrdagi ishlab chiqarish kuchlarini to'laroq o'rganish uchun imkoniyatini beradi.

XIX asrda qator olimlar jamiyat tarixini davrlashtirishga intilib ko'rdilar.

Ulardan biri Shved olimi Nilson bo'lib u jamiyat tarixini yovvoyilik, ko'chmanchilik, dehqonchilik va (tsivilizatsiya) madaniylashgan bosqichga ajratadi. Mashhur Amerika etnografi L. G. Morgan ham Fergyson kabi tarixni yovvoyilik, varvarlik va madaniylashgan bosqichga ajratadi. Morgan ibtidoiy jamiyat tarixini yovvoyilik va varvarlik davrlariga bo'lar ekan, bu ikki davrning har birini tirikchilik vositalarni ishlab chiqarish sohasidagi muvaffaqiyatlariga qarab quyi, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'ladi. L. G. Morganning fikricha, yovvoyilikning quyi bosqichida insoniyat shakllandi. « Odamlar yirtqich hayvonlar orasida yashab, yovvoyi mevalar, yong'oqlar va ildizlarni ovqat sifatida iste'mol qilganlar. Bu davrning eng muhim yutug'i ma'noli nutqning vujudga kelganligidir».

O'rta bosqich esa baliqchilikning kelib chiqishi va olovni hosil qilish va undan foydalanish bilan xarakterlanadi. Yovvoyilikning yuqori bosqichi esa o'q yoyni kashf qilinishi bilan mashhurdir.

Varvarlikning quyi bosqichida kulolchilik joriy qilingan bo'lsa, o'rta bosqichida hayvonlar qo'lga o'rgatilib xonakilashtirildi, sug'orma dehqonchilik vujudga keladi. Yuqori bosqich esa temir rudasini eritish bilan boshlanadi. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya, lingvistika, xalq og'zaki ijodiyoti va boshqa fanlarning yuz yildan ko'proq vaqt ichida qo'lga kiritgan yangiliklar morganning davrlashtirishda kamchiliklar borligini

ko'rsatdi. Keyingi davrdagi arxeologik kashfiyotlar ibtidoiy kishilar olovdan Morgan faraz qilgan vaqtdan ilgariyoq foydalanganliklarini isbotlab berdi.

Demak, 19-asrning ikkinchi yarmida zaruriy dalillarning yo'qligi tufayli Morgan va boshqalar ibtidoiy jamiyat tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli darajada baho bera olmadilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumini ijtimoiy munosabatlar jihatidan ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb biladilar.

Ulardan birinchisi ibtidoiy gala to'da bosqichi bo'lsa, ikkinchisi esa, urug'chilik jamoasi bosqichi.

Lekin tarixchilarning ko'pchiligi mazkur jamiyatni 3-bosqichga bo'ladilar: ular kishilikning ibtidoiy to'da, urug'chilik jamoasi va ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrlaridir.

Ibtidoiy to'da ibtidoiy jamiyat tarixi rivojlanishining eng dastlabki bosqichini tashkil etadi. Bu davrda eng dastlabki inson vujudga kelgan. Uning qo'li bilan esa dastlabki tosh qurollar yasaladi.

Odamlar o'zining hayvon ajdodidan birgalashib mexnat qilishlari. Sodda bo'lsa ham mexnat qurollari yasashda binobarin madaniyatga asos solishga o'zlarining hayvon ajdodlaridan tubdan farq qilib, ulardan uzoqlashib ketgan edilar. Ular gala gala bo'lib yashar edilar. U davr kishilari bir biri bilan mustahkam bog'langan edilar. Gala soni 25-30 kishi bo'lib tez-tez o'zgarib turardi. Arxeologik jihatdan bu davr ilk tosh davriga mansub juda uzoq davom etgan. Morgan bu davrda yovvoyilikning quyi bosqichiga kiritadi.

Ibtidoiy jamoa tarixining ikkinchi bosqichi ibtidoiy urug'chilik jamoasi bo'lib inson ongining rivojlanib borishi va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining olg'a qarab siljishi bilan boshlanadi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishi natijasida kishilik jamiyatining ancha barqaror tashkiloti urug'chilik jamoasi vujudga keladi.

Ibtidoiy urug'chilik jamoasi davri ibtidoiy jamoa tuzumi shakllanishi rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu arxeologik jihatdan so'nggi o'rta va yangi tosh davrlariga to'g'ri kelib Morganning tarifi bo'yicha yovvoyilikning o'rta va yuqori, varvarlikning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi.

Ibtidoiy jamiyat tarixining uchinchi bosqichi mazkur jamiyatning buzila boshlanishi davri bo'lib, tosh qurollar o'rnini metallar egallashi munosabati bilan ishlab chiqarish yanada yuksaladi.

Mazkur bosqichda, xo'jalik tarmoqlarining hamma sohalarida yuksalish bo'lib ortiqcha mahsulot to'planadi. Jamg'arilgan boyliklar hisobiga esa talonchilik urushlari keng yoyiladi.

Rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish kuchlari bilan urug'chilik tuzumining kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlar borgan sari chuqurlashadi. Natijada urug'chilik buzilib, oilaviy qo'shni jamoalar vujudga kela boshlaydi. Urug'chilik aloqalari susayib qo'shnichilik munosabatlari kuchaya boshlaydi.

Ibtidoiy jamoa tuzimi buzila borib alohida ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'ladi.

Mazkur jamiyat negizida xususiy mulk, tabaqa, tabaqaviy va nihoyat davlat kelib chiqadi.

Adabiyotlar

- 1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

4-Mavzu: Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish

REJA:

1. Ibtidoiy jamoa davrlanishi va sanalari tosh, mis va temir asrlari.
2. Sanalarni aniqlashda tabiiy fanlarning o'rni.
3. Mehnat qurllari takomillashuvi jarayonining sanalarni aniqlashdagi ahamiyati.

Ibtidoiy jamiyat bo'linar ekan, mazkur davrda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni qachon, qaysi vaqtda bo'lganligini aniqlash ibtidoiy jamiyat tarixi fani oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Arxeologik yodgorlikning madaniy qatlamlaridan kavlab olingan moddiy buyumlarning nisbiy yoki absolyut haqiqiy aniq sanasi aniqlanmas ekan, mazkur moddiy buyumlar o'tmishini o'rganishning haqiqiy tarixiy manbasi bo'la olmaydi, balki arzimas, tashlandiq narsaga aylanib qoladi.

Tarix fanida, xususan, ibtidoiy jamiyat tarixi fanida davrni aniqlash, sanasini belgilab olish juda murakkab bo'lib, uning xilma-xil usullari mavjud.

Moddiy va madaniy buyumlarni sanasini aniqlashda arxeologiya, geologiya, poleontologiya, fizika, ximiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlar asos qilib olindi.

So'nggi yillar ichida olimlar ibtidoiy jamiyat tarixining nisbiy va mutloq sanasini aniqlashning yangi usullari kashf etilib sinab ko'rildi. Geoxronologiya, roleometrik Radiouglerod, dendroxromologiya, arxeomagnit, kaliyargon va boshqa usullar shular jumlasidandir.

Mazkur usullarni qo'llash natijasida ibtidoiy jamiyat tarixining davrini aniqlash va sanasini belgilashda ancha yaxshi natijalarga erishildi.

Atmosferada esa uni o'simliklar yutadi, o'simliklar va nafas organlari orqali hayvonlar organizmiga singadi. Hayvon va o'simliklar halok bo'lar ekan, S^{14} ham emirila boshlaydi. Karbonatning yarim emirilishi 5500-6000 yilga teng, demak karbonatning yemirilishi darajasi bilib olingach, o'simlik va hayvonning yashagan vaqti ravshan bo'ladi.

Keyingi vaqtda arxeologik va yodgorliklarning sanasini aniqlashda kaliy-argon Ach^{10}) usuli ham keng qo'llanilmoqda. Kaliy-organ usuli yordami bilan tarkibida kaliy bo'lgan vulqon madanlarining yoshini aniqlash mumkin.

Arxeologik yodgorliklardan topilgan sopol buyumlarni vaqt-sanasini aniqlashda arxeomagniy usuli ijobiy natijalarni bermoqda.

Olimlarning mulohazalariga ko'ra sopoldan yasalgan buyumlarga erning magniy maydoni ta'sir etib, u sopolda uzoq vaqt o'zgarmagan holda saqlanib qoladi.

Sopol buyumlarni magnitlanish natijasiga ko'ra, Yerning magniy maydoni chiziqlari tortiladi. Shunga qarab qadimiy sopol idishlar, sopoldan yasalgan boshqa buyumlarning sanasi aniqlanadi. Mazkur usul yerdan kavlanib olingan sopol buyumlarning sanasini 25 yil xato bilan belgilab berishi mumkin.

Sanani aniqlashning yana bir usuli dendroxronologik usuldir. Bu usul yordami bilan arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan daraxtlarning yillik xalqalriga karab, uning kesilgan vaqtini bir yilgacha aniqlida bilib olish mumkin.

Odamning eng qadimgi ajdodlari. Inson tabiat tirik mavjudodlarning eng oliysi va gul tojisi hisoblanadi. Yer yuzida bu oliydarajadagi mavjudotning paydo bo'lib, yashay boshlaganiga qarib 3, 5,3,5. million yillar o'tdi. Mazkur davr mobaynida inson mehnat qilish tufayli hayvonlar olamidan ajralib chiqib, uzoq rivojlanish bosqichini o'z boshidan kechirib, nihoyat bundan 40-45 ming yil ilgari hozirgi zamon qiyofasidagi odamga aylandi. Shu bilan antropolonez jarayoni ham tugab, nihoyasiga etdi.

O'zining kelib chiqishiga qiziqish uni bilishga intilish odamlarda juda ham erta uyg'ongan.

Lekin kishilarning ilmiy bilimi juda oz bo'lganligi tufayli bu masalaga uzoq vaqt javob topmaganlar. Ammo kishilar o'z ajdodlari haqida ko'pdan-ko'p afsona va rivoyatlar

to'qiganlar. Ilmiy bilimlarning to'plana borishi natijasida odamlarda o'z o'tmishiga qiziqishning tobora kuchayishiga olib kelgan. Natijada odamning paydo bo'lishi haqida xilma-xil nazariyalar paydo bulgan.

Odamning paydo bo'lishi va yaratilishi haqida qadimgi o'rta asr diniy kitoblarida mantiqsiz afsona va rivoyatlar ko'p uchraydi.

XVIII va XIX asrlarda arxeologik, antropologiya soxasida qo'lga kiritgan ilmiy dalillar va ilg'or qarashlar, odamning kelib chiqishi xaqidagi diniy rivoyat va afsonalar ilk bor zarba berib, bu masalani bundan keyingi rivoji uchun zamin hozirladi..

XVIII-XIX asrlarda shakllanib vujudga kelgan arxeologiya fani qo'lga kiritgan yangi dalillar aloxida ahamiyatga ega bo'ldi.

Qadimgi davrning ilg'or fikrli Rim, Yunon, Xind va Xitoy mutaffakrlari insonning tabiiy ravishda paydo bo'lganligi haqida o'z muloxazalarini bildirganlar.

Lekin bu -fikr o'rta asrlarda cherkov va dinning ta'siri natijasida rivojlantirilmadi. Ammo XVII asr oxiri va XVIII acrdan boshlab olimlar bu masalaga jiddiy e'tibor bera boshladilar.

CHunonchi J. B. Lamark Karl Linney. Tomas Geksli va boshqalar insonning bialogik jixatidan maymunlarga yaqinligi, kelib chiqishi va uning tabiatda tutgan o'rni haqida ilg'or fikrlar bilan maydonga chiqdilar.

Bu sohada mashxur ingliz alimi, tabiatshunos CH.CHarl Darvinning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir. CH. Darwin o'zining "Tabiy tanlanish, yo'li bilan turlarning paydo bo'lishi (1850), «Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish-degan asarlarida o'zigacha to'plangan va o'zi yiqqan materiallarga asoslanib o'simliklar va xayvonlarning eng oddiy turlaridan rivojlanib, oliy turlarga etganligini isbot qilib berdi. CH. Darwin odamning xayvonot olamidan kelib chiqqanini isbot qilib berar ekan, u odimning paydo bo'lishida tabiiy tanlanishning ahamiyatiga ortiqcha baxo berib yuborib, ong muhim sotsial sabab bo'lgan mehnatning olamshumul ahamiyatini payqamadi. Lekin Darvinning ulug' hizmati o'simliklarni, xayvonlarni hamda odamni xudo o'zgarmaydigan qilib yaratgan degan diniy afsonaviy fikrlarni yo'qqa chiqardi. U o'zining evolyutsion ta'minoti bilan er yuzidagi butun tirik mavjudotlarning oliysi odam ham yaratilgan, hamda turlar o'zgarmaydan degan metofizik va diniy tasavvurlarga qarshi chiqib, bu fikrlarni xato ekanligini isbot qilib berdi.

Lekin CH. Darwin o'z asarlarini yozayotgan davrda uchlamchi davrning odamsimon maymunlari bilan undan ko'p million yillar keyin kelib chiqqan xozirgi zamon odlarining bir-biri bilan bog'lovchi topilgan emas edi.

Lekin ko'p yillar davomida olib borilgan geologik, paleontologik arxeologik tadqiqot ishlari oraliqdagi bu uzilishni bir darajada to'ldirdi. Odamning ham, gorilla va shimponzelarning yaqin umumiy ajdodi hisoblangan odamsimon qazilma maymunlar driopiteklar 11-20 million yillar ilgari miotsen davrida, janubiy Osiyo, janubiy Evropa va Afrikada tarqalgan edi.

Bulardan yana biri darvin driopeteki bo'lib, uning qoldiqlari Avstraliyaning o'rta miotsen yotqiziqlaridan topilgan.

Odam ajdodiga yaqinroq maymunlardan yana biri ramapitek bo'lib, ularning suyak qoldiqlari Shimoliy -Hindistondagi Sivalika tepaligining quyi pliotsen yotqiziqlaridan topilgan.

Romaniteklarning qoldiqlari Sharqiy Afrikadagi Keniyadan topilib, uni keniyapitek ham deb ataladi. Ular 10-14 million yil ilgari yashagan mavjudotdir.

Bu bosqichda inson ajdodi hozirgi zamon odamsimon maymunlaridan ajralib chiqqan bo'lib, romanotipek odam ajdodi deb hisoblash mumkin emas edi.

Romanotipetik tropik o'rmonlarda, daraxtlar ustidayashab o'simliklar bilan ovqatlanar va u ham odamsimon maymunning o'zginasi edi. Lekin ba'zan olimlar romanitipek nisbatan ochiq joylarda yashib, ikki oyoqda yurgan, degam fikrni ilgari suradilarki. Ammo bu qarashni ko'p olimlar qo'llab quvvatlamaydilar.

Bu jihatdan ham diqqatga sazovor bo'lib, uning ikki tishi, yuqori jag' suyagining sinig'i 1939 yili Sharqiy Gruziyaning Sagarji rayonidagi Udobno degan joydan topilgan.

Udobnopitek miotsening oxiri, plotsenning boshlarida ya'ni 13-16 million yil muqaddam yashagan. Udobnopitek tishlarning tuzilishiga qarab xukm chiqarilsa, u ko'p jixatdan drionitek va rominipiteklarga yaqin bo'lgan. Olimlarning ta'kidlashicha u qadimgi karkidan, mastadan, ginparion, jrafa va giena kabi yirik hayvonlar bilan zamondosh bo'lgan odamsimon maymun edi.

Ammo avstralopitek deb ataluvchi qazilma maymun zoti romanipitekka, nisbatan ham odamga juda yaqin edi. Avstrolopitekning suyaklari dastlab 1924 yili R. Larte tomonidan kashf etilib bayon etilgan.

So'nggi vaqtda olib borilgan qidiruv ishlari natijasida 400 dan ortiq avstrolopitek maymunlarining suyak qoldiqlari topildi. Ularning aksariyati Janubiy va Sharqiy Afrikadan topilib, ikki urug'ga mansubdir.

Bu Tuanga, Makapansgata va Sterkfoytadan topilgan afrikali avstralopitek hamda Kromdraya va Svarkraisadan topilgan parangriotidir. Ularning sanasn 900 ming yildan 3 million yilgacha borib taqaladi. Bular parantrop va boys zinjontropiga mansub bo'lib, Tanzaniyaning Olduvay darajasidan, Keniyaning Turkona (Rudolf) ko'li atrofidagi

Kanepoy, Koo'a-fora, Lotegam, Ileret, Efiopiyaning janubidagi Omo daryosi vodiysidan topib o'rganilgan. Sharqiy Afrika avstropiteklarining sanasi kadiy-argon usuli bilan aniqlanishiga 5,5 bilan 0,7 million yil bilan chegaralanadi.

Shuni ham aytib o'gish kerakki, SHarqi-Janubiy va Janubiy Osiyodan ham avetrolonitekka yaqin bo'lgan mavjudodlarning suyaksuyaklari topilgan.

Xitoyning janubidan topilgan Blek gigantopitegeni Shimoliy Hindistonda topilgan *bilaspur* gigantointegining hamda Yavaning Sangirak degan joyidan topilgan qadimgi yavan *magintropolarini* shular jumlasidan kiritish mumkin.

Avstrolipetiklar yerda yashashga moslashgan mavjudod bo'lib, ikki oyoqlab yurgan. Ular hamma odamsimon maymunlardan tarqalgan va ayni vaqtda odamga yaqinlashib, qolgan edi. Ammo ularning oyoq-qo'llarida ushlagich organlari saqlanib qolgan bo'lib, u holi tayanch organi sifatida to'liq shakllangan emas edi. Uning barmoqlari ancha kuchli, bo'g'inlari taraqqiy etgan bo'lib, qamrab olish va mahkam tutish xususiyati bilan har qanday odamsimon maymunlar bo'g'inidan farq qilar edi.

Ammo bo'g'inlarida odamsimon maymunlarning biqinlariga o'xshash xususiyatlarga oz emas edi. Jag' suyaklari katta bo'lib, lod tomonga turtib chiqmagan oziq tishlarinig kichikligi, tishlar orasidagi bo'shliqning bo'lmasligi, ularni odamsimon maymunlardan keskin (ajratib, odam bilan yaqinlashtirgan edi.) Avstropolitek miya qutisining o'rtacha xajmi 522 sm-ga barobar bo'lib, asosan 435 dan 600 sm³ oralig'ida tebranadi.

Ba'zi olimlar avstrolopitekni odam qatoriga qo'shsa, ba'zilar uni odamsimon maymunga mansub deb hisoblaydilar.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, avstropolitekklar insonlar dunyosiga emas balki, hayvonot olamiga mansub mavjudod edi. Jag' suyaklari tishining tuzilishi, hamda ular tomonidan o'ldirilgan pavian va boshqa sut emizuvchi hayvon suyaklarini topilishi avstropolitekklarni boshqa maymunlardan farq qilib, go'sht bilan ovqatlanganliklarini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- 1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

5-Mavzu: Insonning kelib chiqishi

REJA:

1. Antropogenez jarayoni.
2. Inson to'g'risidagi qadimgi dunyo, nasroniy va islom ta'limotlari.
3. Angropogenez jarayonini siljituvchi muhim kuchlar.
4. Mehnat qurollarining takomillashuvi.

Bundan 30-40 yillar muqaddam Indoneziyaning Yava orolidan topilgan pitekanthropni eng qadimgi maymunsimon odam deb hisoblanar edi. Intekntrop bundan 800 ming yil muqaddam yashab, kishilik jamiyati tarixi 1 miliionga yaqin yilni qamrab olar edi. Ammo keyingi 30-40 yil ichida odamning, kishilik jamiyatining kelib chiqishi haqidagi ilgarigi fikrlar mutlaqo o'zgarib ketdi.

Shu narsa ravshan bo'ldiki, har xil toshlardan oddiy, qo'pol mehnat qurollari yasay olgan hamda yirik hayvonlarni ovlash qudratiga ega bo'lgan qadimgi maymunsimon odam hayvonlar dunyosidan 1 million yil emas, balki 3-3,5 million yil muqaddam ajralib chiqa boshlagan ekan. Demak, yer yuzidagi eng qadimiy odam Yava pitekantropi emas, balki, Sharqiy Afrikada 3-3,5 ml yil ilgari yashagan «Gomo xabilis»-ishbilarmon odam» ekan. Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvay darasidan topilgan arxeologik va antropologik materiallar bu fikrni aytishga imkon berdi. Keniya va Efiopiyada olib borilgan qazish ishlari olduvaydan toshigan materiallarga juda muxim aniqlik kiritdi.

Olduvay darasi tanzaniyaning shimolida bo'lib, eyasi ko'lida 36 km. shimoliy-sharqdadir. Daraning uzunligi 40 km, chuqurligi esa 100-130 metrdan iborat. Olduvay darasidan kazilma xayvonlarning qoldiqlari 1911 yildan boshlab topila boshlagan. 1931 yili keyinchalik ingliz olimi Luis Liki darada qizg'in arxeologak va polsontologik qazish ishlari olib borar ekan, xar xil davrga mansub tosh asri madaniy qatlamlarini topishga muvassar bo'ladi. Bu borada Luis Lekining xizmatlari juda kattadir.

L.Liki vafotidan (1972) uning ishlarini rafiqasi Meri Liki va o'g'li Richard Liki davom ettiradilar.

Keyingi 15-20 yil ichida Olduvay darasidan olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida odamsimon maymunlar, eng qadimgi maymunsimon odamlarning kalla va boshqa suyaklari, shuningdek eng qadimgi odamlaning mexnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan buyumlar topilgan.

1959 yili Luis va Meri Likilar Olduvay darasidan avstrapoliteklardan farq qilmaydigan maymunsimon mavjudodning kalla suyagini topishga muvaffaq bo'ldilar.

Mazkur mavjudot miya qutisining hajmi 530 sm bo'lib, avstrolopiteklarnikidan katta bo'lmagan. Ammo kalla suyak yotgan qatlamda oddiy tosh quollarining mavjudligi uni avstorlopitek maymuni emas, balki Yava pitekantropiga nisbatan ilgariroq yashagan maymunsimon odam deb aytishga imkon berdi.

Tadqiqotchilar bu odamga «zinjantrop», - deb nom ham berishdi. Ba'zi olimlar uni odam desa, ayrimlari avstrolopitek maymuni deb xisoblaydilar. Lekin bir yil o'tgach ya'ni 1960 yil «zinjantantron» topilgan joydan, faqatgina biroz chuqurroqda «zintrantron»ga nisbatan ham taraqqiy etgan mavjudodning suyak qoldiqlari topilgan. Olimlar unga «prezinjantrop» deb nom berishdi. Hozirgacha mazkur joy va qatlamdan prezintantropning 5 dan ortiq suyak qoldig'i va tosh quollari va bir qator hayvonlarning maydalangan suyaklari topilgan.

Bu mavjudot qurol yasay olgan ekan, unga «Gomo xabilis»-«ish bilarmon odam» degan nom berildi. U Yava pitekantropigacha yashagan eng qadimgi maymunsimon odam, deb hisoblanadi. Zinjantrop esa avstrolopitek maymuni bo'lib, boshqa hayvonlar qatori u «Gomo xabilis»ning ov o'ljasi bo'lgan.

Kaliy-argon usuli bo'yicha va boshqa dalillarga asoslanib ishbilarmon kishi, 1,75-185 mln. yil ilgari yashagan.

Gomo xabilis topilgan joyning yuqoriroq qatlamidan olduvay pitekantropining qoldig'i va tosh quollari ham topilgan. Prezinjantrop topilgan joyning o'zidan avstrolopiteklarning suyaklari ko'plab chiqdiki. Bu hol mazkur mavjudodlar ish bilarmon kishilarning asosiy ov manbalaridan biri ekanligini bildiradi.

Gomo xabilisning bo'yi 122-110 sm bo'lib, ikki oyoqda yurgan, Tobayesning fikricha miya qutisining hajmi 675-680 sm³ ni tashkil etib, avstrolopiteknikidan kattaroq, pitekantroplarnikiga nisbatan kichikroq bo'lgan.

Yuqori va quyi jag'lari avstrolopiteklarnikidan kichikroq, pitekantrop va hozirgi zamon odamnikiga ancha yaqin bo'lgan.

Uning barmoq va bo'g'inlari odamnikiga juda o'xshab ketgan va tosh quollar yasash qobiliyatiga ega bo'lganki, buni Olduvayning qatlamlaridan topilgan tosh quollar tasdiqlaydi.

Shunday qilib gomo xabilis avstrolopitek maymunlari bilan pitekantrop oralig'idagi mavjudod bo'lib, eng qadimgi odam edi.

Gomo xabilis faqatgina Olduvay darasidagina bo'lib qolmay, ancha keng tarqalgan edi.

1961 yili Chad Respublikasining Njamen degan joyidan 600 km shimoliy-sharqiy erdan chadantrop kalla suyagining parchasi topilgan bo'lib, 1 million yil qadimiylikka

ega. Chadantropning jismoniy tuzilishida avstrolopitekning ham olduvay pitekantropining ham belgilari mavjud. Bu xol uni Gomo xabilisga qo'shish imkoniyatini beradi.

Chadantronp suyagi bilan birga hech qanday tosh qurol topilgan bo'lmasa ham, mazkur joydan qadimgi Olduvay davriga oid tosh qurollar uchraydi. Olduvay darasida ajoyib kashfiyotlar 60 yillarning oxiri va 70 yillarda Keniyada va Efiopiyada Turkona ko'li qirg'oqlarida ham arxeologik qidiruv va qazish ishlarini keng ko'lamda olib borish uchun turtki bo'ldi.

U yerga xalqaro ekspeditsiya tashkil etilib, qazish ishlariga fransuz, amerika va keniya arxeologlari, Dantropologlari va paleontropologlari rahbarlik qilishdi.

Xalqaro ekspeditsiya tomonidan to'plangan boy materiallar odamning tarqalishi, ularning sanasi va madaniyati masalalarini hal etishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1970 yili Keniyadagi Kobi-For degan joydan shunday madaniy qatlam topilganki, undagi Olduvay davriga mansub tosh qurollar kaliy-argon usuli bilan hisoblangan. 3-3,5 million yil ilgari yasalganligi ma'lum bo'ldi. Bu inson yaratgan eng qadimgi va dastlabki tosh quroli edi.

Kobi Fordaga mazkur topilmalar insoniyatning bundan 2,6 million yillar ilgari hayvonot olamidan ajralib chiqqanligini ko'rsatadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Kobi-Forda avstrolopitek maymunlarining qoldiqlari va boshqa ko'p suyaklar topilganki, ehtimol ularni bir qismi Gomo xabilisga mansub bo'lishi ham mumkin.

Efiopiyaning Omo daryosi darasidan qadimgi Olduvay davriga mansub qurollar topilib, sanasi 1,9-2,2 million yilga borib taqaladi.

Mazkur joydan har xil avstrolopitek maymunlarning suyaklari topilib, ularning sanasi 2-4 million yilni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zilari ishbilarmon odamga mansub bo'lishi ham mumkin degan fikr olimlar orasida keng yoyilgan.

Demak sharqiy va markaziy Afrikadan topilgan odam suyaklari, mehnat qurollari insoniyat tarixining ilk bosqichini o'rganish uchun juda katta imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib Sharqiy Afrikadagi so'nggi kashfiyotlar yerda odamning paydo bo'lish davrini qarib 3-3,5 million yilga cho'zib yubordi.

Afrikadan topilgan eng dastlabki ilk qazilma odamlar odam evolyutsiyasining birinchi bosqichini tashkil etadi.

Inson evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi arxantrop bilan bog'liq bo'lib, ular eng dastlabki ilk odamlarga nisbatan er yuzida ancha keng tarqalgan.

Pitekantrop (grekcha pithecos—"maymun" "odam" ya'ni maymun odam), sinatrop (lotincha sina—"Xitoy", ya'ni xitoy odam), atlantrop rabot odami, geydel'berg odamlarini arxantroparga kiritish mumkin.

Pitekantrop Osiyoning eng qadimgi qazilma odamlar gruppasi hisoblangan arhantropalar vakilidir.

1890-1891 yillarda golland vrachi E.Dyubua tomonidan Indoneziyaning Yava orolidagi Solo daryosi bo'yidagi bo'lgan Trinil yaqinidan qandaydair mavjudodning bosh suyak qopqog'i ikki jag' tishi va boldir suyagi topilgan.

Keyingi yillarda Kenigs val'd va boshqa olimlar tomonidan YAvada olib borilgan qazilmalar natijasida yana ettita intekantonga mansub suyaklar topilgan.

1937 yilda nemis poeontologi Ral'ffon Kyonnisval'd YAvadan pitekantropning bosh miya qopqog'i suyagini topganyu keyingi vaqtlargacha Yavadagi Mojokertidan to'rta katta yoshdagi va bitta yoshgina pitekantropning bosh miya qopqog'i, olti son suyagi, uchta jag' suyagi topilgan.

1961-1972 yillarda esa Indoneziya mutahassislari Yavada yana pintikantropning to'rta bosh suyagi va ikkita pintekantrop suyaklari orasida Mojokertidan topilgan bola suyagining sanasi eng qadimmiy bo'lib, uni kaliy-argon usuli bilan aniqlanishiga 1 million 500 ming 1 million 900 ming yil deb hisoblanadi. Qolganlarining sanasi 0.51 mln. yilga borib taqaladi. Har holda ular Olduvay darasidagi homo habilis –“ishbilarmon odam”dan ancha keyin yashagan. Lekin olduvay pintekantropalari bilan zamondosh yashagan. Lekin olduvay pintekantropalari bilan zamondosh bo'lishlari ham mumkin. Buni ularning jismoniy tuzilishi, “homo habilis”ga nisbatan rivojlanganligi ham tasdiqlaydi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, pitekantropalar topilgan joylarning birontasidan tosh qurollar, ko'mir, gulxan o'rni, hayvonlarning sindirilgan suyaklari topilgan emas.

Pitekantropalarning jismoniy tuzilishiga qarab ular muntazam ravishda qurollar yasay olganlar, deb faraz qilish mumkin. Shuni aytish kerakki, Kenigeval'd Janubiy Yavaning Pajitan qishlog'i atrofida qazish ishlari olib borib, to'rtlamchi geologik qatlamlardan juda qo'pol ishlangan oddiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollarni pitekantropalar yoki ularning uncha uzoq bo'lmagan avlodlari tayyorlagan bo'lishi mumkin.

Pitekantropalar va ularning uncha uzoq bo'lmagan ajdod va avlodlari faqatgina Yava orolida yashabgina qolmay Janubiy, Sharqiy Osiyo, Evropaning janubiy va Afrika qit'asida keng tarqalganlar.

Shunday qilib, pitekantrop qazilma odamning eng qadimgi vakillaridan biri hisoblangan afrikalik ishbiarmon odamlardan biroz keyinroq yashagan.

Sinnantrop-Xitoy odami ham eng qadimgi qazilma odamlar vakili hisoblanadi.

1918-1923 yillarda Shved geologi G.Anderson Iskandan 45-30 km janubiy-g'arbdagi Umoukautyan degan joyida kuzatish ishlari olib borayotib, avval tosh qurol, so'ngra hayvonlar suyagi bilan birga odam tishini topadi. Qazilma ishlariga kanda olimi

D.Blek ham jalb qilinadi. 1927 yili Blekning assitenti Pen Ven-chjun mazkur joydagi Kontsetong g'oridan eng qadimgi xitoy odamining kalla suyagini topishga muyassar bo'ldi. Qazish ishlari xitoy olimlari tomonidan davom ettirilib, natijada mazkur joydan yana 60 qin odam suyagi topilib, shundan 15 tasi yosh bolalarniki ekanligini aniqlandi.

SHu narsa muhim g'ordan sinantrop qoldiqlari bilan bir qatlamda tosh qurollar, gulxan qoldiqlari yirik va mayda hayvonlarning sindirilgan hamda kuygan suyaklari topilgan. Bu hol sinatroplarning pitekanthrop va olduvaydagi "ishbilarmon odamga" nisbatan ancha taraqqiy etganligini ko'rsatadi.

Sinantroplarning bo'yi 144-156 sm bo'lib, peshonasi past qiya bo'lgan. Intekaptrop miya qutisining hajmi 850-950 sm³ bo'lsa, sinantropning esa 105-1200 sm³ ga teng. Demak sinantrop miyasining hajmi pitekanthrop miyasining hajmidan katta, lekin hozirgi zamon odami miya qutisini hajmidan esa kichikroqdir.

SHunday qilib minontroplar bundan 400-500 ming yil ilgari yashab o'tgan bo'lib, mindel muzligi davrining ikkinchi yarmiga to'g'ri bo'lib, mindel muzligi davrining ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va u eng qadimgi qazilma odam vakili hisoblanadi. 1963-1964 yillarda hitoy arxeologlari Pekindan 900 km janubi-g'arbiydagi Lan'tyan degan joydagi lan'tyan sinantropi, deb atalgan qazilma odam qoldig'ini topganlar.

Lan'tyan sinantropi ko'p jihatdan ijoukautyan'dan topilgan sinantroplarga yaqin bo'lib, hitoy odamlarining faraziga ko'ra ular bundan 500-600 ming yil ilgari yashagan ekanlar. Xitoyning janubiy va Markaziy V'etnamning shimoliy qismida sinnantrop singari ibtidoiy odamning suyaklari topilgan. SHunday qilib Xitoy Osiyodagi eng qadimgi odamlar paydo bo'lgan mamlakatlardan biri ekan.

Evropa arxantropi. Qazilma odamlar va ularning ajdodlarining faqatgina Osiyo va Afrikada yashabgina qolmay Evropaning ba'zi joylarida ham tarqalganligi aniqlangan.

Evropa turli tabiiy sharoitga ega bo'lgan Evrosiyo quruqligining g'arbiy qismini tashkil etadi.

Janubiy va Markaziy Evropa har turli hayvonot olami va odamzodning yashashi uchun ancha qulayliklarga egadir. Lekin shunga qaramay Evropa ilk odamlar paydo joy emas ekan. Ko'pchilik olimlarning fikrlariga ko'ra qit'aga eng qadimgi odamlar ilk tosh asrida bundan 1800 ming yillar ilgari Afrikadan kirib kelgan ekan.

Evropada qadimgi odamlar yashayboshlaganiga 2 million yil bo'lgan bo'lsa, shuning 3 ming yili yozma manbalar asosida yoritilgan xolos. YOzma tarixgacha bo'lgan uzoq va murakkab tarixiy davrni g'arb olimlari tarixgacha bo'lgan deb ataydilar. Bu davr yozma manbalar tarixigacha nisbatan 600 marta uzoqlikka qadimiylikka ega ekan. Evropa insoniyat paydo bo'lgan beshlika kirmas ekan. Olimlardan ba'zilarining fikricha ilk

odamlar paydo bo'lgan markazlardan biri Hindiston bo'lib, ilk odamzod Evropagacha Hindiston tomonidan kirib kelgan ekan. Ammo olimlarning katta bir guruxi insoniyatning ilk vatani Afrika deb hisoblaydilar. Ularning ta'kidlashicha ilk odamlar-arxeantropolar Evropaga Hindistondan emas Afrikadan kirib kelganlar, - degan fikrni ilgari suradilar.

Keyingi vaqtda Frantsiyadagi San Val's degan joydan qadimiyligi 2,3-2,5 million yilliklarga mansub makon va tosh qurollar topilgan.

Frantsiyaning Li Rosh Lamber degan joyidan esa 1.5 millin yil qadimiylilik maydalangan hayvon suyaklari, kvarts va chaqmoq tosh parchalari topilgan. Yana Frantsiyaning SHiyyak degan joyidan daryoning qirog' toshlaridan yasalgan qurol va hayvon suyaklari topilgan. Suyyak 1 ming sanasi bundan 1 million 800 ming yil qadimiylikka ega ekan.

YUgoslaviyaning SHandal'ya degan g'or makonidan 1 million 600 ming yil adimiylikka mansub qaroq toshdan yasalgan ikkita oddiy qurol, eng qadimiy odamning tishi, sut emizuvchi hayvonlarning, ko'proq miqdorda yovvoyi otg'Stepop, karkidon, to'ng'iz va boshqa hayvonlarning suyaklari topilgan bo'lib, suyaklar o'tda kuygan.

G'ordan yog'och ko'mirlari ham topilgan. Olamlarning fikricha g'orda olov bilan tanish va undan foydalangan eng qadimgi odamlar-arxeantropolar istiqomat qilganlar. Hayvon suyaklar esa g'orda yashagan eng qadimgi odam o'ljasi ov mahsulotlarining chiqindisi bo'lsa kerak.

Evropada quyi pleystontsentning ikkinchi yarmida 1.5 million bilan 700 ming yil ilgari yashagan eng qadimgi odam yashaganligi haqida ma'lumot beruvchi ashyolar topilgan. Xususan Frantsiyaning Sindel' degan joyidan villafrank davriga mansub hayvon suyaklari topilgan. Sinzel'dan topilgan buyumlar 1 million yillik qadimiylikka ega ekan. Frantsiyaning Le Vallon g'oridan ham 700 ming yillik qadimiylikka ega bo'lgan tosh qurollar va so'ngi villafrank davriga mansub hayvon qoldiqlari topilgan. Xuddi shu yoki undan ham qadimiyroq davrga mansub buyumlar CHuxoslovakiyaning Irjezletitsa degan joyida ham topilgan. Pallomagnit usuli bilan aniqlanishiga uning sanasi 890-750 ming yilliklar orasidagi davrga mansub ekan. Irjezletitsa top asri yodgorligi qadimgi ko'l qatlami bo'lib, qatlmalardan eng qadigi odam makon bo'lgan ekan. Undan mehnat qurollari, tosh, qadimgi o'choqdan ega ko'mir va hayvonlarning kuygan suyaklari topilgan. Hayvon suyaklari orasida mamont, ot, eshak, bizon va asl bug'ularni ko'pchiligi tashkil etadi.

Madaniy qatlamlardan chonner, sindirilgan suyakdan qilingan pichoq va boshqa mehnat qurollari topilgan. Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arxantropolarga mansub eng qadimgi odamlarning makonlari Italiya, Ispaniya, Germaniya, Vengriya va boshqa

mamlakatlardan ham topilgan bo'lib, ular 600-150 minglar bilan belgilanadi.

Evropada intekantrop sinantrop va len'tyan sinantropiga yaqin bo'lgan arxeoloarxantropalar en qadimgi odamlar qoldig'i 1907 yilda GFR ning uchta joyidan Geydel'berg shahri va Muer qishlog'idan topilgan.

Buklar orasida geydel'berglik odam jag' suyaklari alohida qimmatga egadir. Bu suyak 24 metr chuqurlikdan topilgan.

Geydel'berg odami ko'p jihatdan pitekantrop va sinantropga yaqin turadi. Ba'zi olimlar uni gyunts-mindel davrida ya'ni 600-900 ming yil ilgari yashaan eb farax qilmoqdalar. Lekin Geydel'berg odami topilgan joydan hech qanday adaniy qatlam borligini aniqlagan emas. Garchi geydel'berg odamning jag' suyagi chiqqan joydan sun'iy tarzda tayyorlangan mehnat qurollari topilmagan bo'lsa ham, u shubhasiz eng qadimgi odamning tipik vakili edi, chunki geydelberg odamida odamga xos xususiyatlar ko'p bo'lib, u qurol yasash qobiliyatiga ega bo'lgan.

1958 yili Fransiyaning janubiy-sharqiy Vallon g'oridan 1 million yillik qadimiylikka mansub bo'lgan ko'pgina hayvon qoldiqlari tosh buyumlar, odamning mehnat faoliyati natijasida vujudga kelgan uchirindi (otidek)lar topib o'rganilgan.

Bu jixatdan Vengriyaning poytaxti Budapesht shaxridan 50 km g'arbda joylashgan Verteshsyollesh manzilgoxidan L.Vertesh tomonidan 1963-1965 yillarda arxantrop bosh miyasining bo'lakchasi qadimgi odamlar tomonidan yeyilgan hayvon suyaklari, hilma-xil tosh qurollari va gulxan qoldiqlarining topilishi diqqatga sazovardir.

Verteshsellosh manzilgoxidan topilgan odam bosh miya qopqog'ining bo'lakchasi ko'p jixatdan sinantropga yaqin turadi, uning sanasi esa 500 ming yil bilan belgilangan.

Geydelberg va Verteshselleshberg bilan zamondosh bo'lgan arxantropning tishi qazilma hayvonlar qoldig'i va oddiy tosh qurollar CHexoslavakiyaning poytaxti Iraga shahri yaqinidaga Prjezlyatitsadan ham topilgan.

SHuni ham qayd qilib o'tish kerakki, qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari SHimoliy SHarqiy Afrika territoriyalaridan ham ko'plab topilgan.

Jazoirdagi Ternifin, Marokash yaqinidaga Kasablankada topilgan ashyolar shular jumlasidandir.

SHunday qilib geydelngberg, atlantrop, telantrop, sinantrop, pitekantrop va boshqalari eng qadimgi odamlarning vakili bo'lib, ularda ham odamga ham maymunga xos belgilar mavjud edi. SHuning uchun ham ular o'zlarining tana tuzilishi jixatidan maymundan odamga o'tish oraliq bosqichini tashkil etadilar.

Eng qadimgi odamlar ham juda oddiy bo'lib, ularning peshonasi qiya, qosh usti qabartmasi rivojlangan, kalla suyagining yuqori qismi yassi bo'lgan.

Lekin ular bosh miyasining xajmi ancha kattalashib ketib, odamsimon maymunlarning bosh miyasidan farq qilgan va haqiqiy odam miyasiga yaqinlashib qolgan.

Eng qadimgi odamlar oddiy tosh yog'och va boshqa tabiiy buyumlardan keng foydalanganlari hamda sun'iy qurollar yasay boshlagan va olovdan foydalanishga urina boshlaganlar.

SHunday ekan biz arxantroplarning eng qadimgi ajdodlarimizning o'zginasi deb xisoblashimiz mumkin maymunlarning odamga aylanishi jarayonidagi harakatlantiruvchi kuchlar. Maymunni odamga aylana borishi jarayonidagi xarakatlantiruvchi kuch masalasi jaxatdan olimlarni qiziqtirib kelgan va u qator olimlarning asarlarida bayon etilgan.

Ma'lumki eng qadimiy qazilma odamlar morfologik, jismoniy tuzilishi jihatidan o'z ajdodlari odamsimon maymunlardan tubdan farq qilganlar. Bu farq avvalo ularning ikki oyoqlab tik yurishlarida, ko'l panjalari, bo'tinlarining rivojlanganligida va miyaning nisbatan kattalashganligida ko'zga tashlanadi. Ammo bu morfologik xususiyatlar odam bilan maymun orasidagi tafovutni belgilab beruvchi bosh omil emas.

Inson maymundan ajralib turuvchi farq ongli mehnat, mehnat qurollari yasalishidir.

Odamlarni maymunlardan ajratib turuvchi morfologik xususiyatlar mehnat bilan bevosita bog'liq bo'lib, qadimgi odamlarda ijtimoiy mehnat jarayonida vujudga kelgan. Havonot dunyosidan insonning ajralib chiqishi ko'p million yillar davomida sodir bo'lgan bo'lsa ham bu xol tabiat taraqqiyotidagi eng ulug' o'zgarish va shakllanishlardan biri hisoblangan.

Kishilik jamiyati bunyodga kelishi tabiatda vujudga yangi mavjudodni bildirar edi. Tabiatdagi biologik krnuniyat o'rnini ijtimoiy egallaydi. Bu sakrash ko'p million yillar davomida tayyorlandiki, maymunlar asta-sekinlik bilan tik yurishga o'rgana borib, odamga aylanib xal qiluvchi qadam tashladi. SHundan keyin esa ular asta-sekin mexnat qilishga o'ta boshladilar. Ammo ibtidoiy jamoa tuzumning boshlang'ich davri odamlarida hali maymunga xos bo'lgan belgilar ham hali bor edi.

Kishilik jamiyatining kelib chiqishi Darwin singari faqatgina biologik qonunlarga bog'lash noto'g'ri bo'lur edi va uni shu yusinda tushuntirib bo'lmaydi.

Kishilik jamiyatining hayvonot olamidan eng muxim farqi shundaki, xayvonlar juda deganda yig'ib-terib iste'mol qiladilar, odamlar esa iste'mol buyumlarini mexnat qilib ishlab chiqaradilar.

Olimlar odamni xayvonot dunyosidan ajratib turuvchi eng asosiy belgi mehnat ekanligining ta'kidlab, uning olamshumul ahamiyatiga molik ekanligini ko'rsatib berdi.

Hayvonotlar, deyдилar ular tabiatda mavjud bo'lgan narsalardan foydalanadi va o'zining borlig'i bilan tabiatga o'zgarishlar kiritadi. Odam esa ulardan farq qilib mehnati

tufayli tabiatni o'z maqsadlari uchun xizmat qilishga majbur etadi va tabiat ustidan xukmronlik qiladi.

Demak, mehnat tufayli inson vujudga kelgan ekan, bu qisqa davr ichida osonlikcha sodir bo'lgani yo'q.

SHu narsa ma'lumki, bizning ajdodlarimiz maymunsimon odamlar o'rmonlik mintaqalarda gala-gala bo'lib yashaganlar.

Daraxtga chiqish va undan tushish vaqtida ularning qo'llari oyoqlariga qaraganda boshqacha ish bajargan. Lekin ular erda yashashga o'tishlari natijasida qo'llarini ishlatishdan asta-sekin qutila borganlar.

Bu hol ularga qaddilarini ko'tarib, ikki oyoqda tikkaroq turib yura boshlash imkoniyatini berdi. Bu bilan maymunning odamga aylanishga juda muhim qadam qo'yilgan edi. eng muhimi ularning qo'li oyoq bo'lgan edi.

Edilikda ozod bo'lgan qo'llari daraxtga chiqish, undan tushish va uni ushlab turishdan tashqari, asta-sekin yangi-yangi ishlarni bajara boshlagan. Bu yangi ish, yangi faoliyat -mexnat edi. Mexnat jarayonida ajdodlarimizning qo'llari qo'pol bo'lsa ham qurollar yasashga moslasha bordi.

Natijada qad ko'tarilib ikki oyoqda yurish tobora mustaxkamlashib bordi. Mehnat jarayonida qo'lning rivojlanish bilan birga eng qadimgi ajdodlarimizning tana tuzilishi, shuningdek, bosh miyasi ham rivojlana bordi.

SHuni ham unutmaslik kerakki, dunyodagi barcha mavjudodlar harakat tufayli o'ziga oziq-ovqat topadi, joy-uya tayyorlaydi. Ammo xaqiqiy, ongli mehnat qurollar tayyorlashdan boshlanadi va bizning eng qadimgi ajdodlarimiz gomo xabillis «ishbilarmon odam» bundan 2,6 3 million yil muqaddam toshdan eng dastlabki mehnat qurollarini yasaganlar.

Darvin bir vaqtlar xayvonot bog'ida tishi yomonligi tufayli yong'oqlarni tosh bilan chaquvchi maymunni kuzatgan. Lekin xech bir maymun o'z qo'li bilan xech qachon birorta eng qo'pol tosh pichoq yoki boshqa qurol yasagan emas. Mehnat tufayli qo'l ored bo'lgan ekan, endilikda u yangidan yangi xunarlarini o'rgana oladigan bo'ldi.

Million yillar mobaynida qilingan takroriy mexnat natijasida vujudga kelgan epchillik va tajribalaridan naslga o'tib, bo'g'indan-bo'g'inga orta borgan. Bu jarayonda bosh vazifani qo'l o'tadiki, engelens ta'biri bilan aytganda qo'l faqat mehnat organi emas, balki u mehnatning maxsuli ham bo'lib qoldi.

Olimlarning fikricha go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilish odamsimon maymunlarni odamlarga aylanishida eng asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlab, odam go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilshganda, odam bo'la olmas edi, binobarin ovchilik

xo'jaligi odamning paydo bo'lishida muhim shart sharoitlardan biri ekanligini bayon qilgan.

Avstrolopitek maymunlari, gomo xabillis, pitekantrop, sinantrop, lantngyan sinontropi va boshqa joylardan topilgan qazilma odamlarning suyak qoldiqlarini va mehnat qurollarini sinchiklab tekshirib, maymunning odamga aylanishida tik turib yurish hal qiluvchi ahamiyatga ega degan engeles fikrlarining to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

Maymuning odamga aylanishi jarayonida nutqning ham ahamiyati juda katta edi. engeles nutqning maymunni odamga aylanishi jarayonida eng muhim harakatlantiruvchi kuchlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Mehnat jarayonida, qurollar yasash jarayonida odamlarning qo'llari, miyasi, yuz tuzilishi va tanasining boshqa a'zolariga sekinlik bilan uzoq vaqt mobaynida, muttasil tarzda taraqqiy eta bordi. Bu manzaralarga qadimgi qadimiy va hozirgi zamon tipidagi odamlarning suyak qoldiqlariga qarab aniqlash mumkin.

Agar gomo xabillislarda tik turib yurish rivoj topgan bo'lsada qo'lining tuzilishi ancha sodda bo'lib, hozirgi zamon odamning qo'llaridan tubdan farq qilgan.

Gomo xaillis kalla qutisi va uning xajmi odamning kalla qutisiga nisbatan odamsimon maymun kalla kutisigayaqin bo'lgan.

Pitekantrop, ayniqsa muste davri neandertal odamlarining qo'llari, bosh miyasi, shunga muvofiq uning hajmi ancha rivojlangan bo'lib, hozirgi zamon odaming kalla va miyasiga ancha yaqinlashib qolgan edi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki evolyutsioi jarayon natijasida eng qadimgi odamlarning bevosita avlodi xisoblangan muste neandertallari ko'p jihatdan o'z ajdodlaridan farq qilgan. Ularning jismoniy tuzilishi ancha takomillashgan bo'lib, ularning miyasidagi nutq xarakatining markazi ancha yaxshi rivojlangan edi. Garchi neandertal odam ham ko'pgina ibtidoiy xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lsada jismoniy jihatdan hozirgi zamon kishisiga o'xshash aql-idrokni odamning vujudga kelishi uchun shart-sharoit tug'dirib, pitekantrop va sinantrop keyingi bosqichda turardi.

Keyingi 100 yil mobaynida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qo'lga kiritgan paleontropologik, arxeologik, biologik, geologik va boshqa dalillar ibtidoiy jamiyat, tarixi fanini yanada rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar

1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998

2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991

3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993

4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995

5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989

6-Mavzu: Inson jamiyatining kelib chiqishi

REJA:

1. Jamoa an'analarining vujudga kelishi.
2. Ovchilikning ahamiyati.
3. Ibtidoiy jamoada mehnatning rivojlanishi.
4. Ibtidoiy jamoada jinsiy munosabatlar.

Odamzodning dastlabki vatani masalasi uzoq vaqtlardan beri turli xil olim va xar xil kasb egalarini qiziqtirib keladi.

Odamning xayvonot olamidan kelib chiqish, vatani va ilk bor tarqalgan joylari xaqidagi masala G.F.Nesturx, M.I.Ukro'son, I.K.Ivanov, F.Bord, G.Kenigsvaled, U. Xaeles va boshqa ko'pgina antropolog va arxeologlarning asarlarida mufassal yoritilgan.

P.P.Sushkinning odamzod vatani Markaziy Osiyoning ochiq o'lkalari degan farazi ko'pchilik olimlar tomonidan maqullanmadi. CHunki Markaziy Osiyodan topilgan ko'p sonli tosh asri yodgoliklarining madaniy qatlamlaridan qazilma odamsimon maymunning qoldiqlari mutlaqo uchramaydi.

Amerika va Avstraliyaning odam paydo bo'lgan joyiga kiritib bo'lmaydi. CHunki mazkur materiklarda odamzodning eng qadimgi ajdodi odamsimon maymunlar yashagan emas.

Amerika va Avstraliyaga odamlar bundan 35-30 ming yillar muqaddam Osiyodan o'tgan. Bu dastlabki urug'chilik tuzumi davriga, xozirgi zamon tipidagi odamlar paydo bo'lgan, darvga to'g'ri keladi.

Xozirgi odamzodning vatani Afrika va janubiy Osiyo deb qarovchi olimlar orasida qizg'in tortishuv mavjud.

O'z vaqtida CH.Darvin odamzodning ilk vatani Afrika bo'lishi mumkin degan farazni maydonga tashlagan edi. Afrikaning janubi, ayniqsa sharqidan arxeologik ashyolar, ayniqsa eng qadimgi avstrolopitek Olduvay daryosidan esa eng qadimgi qazilma odam suyaklari, Keniyadan esa dunyoda eng qadimga tosh qurollarining CH. Darvinning fikri to'g'ri ekanligini ko'rsatmoqda.

Marokashning Atlantik okeani qirg'oqlaridan Olduvay davriga mansub eng qadimgi tosh qurollar topilib, u Tanziyaning «ishbilarmon odamlari» qoldirgan tosh qurollarini eslatadi.

Nixoyat Afrika odamzodining ilk beshigi ekanligini shu narsa ham ta'kidlaydiki, Afrikada odamga juda yaqin bo'lgan shimpanze va gorilla-antropoidlar yashaydi.

SHu narsa diqqatga sazovorki, na Osiyoda va na Evropada SHarqiy Afrikadagi kabi bir-biri bilan uzviy bog'langan primatlar topilgan emas.

Bu xol M. I. Uro'son, I. K. Ivanov, V. P. Alekseev va boshqa olimlarga odamzodning dastlabki Vatani Afrika Janubiy va SHarqiy Afrika degan fikrni olg'a surishga imkon berdi.

YAqin vaqtlargacha Janubiy va Janubi-SHarqiy Osiyodan SHarqiy Afrikadagi kabi juda qadimiy qazilma odamlar va eng qadimiy mexnat quollarining qoldiqlari ma'lum emas edi.

Olimlardan G.Kenigsvald buni Xitoy va Sivalak (Hindsiton va Pokiston) tepaliklarida kaliy-organ usuli bilan davrini aniqlash imkoniyatini beradigan vulqon jinslarining yo'qligi bilan bog'laydi.

Indoneziyadan ham vulqon jinslari topilib, bu hol yaqinda Mojokent pitekanthropining sanasi kaliy-agon usuli bilan 1,9-1,5 ming yil qadimiylikka ega ekanligi aniqlandi. Bu sana SHarqiy Afrika sanasida u qadar katta farq qilmaydi.

SHu bilan birga YAvadan avstrolopitekka o'xshash kalaiy-agon sanasi 1,5 mln yilga oid eolestotsen megalantropga va quyi pleistotsen pitekanthropolarining qoldiqlari topildi.

Janubiy Xitoy va SHimoliy Hindistondan avstrolopiteklarga yaqin gigantopitek Markaziy Xitoydan esa quyi pleistotsen davriga lontyan sinantropining qoldiqlari topildi.

Sivalak tepaligadan esa miotsen va pliotzen davriga mansub bo'lgan driopitek va ramapiteklarning suyak qoldiqlari topilgan.

SHunday qilib Janubiy va Janubi-SHarqiy Osiyodan yuqori neogen va eolestotsen davriga oid qazilma odamsimon maymunlar odamlarga aylanishi chegarasida turgan mavjudod, hamda eolestotsen va quyi pleistotsen arxantronlarning qoldiqlari topildi.

Bulardan arxantroplar 2 million yil qadimiylikka ega. Mazkur dalillar Janubiy va Janubi-SHarqiy Osiyoning ham insoniyatning ilk vatani deb atashi imkonini beradi.

SHunday qilib Janubiy SHarqiy Osiyo ham SHimoliy-SHarqiy Afrika bilan birga odamzodning vatani hisoblanadi.

Vengriyaning Veresheelyov, CHexoslovakiyaning Prjezlentitsa, Germaniya Federativ Respublikasining Geydelngberg degan joydan mindelend muzligi va undan ham qadimiyroq davrga mansub quyi pleistotsen qatlamidan arxantrop suyak qoldiqlari topilishi odamning ilk vatani chegarasiga Evropani ham kiritish imkonini berdi. Zotan

Fransiyaning janubiy-sharqidagi Vallon g'oridan sanasi 700 ming yilga borib taqaluvchi manzilgoxi va mehnat qurollarining topilishi mazkur fikrni tasdiqlaydi.

Bu jihatdan Vengriyaning SHimoliy-sharqidagi Rudabaniyadan quyi pliotsen qatlamidan odamga aylanish arafasida. turgan ramapitek tarzidagi maymun qoldig'ining topilishi katta ahamiyatga egadir.

SHunday qilib, maymunni odamga aylanish jarayoni faqatgina Afrikada sodir bo'libgina qolmay Afrika-Evroasiyo xayvonot olami ichida ro'y bergan.

Hozirgi olimlar orasida odamzodning ilk vatani, uning beshigi qaerda degan masalada qizg'in bahs borayotgan ekan, hali bu masala to'laligacha xal etilgani yo'q. Ko'pgina osvet va progressiv chet el olimlari odamzodning vatani, faqat Afrika yoki Osiyoning o'zigagina bo'lib qolmay bunga Afrikaning katta qismi Janubiy Evropa, Janubiy va Janubi-SHarqiy Osiyoni kiritish mumkin demoqdalar.

Lekin bu so'nggi so'z emas. Qadimgi tosh asriga oid yangi kashfiyotlar insoniyat kelib chiqqan va uning vatani hisoblangan chegaralarni yanada kengaytirish mumkin.

Adabiyotlar

- 1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

7-Mavzu: Ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi

REJA:

1. Arxeologik va etnografik yondashish.
2. Neandertal odamni o'rganishda anatomik yondashish.
3. Dafn etish marosimlari.
4. Sig'inish e'tiqodining vujudga kelishi.

Eski dunyodagi odamlar-paleantropalar ya'ni Tar neandertallar ularning biologik xususiyatlari va moddiy madaniyati. Darwin va boshqa olimlar aytganidek, eng qadimgi odamlar odamsimon maymunlardan kelib chiqdilar. Lekin xozirgi zamon odamining bevosita ajdodi eng qadimga qazilma odamlar emas. eng qadimgi odamlar orasida yana bir odamzod tipi mavjudki, biz uni neandertal odamlar deb ataymiz.

Kromaneon odamlari, ya'ni zamonaviy tipdagi qazilma odamlarining ajdodi xuddi shu neantertal odamlari hisoblanadilar. U odamning shakllanishida navbatdagi bosqichlaridan biri bo'lib, bu tur odamining bosh suyagi 1848 yili Flint tomonidan shimoliy Gibroltar qoyalari orasidan topilgan. Ammo Gibraltardan topilgan bu bosh suyak oddiy, sodda bo'lishiga qaramay dastlab hech kimda qiziqish uyg'otmadi. Bu er yuzida topilgan eng dastlabki neandertal odamning bosh suyaga edi.

1856 yil esa Germaniya Federativ Respublikasining Neandertal vodiysidagi Dyussdorf shahri yaqinida joylashgan Filnggafer g'oridan er qazish ishlari vaqtida odamning bosh suyak qopqog'i va skletining bir qancha suyaklari, topildi. Mazkur suyaklar Neandertal vodiysidan topilgani uchun shu vodiyning nomi bilan ataladi.

Filgaferdan toshshqari neandertallik odam suyagining qoldig'i o'sha vaqtda ko'pgina olimlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Usha davrda yashagan I.K.Fulngrot va SHaafgauzenlar tabiatshunos va vrachlarning Bonndagi s'ezdida neandertallardan topilgan bu sklet qachonlardir o'lib bitgan qadimgi odam tiplaridir, deb aytgan edilar.

Ammo nemis reaksion antropologi Virxov odam suyaklarining skletning topilgan bo'laklari ibtidoiy odamga mansub alkogolizm yoki zaxm kasali natijasida nasli buzilgan hozirgi zamon odamiga tegishli degan fikr bilan maydonga chiqdi.

Lekin 1864 yili yana Ispaniyaning Gibraltar bo'g'ozi rayonida yana neandertalning tipidagi qazilma odam suyaklarining qoldig'i topildi. Keyinchalik er yuzining turli joylaridan neandertalning tipidagi qazilma odamning suyaklari ko'plab topildi. Bular orolida 1887 yili Belgiyaning Spi degan joyi yaqinidagi Bek-o-rosh g'oridan topilgan neandertalning odamining suyak qoldiqlari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa o'sha vaqtdagi Virxov kabi reaksion burjua olimlarining reaksion faniga qarshi fikr muloxazalarini noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi.

Keyingi vaqtda, ayniqsa so'ngi o'n yilliklar ichida Angliya va Belgiya, Germaniya va Frantsiya, Ispaniya va Italiya, SHveytsariya va YUGoslaviya, CHexoslovakiya va Vengriya, SSSR va eron, Turkiya va Afg'oniston, Palastin va Iroq, Xitoy va Indoneziya, Afrika va er yuzining juda ko'p joylaridan katta-kichik yoshdagi neandertal odamlarining bosh suyaklari, butun-butun skletlari va boshqa a'zolarining qoldiqlari ko'plab topildi. Mazkur joylarning deyarlik hammasidan neandertal tiidagi odamlarga aloqador bo'lgan ko'plab tutsar joylarning qoldiqlari, ularning mehnat faoliyatiga oid juda ko'p ashyolar topildi va topilmoqda.

Afrikada ular «Rodeziya odami», «afrikantrop,» 11 Indoneziyada esa «yavatrop» nomi bilan mashhurdir.

Bu xil neandertalning tipidagi odamlarning er sharining turli rayonlariga keng

tarqalganligini ko'rsatadi.

Sobiq sovet ittifoqi territoriyasida ham neandertalning tipidagi qazilma odamlarning qoldiqlari qrimdagi Simferopl shahridan 25 km sharqdagi Kiyikkoba g'oridan Staroseiley, Zaskolnnoe degan joydan. 1936 yili esa A. P. Okladnikov tomonidan respublikamiz janubidagi Surxondaryo oblast Boysun tog'i Zovtaloshsoy darasining Teshiktosh g'oridan ham topilgan. Teshiktosh g'oridan 8-11 yoshdagi neandertalning tipidagi bolaning bosh suyagi toshga aylangan xolda saqlangan xolda topilgan.

Sobiq ittifoqda neandertallar yashab o'tgan manzilgohlar 500 ortiq bo'lib, ularning aksariyatini Kavkaz, Krim, Azov dengizi bo'ylari, Dnepr, SHimoliy Donets, Dnestr, Soj, Desna, Don, Oka, Volga daryolarining bhyarida, janubiy Qozog'iston, O'zbeiston, Tojikiston, Turkmanistndadir.

SHu narsa diqqatga sazovarki, neandetal' tipidagi qazilma odam qoldiqlarining aksariyati g'oyalardan topilgan bo'lib, ularda madaniy qatlamlar birmuncha yaxshi saqlangan.

Nsandertallar, arxantrop ya'ni pitekantrop, sinantrop va geydel'berg qazilma odamlari bilan nendertalg'kroman'olik qazilma odamlari o'rtasidagi oraliq davrda yashaganlar.

Ular fond qadimgi odamlar deb ataladilaryu er yuzining turli burchaklaridan topilgan neandertal' odamlarning kalla suyagi, skleti va boshqa a'zolarining suyak qoldiqlarini har tomonlama chuqur o'rganilishi. Ularning tashqi qiyofasini imkoniyatini berdi. Neandertallarning tashqi ko'rinishi ko'p jihatdan hozirgi zamon odamlariga yaqin bo'lgan. Bu hol miya qutisining sig'imi hozirgi odamnikiga barobar ekanligini ko'rsatadi. Lekin ularning bosh miyasi, xususan miyasining peshona qismi birmuncha sustroq rivojlangan va oddiyoq tuzilgandir.

Nendertal' odamlari miya qutisining sig'imi 900-1800 sm³ gacha bo'lib, o'rtacha 1380-1400 sm³ ga teng ekanligini hisobga olsak, ularning kallasi katta ekanligiga qanoat hosil qilamiz. Nendertal' odamlari kalla qutisining shakli birmuncha cho'zinchoq bo'lib, peshonasi qiya, boshining tepa qismi yassi, past bo'lishi ular uchun harakterlidir. SHu bilan birga ularda qosh ustidagi qabartma ancha oldinga turtib chiqqan. Neandertal' odamlarning burun va yuqori jag' suyaklari juda kuchli rivojlangan. Ularda pastki jag' ham yaxshi rivojlanmagan bo'lib, u juda baquvvat, lekniengak-dahan u qadar taraqqiyo etmagan edi.

Neandertallarning tishlari kuchli ildizli, katta va qattiq bo'lib oziqni, xususan go'shtni chaynash uchun moslashgandir.

Tanasining uzunligi, bo'y-basti jihatidan ular zamonaviy odamlardan orqada turgan

albatta. Ularning bo'yi 155-160 sm bo'lgan. Lekin ularning skleti hozirgi zamon odami skletiga qaraganda baquvvatroq bo'lib, tashqi tuzilish ko'proq rivojlangan. Bu hol ular muskulining kuchli bo'lganligidan darak beradi.

Neandertallarning umurtqa pog'onasi zamonaviy odamlarniki singari bo'lmay biroz bukilgan bo'lib, oyog'ining boldir suyaklari son suyaklariga nisbatan kaltadir. Bu hol ularning yurish va yugurishda u qadar epchil, chaqqon bo'lmaganliklarini ko'rsatadi.

Xullas neandertal' odamlarning tashqi ko'rinishida maymunga xos bo'lgan ba'zi ibtidoiy belgilar mavjud bo'lib, ular hali hozirgi zamon odami darajasiga etib kelmagan edi. Ular jismoniy jihatdan hozirgi zamon kishisiga bevosita shart-sharoit tug'dirgan taraqqiyotning pitekantrop va sinantropidan so'ng bosqichda turardi. Lekin ular arxantroparga nisbatan juda ham ilgarilab ketgan edilar. Bu ularning mehnat qurollarining xili vazifasida ham ko'ga tashlanadi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, neandertallar Evropa, Osiyo, Afrikada keng tarqalib, ular xilma-xil jismoniy tishi tashkil qilganlar.

Evropa neandertallari past bo'yli, kaltabaqay, kuchli muskulli, biroz son bukchayogan, katta boshli, iyaklari sezilarsiz bo'lib, burunlari olinga cho'chchayib chiqib turgan.

Lekin D.Mak Kaun va boshqlar tomonidan Falastindan topilgan neandertallar esa Evropa neandertallaridan farq qilib, baland bo'yli bo'lganlar, iyaklari esa zamonaviy odamlarniki singari bo'lgan. Er yuzida tarqalgan Neandertal' odamlarning biri-biridan farq qiluvchi oltita turi ma'lum bo'lib, ular bazi xususiyatlari jihatidan o'zaro farq qilganlar. Bu xol irqlar kelib chiqishidagi dastlabki shart-sharoitlaridan biri edi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, hozirgi mavjud bo'lgan evropoid. Mingoloid va negroid irqlarini bevosita neandertalarga bog'lab bo'lamaydi. Mazkur irqlar o'z ming yillarcha keyn, so'ngi tosh davrida neandertal' odamidani rivojlana borishi oqibatda neandertal' tipidagi odamlar paydo bo'lgan davrda kelib chiqqan.

Eng dastlabki "ishbilarmon odam"ning asta-sekin rivojlana borishi oqibatda neandertal' tipidagi kishilar vujudga kela boshladi. Odam biologik jihatidan rivojlanayotgan ekan, asta-sekin kamolot sari qadam tashlayotgan ekan, ularning yashash tarzi ham o'zgaraborgan. Mazkur o'zgarishlar o'sha davr kishilarining mehnat qurollaridan hammadan avval ko'zga tashlanadi.

Neandertal' tipidagi odamlar yashagan davr arxeologik davrlashtirishning ashel'ning ikkinchi yarmi va must'e bosqichlarini o'z ichiga oladi.

YUqorida ta'qidlal o'tilgandek, neandertallar zamonasiga har xil toshdan qurol ishlash, texnikasi silliqlash natijasida yadro ham to'g'ri shaklga kirib diskka aylanib

qoldi. Ulardan sindirib olingan parchalar yupqalashib, uchburchak ko'rinishiga ega bo'ldi.

U davrning eng muhim qurollaridan biri sixcha va qirg'ichdir, sixchaning bir uchi o'tkirlangan bo'lib, uchburchakka o'xshab ketar edi.

U go'sht, teri va yog'ichni kesish va bo'laklarga ajratish uchun ishlatilgan. Odamlar uni yog'och kechish va (gavron, kaltak) uchiga bog'lab. Nayza sifatida ishlatilgan bo'lsalar kerak. Toshdan qirg'ich yasab, uning ikki tomonidan o'tkirlab qiruvchi va kesuvchi qurol sifatida foydalanilgan. Uning yordami bilan ov qilingan, hayvonlarning go'shti terimidan ajratib olinib, bo'lingan, teri ishlangan, hamda yog'ichni kesishda ham foydalanilgan. Neandertallardagi eng muhim qurollardan yana biri qo'lcho'qmori bo'lib, ular otish kattaroq suyaklarni sindirish uchun boshqa maqsadlarda foydalanilgan.

Neandertal' odamlari toshdan tashqari suyak va yog'och ham oddiy qurollar yasaganlar. Ular yog'ochdan gavronlar, so'yil, nayza asoslari va ayrilar yasaganlar va ular yordamida ov qilganlar. Ular Afrika, Osiyo va Evropada ancha keng tarqalib g'orlarda, ungurlarda, ungurlar tagida va boshqa joylarda istiqomat qilganlar. Ular teri va yungdan kiyim qilabilganlar. eng qadimgi kishilar kaba neandertal' tipidagi odamlar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Lekin ularda ovchilik xo'jaligi ilgariga qaraganda birmuncha yuqori bosqichga ko'tarildi.

Ularning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lib. Ular mamont, bizon, ot, ayiq, zubra, bug'i kabi yirik hayvonlarni ko'proq oavlaganlar. Chunki bu hayvonlar odamlarga juda ko'p go'sht, teri va qurol yasash uchun suyak ham bergan.

Yirik terisi qalin hayvonlarni ovlash juda mashqattli bo'lib, albatta bir kishining ishi bo'lmagan. Mazkur yirik hayvonlarni ko'plashib, birgalashib ovlanganki, busiz ovning muvaffaqitli bo'lishi mumkin emas edi.

Odamlar mamontlarni o'rab olib, tik jarliklarga yoki botqoqliklarga, balchiqlar ichiga haydab borib, ovlaganlar. Odamlar hayvonlarni ta'qib qilib borar ekanlar ular tik qoyalardan yiqilib tushar, botqoq va balchiqlarga botib qolar, shunday qilib ovchilarga ulja bo'lar edilar. Balchiqqa botib qolgan hayvonlar o'ldirilar, qoyalardan tushib, maynib bo'lgan hayvonlarning go'shtlari nimtalanib manzilgohlarga olib ketilar edi.

U davr odamlari g'or ayiqlarining suliga tosh tashlab uchi ayirli uzun yog'ochlar bilan ularga ko'plashib hujum qilganlar. Qo'toslar ko'proq ochiq yaylov va cho'llarda yashaganliklari uchun ulani ko'plashib quvish.. Atrofdagi quruq o'tlarni yoqib, shu tarzda ov qilgan bo'lishlari kerak.

Osiyo, xususan O'rta Osiyda istiqomat neandertalar, ayiq, qoplon, ot, tog' echkisi,

arxan va boshqa maxalliy hayvonlarni ko'plab ovlaganlar, ularning go'shtini ovqat, sifatida iste'mol qilganlar, terilarini yopinib yurganlar. Ulardan polos sifatida ham foydalangan bo'lishlari mumkin. SHuni ham unutmaslik kerakki, o'sha davr ibtidoiy kishilari yoz mavsumida yovvoyi daraxtlarning mevalaridan do'lana, yong'oq, olma, tog' olchasi va esa bo'ladigan boshqa mevalarni ovqat sifatida keng iste'mol qilganliklari shak-shubhasizdir, chunki yovvoyi hayvonlarni hamisha ham muvaffaqiyatli bo'la bermagan.

Ibtidoiy odamlarning ba'zi bir guruhlari ayrim vaqtlarda "odamxo'rlik" bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lganlar. Arxeologik manbalar shundan darak beradi.

1886 yilda professor kazmir Gor'yanovich Kramberger YUgoslaviyadagi Karpina shaharchasi yaqinidagi g'ordan neandetallar manzilgohini topgan va kavlagan. Mazkur joydagi ma'daniy qatlamlarning biridan katta gulxan qoldig'i va uning atrofidan olovda kuygan, yondirilgan odam suyaklari topilgan. Bu 10 dan oshiq yosh bola va katta kishilarning suyaklari ekanligi aniqlandi. Bu suyaklar o'sha davr neandertallarining suyaklari edi.

Bu xol va davr kishilarining turmush mashaqqatli bo'lganligi ovning hamisha o'ngidan kelabermaganini, oqibatda odamlar ba'zan o'z guruhi yoki boshqa guruhdagi odamlarni so'yib go'shtini iste'mol qilganliklarini ko'rsatadi.

"Odamxo'rlik" fanda kannibalizm termini bilan ifodalanadi. Bunday odat neandertallargacha bo'lgan kishilar orasida ham ro'y bergan bo'lishi mumkin.

Lekin bu xol ibtidoiy odamlar yashagan hamma joyda keng miqyosda tarqalgan emas albatta.

Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, olovdan keng miqyosda foydalanish va uni sun'iy tarzda hosil qilish neandertallar zamonasiga mansubdir. Olovni sun'iy tarzda kashf etilishi must'e davrida yashagan neandertallarning binolarin ibtidoiy davrning eng muhim kashfiyotlaridan biridir.

Insoniyat jamiyati tarixining paleantropolar davriga kelib olov sun'iy tarzda kashf etilgan ekan, bu insoniyat uchun uning hamma davrlari uchun olamshumul-tarixiy ahamiyatga molikdir.

Olovning kashf etilishining ahamiyati yana shunda ediki, kishilar ilgari ko'proq issiq mintaqalarda yashasalar, endi ular er yuzining sovuqroq qimlariga ham tarqala boshlaganlar. Ashell' davri oxiri va must'e davri odamlari g'orlarda hamda ochiq manzilgohlarda yashab, ayiq, bug'i, karkidon va mamont kabi yirik hayvonlarni ovlaganlar. Ravshanki, ayiq va mamont kabi hayvonlarni ovlash 5-6 kishi uddalay oladigan ish emas edi. Ibtidoiy kishilarning katta to'dasi birlashib, qilgandagina bunday

hayvonlarni muvafaqiyatli ravishda ovlash mumkin edi. Mazkur hayvonlar odamlarga go'sht va qurol uchun suyak beribgian qolmay, kiyim, boshpana va polos uchun teri ham bergan. Evropada istiqomat qilgan neandertallar o'z boshlaridan quruq va iliq iqlimli rissfyurm muzliklar aro davrni ham sovuq iqlimli muzlik davrni ham kechirganlar. SHunday ekan, ular hayvon terilaridan oddiy kiyimlar sifatida foydalanganliklari shabhasizdir. Ko'p joylarda tosh qirg'ichlar, skripkalar teri ishlashda keng miqyosda foydalanganliklaridan, terilardan esa kiyim sifatida foydalanganligidan dalolat beradi. Lekin, teridan suyak va yog'och igna yordamida teridan kiyim tikish ashell' - must'e davrida emas, balki yuqori tosh asriga kelib erishilgan bo'lsa kerak. Kiyim, turar joy, olovning kashf etilishi va olovni doimiy ravishda saqlash, ov qilish texnikasining takomillashib borishi, neandertallarga og'ir sovuq iqlim sharoitida yashaganligidan tashqari shimoliy rayonlarga ham borib o'rnashishlariga imkon beradi. Bu xol insoniyatning asta-sekin er shari bo'ylab keng tarqala boshlaganidan dalolat beradi. Lekin, shimoliy, shimoliy-sharqiy Evropa erlari, shimoliy, sharqiy va markaziy Osiyoning katta qismi butun Avstraliyada hamda Amerika qit'asi hali odamsiz edi. Mazkur o'lkalarga keyinchalik Osiyodan o'tib borganlar. SHunday qilib, neandertal' tipidagi odamlar hozirgi zamon odamlarining bevosita ajdodi bo'lib, eng qadimgi odamlarning avlodi edi.

Adabiyotlar

- 1.Karimov.I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.T.Sharq,1998**
- 2.Alekseev.V.Istoriya pervobitnogo obshestvo.M,Nauka,1991**
- 3.Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi.-T.;O'qituvchi,1993**
- 4.Pidayev Sh.Sirli kushonlar saltanati.-T.; O'qituvchi.1995**
- 5.Tokarev. S. Religiya narodov mira.-M.; Nauka.1989**

8-Mavzu: Antropogenez jarayonining yakuniga yetishi va urug' jamoa tuzumining paydo bo'lishi.

REJA:

1. Jamonaviy odam turining vujudga kelishi.
2. Miya qismlarining rivojlanishi.
3. Irqlarning vujudga kelish davri.

Hozirgi jismoniy tipdagi odam-neanrop «yangi odam» va dastlabki odamzod irqlarining vujudga kelishi.

Er yuzining kattagina qismiga tarqala boshlagan paleantropalar-ya'ni neandertallar shu hilma-hil tabiiy haroit va ijtimoiy mehnat jarayoni natijasida asta-sekinlik bilan rivojlanishda davom etdilar. Oqibat natijada hozirgi jismoniy tipdagi «yangi odam» neantrop darajasiga etib kelguncha katta tarixiy davrni bosib o'tdilar. Neantropalar o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan sifat jihatidan tubdan farq qilar edilar. SHuning uchun ham uni «aql-idrokli» odam –*homo sapiens*, deb ataganlar. Ular o'zlarining tashqi qiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadilar. Mutaxassislarning fikricha Neantropalar bundan 10-35 ming yil muqaddam so'ng tosh asrining boshlardan paydo bo'lgan va dastlabki eski dunyo bo'ylab keng tarqala boshlaganlar. Ularning skeletlar, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari Afrika, Evropa va Osiyoning ko'plab joylaridan topilgan.

«Aql-idrokli» deb atalgan odamlar dastlabki O'rta er, Qora Kaspiy dengizi va unga tutash bo'lgan erlarda paydo bo'lib, shu erdan Markaziy, sharqiy, janubiy-sharqiy Evropaga tarqalganlar. Neantropalar tarqalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o'lkalarga bo'linadi.

1. Evropa muzlik o'lkasi
2. O'rta er dengizi o'lkasi
3. Janubiy Afrikak o'lkasi
4. Sibir'-mug'ul o'lkasi
5. Hind-gimolay o'lkasi.
6. Malaya provintsiyasi (janybiy Xitoy, hindi-xitoy yarim oroli va uning atroflari)o'lkasi

Mazkur joylardan neantropalar qoldirga juda ko'p manzilgohlar, manzilgohlardan esa ular qoldirgan moddiy-madaniy qoldiqlar va o'sha madaniyatni yaratgan kishilarning suyak qoldiqlari, butun-butun skeletlari ko'plab topildi va topilmoqda.

Frantsiyada Kro-Man'bi, Komb-Kanell', Orinyak SHanselyad, Italiyada «Dolalar g'ori», Grimal'di, Kaval'on, Barma Grande. Bausso de Torre g'orlaridan Angliyadagi

Navilend g'oridan neontroplarning skeletlari va ularning moddiy madaniyatiga oid buyumlar ko'plab topilgan.

Poleantropik materiallar qadimiy Afrikada ham neontroplar yashaganidan darak beradi. Neontroplarning manzilgozlari, mehnat qurollari va skeletlari Afrikaning Afaluburummel', Makta-al-Arbi, Nauru-Assilyar, e'lentent, Boskon, Niyankoma, elizabet, Skil'dergat, Fish-Xuk, Keniya va Tanchan'inaning ko'p joylaridan topilgan odam suyaklari ham neontroplarga mansubdir.

Sobiq SSSRda ham arxeologiya va antropologiya sohasida qo'lga kiritilgan materiallar neontroplarning eski dunyoning katta qismida keng tarqalganini ko'rsatdi.

«Aql-idrokli odamlar» deb atalmish inson ajdodi o'zining tashqi qiyofasi, fikrlash qobiliyati, yashash tarzi, modiy madaniyati va mafkurasi bilan qadimgi naendetallardan tubdan farq qilar edi.

Bu farq avvalo ularning bosh tuzilishida ko'zga tashlanadi. Bu tip odam miya qutisining hajmi 1100-1560 sm³ ga teng bo'lib, peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha baland bo'lgan. Ularda miyaning eng progressiv uchastkalari, YA'ni boshning tepa qismi ikki chekka, ayniqsa peshonna kattalashgan edi.

Neontrop odamlarning basharasi neandertallarniki singari odinga yaiqib ketmagan. Unda qosh-qofoq usti qabartma suyagi yo'q bo'lib. pastki jag'ida bizniki kabi do'mboq suyagi bo'lgan. Neontroplarning yuz tuzilishi neandertallarga nisbatan chiroyliroq bo'lgan.

Bu davr kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odamini singari bo'lib, to'ppa-to'g'ri yurganlar. Ularning qo'l-oyoqlari tana tuzilishi bir-biriga mutanosib bo'lib. tez chopa olgan va mo'ljalni to'g'ri urgan.

Agar neontrop bilan hozirgi zamon odamining suyaklarining biri-biriga qiyos qilinsa, ularni jismoniy jihatdan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. SHunday qilib, qadimgi poleolitning boshlariga kelib neandertallardan hozirgi zamon jismoniy tipidagi odam paydo bo'ldi va shu bilan antropogenez jarayoni asosan tugallandi, odam o'z biologik rivojlanishini yakunladi. Bu tarixiy jihatdan urug'chilik tuzumining ilk bosqichi edi.

Antropologiya fanining eng muhim, dolzarb muammolaridan biri odamzod irqining kelib chiqishini o'rganishdan iborat. Odamzod irqi uning shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyati tarixining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Antropologiya va arxeologiya fani qo'lga kiritgan dalillar irqlarning shakllanishi hozirgi zamon jismoniy tipagi odamlarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan, deb aytishga imkon bermoqda.

So'ngi neolitdayoq odamzod irqining uchta turi-evropoid, negroid va mongoloid irqlari shakllana boshlagan. Bu jarayon ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

Irqlar nasldan-naslga o'tuvchi tashqi fizik xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy tarkib topgan turli xil odamlardan tashkil topadi. Odamlardagi irqiy belgilar reaksion burjua olimlari aytganidek azaliy bo'lmay balki ularning turli erlarga tarqalishi, turli xil geografik omillar ta'siri ostida va tarixiy tarkib topgan, shart-sharoitlar natijasida paydo bo'lgan xususiyatdir. Evropada so'ngi poleolit paydo bo'lgan Kro-man'on tipidagi odamlar evropoid irqining tipik vakili hisoblanadi.

Baland bo'ylik, kalla suyagining cho'ziqligi, qovoq usti qabartma suyagining yo'qligi, keng yumoloq yuzlilik, pastki jag'ning to'laligi va iyakning yaxshi rivojlanganligi evropoid irqining o'ziga xos xususiyatidir.

Evropoid irqining asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bosh suyaklar Frantsiyaning Kro-man'on, SHanselyad, Komb-Kanell', Orinyak, Angliyaning Naviland, Italiyaning kaviyon, Barma Granda, Bousso de Torre, SHimoliy Afrikaning Afalu-bu-Rummal', Maktaal-Arbi, assilyar, sobiq SSSR ning Voronej shahri yaqinidagi Kostenka, Qrimdagi Murzak –Koba, Fotma-Koba, YAqin va O'rta SHarqdagi bir qancha joylarlan topilgan va o'rganilgan.

Lekin evropoidlar asosan Evropada shakllanib kengroq tarqalgan. So'ngi poleolitda evropoid irqidan tashqari negroid irqining ham bo'lganligi fanga ma'lum.

Bu irq vakillari kromononlardan bo'y-bastining pastligi bilan va boldirlarining uzunligi, basharalarining yapaloqligi, tishlrining so'yoqligi, sochlarining qora, jingalakligi va iyaklarining o'rtacha taraqqiy qilgandigi bilan ajraliyu turadi.

Negroid irqining vakillari Italiyaning Grimal'di, Sahroyi Kabirdagi Asselyar, Kostenkadagi Markina g'ori, Palastin va O'rta er dengizi havzasidagi ba'zi joylardan ko'rlab topilgan.

So'ng poleolit davrida Markaziy Osiyo, Sibir' va uncha tutash bo'lmagan joylarda mongoloid irqiga mansub bo'lgan odamlar yashagan. Bu irq vakillari yuz bichimining kattaligi, oldinga chiqib turishi, yonoqlarining o'siqligi yon tomonga biroz bo'rtib chiqib turishligi shu tufayli yuzning yapoloqroq bo'lishi, ko'zning biroz qisiqligi, yuqori qovoq burmasining kuchli rivojlanganligi burunning o'rtacha kenglikda bo'lishi va qansharning pastligi bilan xarakterlanadi.

Mongoloid irqi vakillarining qazilma suyaklari Krosnoyarskdagi Afontova Gora P, Pekin yaqinidagi CHjoukoudyanning yuqori g'oridan topilgan.

Keyingi vaqtda Uzoq SHarq, SHarqiy Sibir', G'arbiy Sibir', Mongoliya, Xitoy va boshqa joylardan mongoloid irqiga mansub bo'lgan jud ko'p kalla suyaklari, butun-butun skeletlari topildi va topilmoqda. SHuni nazarda tutish kerakki, mazkur qadimgi irqlar xozirgi zamon irqlariga nisbatan bir-birlaridan uncha farqlanmagan. Biroq, so'ngi poleolit

odamlarning ayrim vakillarida xarq-hil irqqa mansub alomatlar paydo bo'la boshlagan. Mutaxassisilarning aniqlashicha ibtidoiy jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida turli odamlar yashab turgan tabiiy sharoit, geografik muhit muhim ahamiyati kasb etgan. Antropolog YA.YA.Roginskiy negroid irqining odamlarining ilk davridan boshlab janubiy kengliklarida issiq, serquyosh o'lkalarda yashaganligi bilan bog'laydi.

Arxeolog S.A. Semenov mo'g'ul irqidagi bo'rtgan qovoq, epikantus va qisq ko'zlarning dastlab paydo bo'lishida tabiiy muhitning katta rol o'ynaganligini isbotlab bergan.

Markaziy Osiyo va unga shimol tomondan yondashgan Sibirning yarktik rayonlari mo'g'ul irqi dastlab paydo bo'lgan o'lkalardir.

O'z-o'zidan ravshanki. Markaziy Osiyo uchun uzoq davom etadigan qattiq shamollar va kuchli qor hamda qum bo'ronlari xarakterlidir. Bu bo'ron va shamolar to'xtaganda esa havo toza, tiniq, bo'lib. quyosh butun nurini sohib turgan, hamda ko'zni kattaroq ochib yurishga imkon bermagan.

SHu tufayli mazkur joydagi aholida mo'g'ul irqiga xos bo'lgan qisq ko'zlilik va qalin qovoqlilik alomatlari paydo bo'la boshlagan.

SHunday qilib. Irqlar va irqiy ayirmalar bir nechv o'n ming yilar davomida mahalliy sharoitlarning odam tashqi qiyofasiga ta'siri ostida shakllana borgan va rifojlangan hamda nasldan-naslga o'tgan. Xozir er yuzida evropoid, negroid va mongoloid irqlarining shahobchalari keng taqalgan.

Negroid irqi qora irq deb ham yuritilgan. Ular asosan Afrika, Avstraliya va Okeaniyada keng tarqalgan. Ularning soni 300 million kishidan oshiq bo'lib, jahon aholisining 10 foizini tashkil etadi.

Evropoid irqi jonli tilda «Oq irq» deb ham ataladi. Mazkur irq vakillari 1750 millionga yaqin bo'lib, er aholisining 53 foizini tashkil etadi.

Mongoloid irqi, uni sariq irq ham deyishadi. Mongoloid irqining vakillari Osiyo, Amerika va Okeaniyada keng tarqalgan bo'lib, ularning soni 1,220 million kishidan oshiq bo'lib, er yuzi aholisining 37 foiziga yaqinini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi naijasida ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarilar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida xususan, mehnat quolarining takomillashuvida ko'zga tashlanadi. Qadimgi poleolik davrida quollarning hili juda oz bo'lib, ular juda sodda ishlangan edi.

Lekin, qadimgi poleolitning oxiri va so'ngi tosh asrning boshlariga kelganda manzara butunlay o'zgarib. Toshidan tarashlag'ich, qirg'ich teshgich va nayza uchlari, er kavlagich

qurollari vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog'ochdan bigiz, igna, so'yil. Nayza uchlari va boshqa murakkabroq, asboblari uchun moslamalar yasashga erishildi. Baliq ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tipli garpun kashf etilishi ham ana shu davr mansubdir.

Mehnat va ov qurollarining mukammallashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi.

Bu hol jamiyatda chuqur o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi.

Tirikchilik hayot-momot uchun bo'lgan kurash xo'jalikni kzlüksiz ta'minlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasini zarur ekanligini taqazo etdi va uni vujudga keltirdi. Bunday birlashgan uyushmani ibtidoiy kishilarning tasodifiy yig'indisi vujudga keltira olmas edi.

Bu birlashma negizida tabiiy qon-qarindoshlik yotar, bu eng dastlabki urug' yoki urug'chilik jamosi edi. Ibtidoiy poda darida ham odamlar, gala-gala, guruh-guruh bo'lib yashaganlar. Lekin, u guruhlarining soni 20-30 kishidan oshmas, ular ancha beqaror va mustahkam emas edi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa har bir urug'lagi kishilar uyushmasi 4-5 barobar oshib, urug' ichidagi odamlar o'zaro mustahkam birlikka ega bo'lganlar. Urug' va urug'chilik tuzumining kelib chiqishi urug'chilikning eng muhim va eng qiyin masalalaridan bir edi. Urug' jamoasi ibtidoiy to'daga nisbatan. Ancha progressiv ijtimoiy tashkilot hisoblanardi. Ibtidoiy to'daning urug' jamoasiga aylanish jarayoni uzoq, tarixiy davrni bosib o'tadi. Urug' bir-biriga qon-qarindosh ancha mustahkam birlikka ega bo'lgan kashilar majmuasidan iborat.

Hayot taqazosi bilan vujudga kelgan urug'lar keyinchalik qibilani tashkil etgan. Dastlabki qabilalar ikki va undan ortiq urug'dan tashkil topishi mumkin edi.

Urug'chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini dual tashkilot deb atash rasm bo'lgan. Bu dual tashkilot turli mamlakatlardagi ko'pgina qabilalarda so'ngi vaqtlargacha saqlanib sodda yoki murakkab tarzda ko'zga tashlanadi.

Ilk qabila tuzilishining bu ikki shakli fratriy-birodarlik sistemasi deb ataladi.

SHimoliy Amerikadagi tubjoyliki seneka irokezlar qabilasi fratriya tashkilotining klassik namunasi hisoblanadi.

Seneka-irokezlar qibilasi to'rt urug'dan iborat bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan. Mazkur fratriya va urug'lar alohida nomlar bilan atalgan. Rivoyatlarga ko'ra ularda ayiq va kiyikdan iborat ikkita boshlang'ich urug' bo'lgan. Bo'ri, Qunduz, Toshbaqa (Ayiq fratriyasi). Loyxo'ra, Ko'kton, Lochin (kiyiki fratriyasi) kabi urug'lar ularning bo'linishi

natijasida shakllangan. Bunday misollarni er yuzining boshqa xalqlarida ham kuzatish mumkin.

Urug'chilik tuzumining bunday dual va tashkiloti shaklida paydo bo'lishi erkak va ayollar orasidagi munosabat nikoh rivojlanishining yangi bosqichi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishilikning poda davrlarda nikoh munosabatlari o'zining betartibliigi va umumiyliigi bilan xarakterlidir. Nikoh va oila munosabatlarining bu shakli promiskuitet deb ataladi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa nikoh va oila munosabatlari o'zngarib bordi.

Promiskuitetlarda dastlabki cheklanish sodir bo'ldi, bu ham bo'lsa katta avlod bilan kichik avlod vrtasidagi nikoh munosabatlarini bekor qilinishidir.

Mazkur davrdagi dual tashkiloting eng muhim xususiyati shundan iborat ediki, bu bir «pallaga» mansub odamlarning o'zaro nikohlana olmasligi edi. endi er va xotin qabilaning turli «palla»sidan bo'lishi kerak edi. Birmuncha rivoj topgan fratrial fromdagi dual tashkilotning nikoh tartibi bir fratriyadagi va undagi odamlarning o'zaro nikohlanishi mumkin emas. Yigit boshqa fratriyaga mansub bo'lgan qiz yoki ayol nikohlana olishi mumkin edi. Natijada bir fratriya boshqa fratriyaga nisbatan «ona fratriyasi» ona urug'i boshqasi esa ota fratriyasi ota urug'i vujudga kelar edi.

SHu t'ariqa ekzogamiya tartibi vujudga kelgan.

SHunday qilib, doimo qabilaning ikki pallasi, fratriyalar va fratriyadagi ikki urug' o'rtasida tuziladigan nikoh tartibining xususiyati bu tartibni xususiyatni dual ekzogamich deb atashga asos bo'ldi. Ikkinchidan esa doimo bir urug'. Bir fratriya ichida shubhasiz ekzogamiya shakllanaytgan paytda nikoh tartibi bir yigit va bir qizning qovushishidan iborat bo'lmagan ekzogamiyali nikohga muvofiq butun bir urug'ning hamma erkaklari boshqa urug' yoki pallaning ayollariga er bo'lishi huquqiga ega bo'lgan. Nikohning bu tarixiy shakli guruhli nikoh deb atalgan.

Guruhli nikohning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundan tug'ilgan bolaning otasi aniq bo'lmay, faqatgina onasi ma'lum bo'lgan xolos.

Bunday sharoitda butun dual sistema urug'lar, pallalar va fratriya ayollar atrofida to'planadi. Demak har bir shunday guruh ayollar avlodidan tashkil topadi va qon-qarindoshlik onalar avlodidan hisoblanadi. SHu tariqa urug' ona avlodi sifatida vujudgamkelib, urug'chilik tuzumi rivojlanishi matriarxat deb ataladigan davr boshlandi.

Urug'chilik tuzumining bu dastlabki bosqichidayoq erkak va ayollar o'rtasida mehnat taqsimotining xarakteri va jamiyat rivojlanishining bu bosqichida ayollarning aynagan xo'jalik roli urug'chilik tuzumining ota avlodidan emas balki ona avlodilarida boshlanishining asosiy sabablaridan biri deb hisoblanadi.

Lekin, reaksion burjua fani ibtidoiy davrda kishilikning rivojlanishi ikki yo'ldan borib, faqat dehqonchilik bilan hug'ullangan bir hil qabila va xalqlar matriarxat bosqichini bosib o'tib, qoloq bo'lib qolganlar, chorvachilik bilan shug'ullanagn boshqa qabilalar («oariylar») matriarxatni bilmay patriarxat bosiqchini bosib o'tib, davlat va hokimiyat yaratganlar deb hisob qiladilar. Burjua olimlarining oriy bo'lmagan matriarxat nazariyasi ibtidoiy qabilalar dastlab dehqon va chorvavdor kishilarga bo'lingan edi, degan fikrlar arxeologiya, etnografiya va boshqa fanlar qo'lga kiritgan dalillarga ziddir.

Lekin insoniyatning barchasi o'z boshidan matriarxat poleolitdan neolit oxirigacha bo'lgan uzoqlikni qatorasiga ikki marta ishlatilgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Lekin kishilikning matriarxat bosqichi er sharining hamma erida bir vaqtning o'zida nihoyasiga etgan zolos. Uning rivojlanish darajasi ham turlicha bo'lgan. Bu shubhasiz ishlab chiqarish kuchlarining qay darajada rivojlanishib borish oqibatida matriarxatdan patriarxatga o'tish sodir bo'lidiki, endilikda erkaklar ishlab chiqarishda asosiy rol' o'ynay boshladilar. Bu o'tish avvalo xo'jalikning yuksalishida motiga asosdagi dahqonchilikdan omoch asosidagi dehqonchilikkam o'tishda uy hayvonlarini urchitib ko'paytirib boqishdan chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi. Natijada erkaklar xo'jalikda etakchi o'ringa chiqib oldilar, ayollar esa uy xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanib ikkinchi o'ringa tushib qoldilar.

Lekin er yuzining turli erlarida ona urug'i va ota urug'i artibda hayot kechiriyotgan etnik gruppalar, qabilalar va xalqlar hamon mavjud. Ammo ota urug'i tarkibidagi qabila elat va xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkirl etadi.

Mazkur ijtimoiy tashkilot qon-qarindoshdan iborat xo'jalik tashkiloti bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjuddir.

Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol maxsulotlari va urug' a'zolari uchun umumiy bo'lgan.

Urug' va urug'chilik tuzumi to'daga nisbatan olg'a tashlangan katta qadam bo'lib, yuqori poleolitda aql idrokli kishilar kroman'onlik-garamandliklarlarda xozirgi jismoniy tipdagi kishilar vujudga kelgan vaqtda paydo bo'lgan va asta-sekin rivojlana borgan. Urug' va urug'chilik ibtidoiy tashkilotning bundan keyingi rivojlanishida juda katta ta'sir etganligi shak-shubhasizdir.

Urug' va urug'chilik tuzumiga o'tilan ekan, erkak va ayollar o'rtasidagi nikah munosabatlarida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ibtidoiy to'da davrida aloqalar betartib va umumiy bo'lgan bo'lsa, urug'chilik tuzumi davriga kelib bu sohada boshqacha tartib joriy qilingan.

Bu vaqtga kelib muayyan urug' va palla ichidagi ayollar bilan erkaklarning qovushishi bekor qilingan. endilikda bir urug'ning yoki bir pallaning bir guruh erkaklari bioshqa bir guruhning yoki pallaning ayollariga er bo'lishgan. Nikohning bu tarixiy tartibini yoki qoldig'ini o'z boshidan kechirayotgan qabilalar mavjud.

Mavzu: Ilk ibtidoiy jamoa bosqining texnik va xo'jalik yutuqlari.

REJA:

1. Rivojlangan urug' jamoasiga o'tish.
2. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi.
3. Zamonaviy va kromanon odam turlari vujudga kelish muammolari.

O'rta poleolitning oxiri va yuqori poleolitning boshlarida vujudga kelgan urug'chilik tuzumi uzoq rivojlanish taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Huddi shu davrda hozirgi jismoniy tipdagi odamlar shaklanib vujudga keldi. Bu hol ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish dastavval toshni qayta ishlash yangi texnikaning qo'llanilishda o'z ifodasini topdi.

Bu vaqtga kelib mus'e davrining sodda qurollari o'rniga tosh, pichoq, nayza, keskich bigiz, nayzaga va har turli nozik qurollar tarqaladi. Garchi saqlanib qolmagan bo'lsa ham yog'och ayniqsa qattiq yog'ochlardan ko'plab qurollar tayyorlanganligi shakshubhasizdir. Mazkur davrda hayvon shohlari, suyaklari va tishlaridan igna, bigiz belcha, er kavlagich motiga kirka. Nayza uchlari yasalgan. Ibtidoiy odamlarning manzilgohlaridan topilgan tosh va suyak qurollarining asosiy qismi bo'lganligidan dalolat beradi.

Dastlabki urug'chilik davri texnika taraqqiyotida muhim davr bo'lib, bir necha qismdan iborat ancha murakkab mehnat jangovar va ov qurollari paydo bo'lgan. Urug'chilik davrining barcha qurollari neandertal va undan oldin o'tgan odamlarning qurollariga nisbatan boy va turli-tuman bo'lib sifat jihatidan ustunlikka ega edi.

Texnika taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar ovchilikning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldiki, so'ngi poleolit manzilgohlarining ayrimlaridan topilgan mamont, yovvoyi ot, shimol bug'usi va boshqa yirik hayvonlar suyaklarining ko'p miqdorda to'planib yotishi ovchilikning rivojlanganligidan darak beradi.

CHexoslovakiyadagi Premedmost manzilgohidan 40,000 qurol, 1000 ga yaqin mamont suyagi, Frantsiyaning Amorasiyavka degan joyidan 1000 yaqin bizon suyaklari ko'plab tosh va suyak qurollar bilan birgalikda topilgan. Bu xol hayvonlarni o'rab olish, quvib qamash tuzoq qo'yish va ovchilikning boshqa usullarini tobora tkaomillashib borganligini ko'rsatadi. Texnika taraqqiyoti natijasida ovchilik yanada rivojlanib, bu xol kishilarni go'sht, teriga bo'lgan talablarini ma'lum darajada qondirdi. Odamlar endi o'lja

izlab dastlabk erlaridan uzoqlashib o'sha erlarda makon tutdilar. Boshpana sifatida odamlar g'orlar va ungurladan keng foydalandilar. SHu bilan bir qatorda chayla, erto'la va boshqa sun'iy boshpanalar ham keng tarqala boshladi.

So'ng poleolitda hayvon suyaklaridan uy-joylar qurish boshlandi. Ularning usti va atroflari shoh-shabba va hayvon terilari bilan berkitilgan bo'lib, kattaligi ham har hil bo'lgan. Voronej yaqinidagi so'ngi poleolit odamlar istiqomat qiladigan turar joyning uzunligi 35 m., kengligi esa 15-16 metr bo'lgan. Unda 9 ta o'choq bo'lganligi aniqlangan.

Mazkur davr ichida o'choqlari bo'lgan turar joylarning keng tarqalishi riss-fyurm muzliklar aro davrdagi ga nisbatan iliq iqlim vyurm muzlanish davridagi obi-havoning sovushi bilan bog'liq ekanligi shubhasizdir. Vyurm muzlik davrining sovuq iqlimida yalang'och yashash mumkin bo'lgan. Odamlar o'zlarini sovuqdan saqlash uchun har turli hayvon terilaridan kiyim tikib kiya boshlaganlar. Doimiy turar joylarning ba'zilaridan topilgan tosh teshkich, suyak ignalar shundan dalolat berib turibdi.

SHu davrda odamlar toshdan yoritgich asboblari yasab, tunda o'z turar joylarini yoritganlar. Aftidan ibtidoiy kishilar mazkur davrdan boshlab, nisbatan o'troqlikda yashashga o'tgan bo'lsalar kerak. Odamlar sovuq qish kechalarida har tarafga kezgandan ko'ra o'troqlikni afzal ko'rganlar.

Bir joydan ikkinchi joyga ko'chish ko'proq kunning issiq kunlariga to'g'ri kelgan bo'lsa kerak.

Ishlab chiqarish kularining tobora yukasala boshlaganligi ibtidoiy kishilarning ijtimoiy hayotida ham katta o'zgarishlar bo'lishiga olib kedi. Ilgari beqaror va tez tarqalib ketadigan guruhlar o'rniga endilikda ancha barqaror va mustahkam kishilar kollektivi vujudga keldi. Bu kollektiv mehnat va qon-qarindoshlikchilikning natijasi ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiinng oqibati edi. Doimiy kollektiv mehnat bilan bog'langan va qon-qarindoshlik asosida birikkang guruhlarining, ya'ni ijtimoiy shakli bo'lgan urug'chilik jamoasining vujudga kelishini kishilik tarixining shu bosqichga kiritish mumkin. Dastlaburug'chilik tuzumi negizida kollektiv mehnat, ovdan termachilikdan topib kelingan oziq-ovqat va boshqa iste'mol mahsulotlari urug' ichida barobar taqsimlangan. Bu V.I.Lenin ta'biri bilan aytganda ibtidoiy kommunistik jamiyatning o'zginasi edi.

Ishlab chiqarish kuchlarining o'chishi urug'chilik tuzumining bunday keyingi taraqqiyotiga zamin xozirladi. Bu yuksalish natijasida ovchi va baliqchilarning rivojlangan urug'chilik jamoasi vujudga kelgan. Jamiyatning iqtisodiy asosini urug'ning erga umumiy egaligi tashkil etadi.

Dala tomorqa, ov maydonlari, baliq tutiladigan va termachilik qilinadigan erlar bevosita uru g'ga mansub bilvosita qabilaga ham mansub bo'lgan.

Etnografik ma'lumotlardan shu narsa ravshanki, qabila ikki fratriyaga, fratriyalar esa urug'larga bo'linadi.

Urug' esa ikki shaklga ega bo'lib, ona va ota urug'larini tashkil etadi. Urug' ona yoki ota shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, u bir-biri bilan yaqin qarindosh bo'lgan ayol yoki erkaklar avlodining to'rt-besh bo'g'inini o'z ichiga olgan kishilar majmuasidan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin.

Urug' ona yoki ota urug'i shaklida mavjud ekan, uning qaysi biri birinchi bo'lib, vujudga kelgan degan masala etnograflar tarixchilar orasidagi eng muhim munozaralardan biri bo'lib kelmoqda. Ba'zilar avval ota urug'i, so'ng ona urug'i vujudga kelgan, deb faraz qilsalar, olimlarning boshqa gruppasi ona urug'i ota urug'idan ilgari vujudga kelgan deydilar.

Jahon xalqlari etnografiyasini o'rganmay turib, bu masalani oydinlashtirish shubhasiz mumkin emas albatta.

Amerika, Afrika, Avstraliya, Evropa Osiyo va Okeaniya orollaridagi u qadar rivojlanmagan qabilalar hayotini o'rganish etnograflarga bu masalaga oydinlik kiritishga imkon berdi. Arxeologik va yozma manbalar esa bu ma'lumotlar qator ko'pchilikni tashkil etilishi kuzatilgan. Bu ma'lumotlar qator sovet va chet el olimlarining tavsifotlarida bayon etilgan.

Ona urug'i davrida urug'dan ajralib chiqqan ona uy jamoasi ona oilasi jamiyatning asosiy tashkil etgan. Ona oilasi ayollarning eng yaqin qarindoshidan iborat ayol va erkaklardan tashkil topgan bo'lib, ayollar avlodining to'rt-besh va undan ortiq bo'g'ini o'z ichiga olgan kishilar majmuasidir. Ona oilasining soni 200-300 kishiga etgan.

Amerikadagi irokez, Kanadadagi algonik, Afrika, Avstraliya, Melaneziyava boshqa joylardagi qabilalarning ona xonadaoni jamoasi ona oilasining timsoli bo'lishi mumkin.

Ona urug'i va ona oilasi deyilishning sababi ayollarning ijtimoiy hayotdagi tutgan o'rni, erkaklarnikiga nisbatan balandroq bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Erkaklar o'rmonlarni kesib er ochgan, ov qilgan, qurollar yasagan. Ayollar esa terib termachilab ovqat topganlar. Motiga bilan erni bo'shatib dehqonchilik qilganlar. Don va poliz ekinlarini parvarish qilganlar, hosil pishgach uni yig'ib, terib olganlar. Uy-ro'zg'or ishlarini ovqat pishirish, kiyim bosh tikish, uyni tartibga keltirish kabi juda ko'p xo'jalik ishlarini bajarganlar. Uendan tashqari keksalarni parvarish qilish va bolalarni tarbiyalash kabi muhim ishlar ular zimmasi irokezlar, missionerlar biriga bizning mamlakatimizda asosiy ishlarni ayollar bajaradilar, ulardan va sabzavotlarni sepadilar, ekadilar, parvarish qiladilar, erkakdar bolalari uchun ovqatlar pishiradilar. Agar xotilar bo'lmaganda edi biz

juda og'ir ahvolda yashagan bo'lar edik, deb aytishgan. Bu xol urug', oila va xonadonda ularning mavqeini baland ko'targan.

Ikkinchidan esa tug'ilgan nikoh guruhi, keyinchalik juft ayni vaqtda beqaror bo'lganligi uchun tug'ilgan bola bevosita onangi taniydi. Otaning kim ekanligi noma'lum bo'lib qoladi.

Demak ona urug'i, ona oilasi deyilish ana shundan kelib chiqqan. Ona urug'i davrida ayollarning xo'jalikdagi mavqeini ko'tarilishi nikoh va oilaviy munosabatlarga ham ta'sir etgan.

SHuni aytish kerakki, rivojlangan matriarxt guruhli nikohdan juft nikohga o'tish bilan mashxur bo'lib, juft nikohning rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan er xotin urug'i, uning xonadoniga ko'chib kelib joylashadi va ichkuyov bo'lib qoladi.

Buni etnografiyada matrilokal joylashish deb ta'riflanadi.

Ona urug'i davridagi nikohning ajoyib belgisi shundan iboratki, u ko'pincha erkakning emas balki ayolning hohishi bilan tuziladi va buziladi. Mashhur Gerodot «Lidiya» ayollari erlarini o'zlari tanlaydilar» deb yozgan edi.

Qadimgi vaqtlarda shimoliy g'arbiy Kanadada yashovchi algolkin qabilalaridan birida qizlar o'zlariga yoqib qolgan yigitga uchinchi bir shaxsni sovchi qilib yuborganlar. Agar yigit rozi bo'lsa, soddagina to'y bo'lib, kuyov kelinnikiga ko'chib kelgan.

Ona urug'i davrida kelin va kuyovning o'z ona urug'larida yashab vaqti-vaqti bilan uchrashib turish odati bo'lgan. Bunday odat dislokal joylashish nomini olgan.

Matriarxat davrida ona oilasi alohida qo'rg'on yoki uyda yashovchi, har jihatdan mustahkam bog'langan jamoadan kommunadek, zich uyushgan xo'jalik tashkilotidan iborat bo'lib, ba'zi shahsiy buyumlardan tashqari barcha buyumlar oilaniki bo'lgan. SHu bilan birga ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari umumiy bo'lgan. Oila tepasida esa aqlli, tadbirkor, eng keksa ayol turgan. U xonadonning barcha ishlariga rahnomolik qilgan.

SHunday qilib, rivoj topgan ona urug'i davrida ijtimoiy turmushda ham oilada ham ayollar ustunlikka ega bo'lganlar. Rivojlangan ona urug'i davrida oial urug' xatto qabila tepasida ham ayol turgan degan ma'lumotlar bor. erkaklar ularga tobe bo'lib, xatto kimsitilgan ham. Amerikadagi seneka qabilasining irokezlari orasida ko'p yillar yashagan Artur Raytning yozishicha, irokez ayollari erni boshqa kalanlardan olganlar, ayollar uyda hakmronbo'lib, ular klanlarda (urug'larda va umuman hamma sohalarda katta kuchga egadirlar. SHunday vaq'lar ham bo'lganki ayollar erkaklardan saylangan boshliqni, oqsoqolni o'rnidan tushirib, oddiy jangchi darajasiga tushirib qo'yishdan ham toymas edilar. Ironezlarning xonadon jamoasi-ovachirida butun hokimiyat katta yoshli, xo'jalik,

butun ishlarni yaxshi biladigan, tajribali va obro'li ona ayollardan tashkil topgan kengash ixtiyorida edi. erkaklar boshqa urug'ga mansub bo'lganliklari uchun ovachgirda qo'shni bo'lgan guvon ayollar xaqida qiziqarli ma'lumotlar keltirgan. Er, dala va hamma hosil umuman butun hokimiyat ayollar qo'lidadir. Bunga qarshi erkaklar hamma narsadan mahrum va cheklangan, ularning bolalari o'zlariga begonadir. Uy xo'jaligini ayollar boshqaradilar.

Bunday tartib melaneziyaning bo'zi oblastlari xususan Dobu orolida ham hisobga olingan. U erlarda ham ham narsaning sohimi va taqsimotchisi ona ayoldir. Bunday manzarani Afrika. Janubiy Amerika, Avstraliya, Okeaniya va boshqa joylarda oila, urug' va qabilalar hayotida ham uchratish mumkin. Bu hol ibtidoiy davrni boshlaridan kechirgan degan fikrni iytishga imkon beradi.

So'ngi tosh asrining oxirlariga kelib ibtidoiy jamoa tuzumi davrining ishlab chiqarish kuchlari ancha rivoj topgan. Ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti darajasi neolit-yangi tosh asriga kelib o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Neolit, 3,5-3 million yillik tosh asrining yuqori va oxirgi bosqichi bo'lib, toshdan yasalgan mehnat qurollari yasash texnikasining takomilashuvi bilan belgilanadi. Neolit davriga tosh, qurollarning xili ortib, sifati yaxshilandi.

Qadimgi tosh asrining qo'pol qurollar o'rniga, endilikda silliqlangan tosh boltalar, kamon o'qi uchlari, nayza uchlari (poynaklari), tosh pichoqlar, qadamali o'roqlar, suyakdan nozik qilib ishlangan igna, bigiz sanchqich, kamon o'qi uchlari va boshqa mehnat qurollari vujudga kelib, tobora takomillasha boshladi. Qadimgi tosh asri odamlari uzoq asrlar davomida erda yotgan toshlardan qurol yasab kelgan bo'lsalar, endilikda qurol uchi uchun zarur bo'lgan eng muhim xom-ashyo toshni er tagidan kavlab ola boshladilar.

Keyingi vaqtda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Osiyo, Evropa, Amerika Afrikadan chaqmoqtosh qazib olingan qadimgi shaxtalar qoldiqlari topilgan.

Arxeologlar tomonidan kavlangan vaqtga mazkur ustahona va shahtalar toshdan suchkdan yasalan mehnat qurollari, qurollarning parchalari, uchirindilar, tosh chiqindilar ko'plab topilgan.

Neolit davriga kelib yog'och ishlash va undan yangi qurollar yasash keng tarqalgan. YOg'och ishlash, uni kesish uchun ishlatiladigan qurollardan eng muhimi silliqalngan tosh boltalar bo'lib. u erni o'rmonlardn tozalash uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Tosh boltalar yordamida yog'ochdan g'o'llar, kalta g'o'lalardan esa qayiqchalar yasala boshlagan.

Toshdan, termachilik, hamda ibtidoiy dehqonchilik uchun zarur bo'lgan, havoncha, dasta yorg'uchoq er yumshatgich o'roq qadamasi va boshqa mehnat qurollari xo'jalikda

keng foydalanila boshladi. Motichalar (er yumshatgichlar)o'roqlar suyak va shohlardan ham yasalgan.

Mezolit davrida kashf etilgan va o'z davri uchun cheksiz ahamiyat kasb etgan o'q yoy neolit davriga kelib ancha takomillashtiriladi. O'q uchlari dastavval bargsimon, keyinchalik esa uchburchak shaklida ishlana boshladi. Neolit davrining eng muhim yangiliklaridan biri loydan sopol idishlar yasab uni pishirishni kashf etilishidir. Loydan sopol idishlar yasab uni pishirish odamzodga ovqat tayyorlash sifatini va oziq-ovqatning xilini ko'paytirish imkoniyatini beradi.

Neolit xususan so'ngi neolit davrining eng yirik yutuqlaridan yana birini yigirish o'va to'qimachilikning kashf etilishidir. Xunarmandchilikning bu sohasini kashfm etish insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ip yigirish uchn tola sifatida dastlab gazak o't (kraniva) yovvoyi jun konoplyani, shuningdek daraxt po'stloqlarini ishlatiladi. Keynichalik esa qo'y, echki qoramol yovvoyi hayvonlar junidan va yovvoyi zig'ir poyamimni yigirib ip, tola tayorlaganlar.

Ip yigirishning kashf etilishi to'r to'qishning osonlashtirib, daryo va ko'l yoqalarida baliqchilik xo'jaligini keng kulamda rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar ochib berdi.

Neolit davriga kelib, qayiq eshkaklari, chenalar, lija va boshqa xarakat vositalari kashf etilgan bo'lsa, eneolit davriga kelib inson g'ildirakli arava va elkanli kealarni ham kashf etishga muvaffaq bo'lgan edi. Bu arxeologik qazish ishlari natijasida isbotlangan.

Bu xol neolit odamlarining yashash tarizini o'z ajdodlarinikiga nisbatan birmuncha yaxshilanishiga sabab bo'ldi. Lekin neolit davri qabilalari hayotidagi eng katta ahamiyatga molik narsa bu dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi va tarqalishi bo'ldi.

Har hil joy, hilma hil davrda yashagan barcha qabilalar yangi tosh asri taraqqiyot bosqichini o'z boshlaridn kechirganlar. Osiyo va Evropa neolit davri yodgorliklarining aksariyati 6-3 ming yillikka hosdir.

Ammo Evropaning shimoliy royonlaridagi ba'zi neolit yodgorliklari 2 ming yillikning birinchi yarimiga to'g'ri keladi. Neolitning oxirlaridan boshlab inson ayrim mehnat qurollarini eng dastlabki metall-misdan tayyorlaganlar. SHuning uchun ham bu davrni xalkolit-eneolit mis-tosh davri deb atash rasm bo'lgan. Lekin mis u qadar qattik bo'lmaganligi sababli tosh qurollarni siqib chiqara olmas ham edi. CHunki, misdan omoch ham, ketmon kabi mehnat qurollari, qilich. Xanjar kabi jangovar qurollar yasab bo'lmas edi.

Tosh qurollarni, faqat keyinchalik kashf qilingan bronza (jez) va temir surib chiqardi va metallni kashf etilishi va uni turmush qo'llanilishi keyinchalik bvladigan texnika taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Mavzu: Rivojlangan ibtidoiy jamoada ishlab chiqarishning o'sishi.

REJA:

1. Ilk dehqon va chorvadorlar.
2. Hayvonlarning honakilashtirish.
3. Mehnat qurollari.
4. Jamoalararo va qabilalararo mehnat taqsimoti

Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi hamda uning tarqalishi ibtidoiy va hamma davr jamiyati uchun tarixi iqtisodiy hayoti uchun benihoya, cheksiz ahamiyat kasb etgan vokelikdir.

Ibtidoiy davr xo'jalik hayotining eng buyuuk yutug'i ham neolit davrida kelib chiqdi. Dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi jamiyatning bundan keyingi rivojlanishida katta rol' o'ynadi.

Dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishini o'rganish eng qiyin. Ayni vaqtda eng sharaflı masala bo'libyu ko'pdan beri jahon olimlarini e'tiborini o'ziga tortib keladi. Xo'jalikning bu ikki buyuk tarmog'ini kelib chiqish haqida olimlar orasida tortishuv mavjud.

Ibtidoiy dehqonchilikning vujudga kelishi olimlar orasida dehqonchilik, ibtidoiy dehqonchilikning kelib chiqishi orinyak-solyutr davrida paydo bo'la boshlagan, degan fikr ham mavjud.

Albatta dehqonchilikning orniyak-solyutr davrida vujudga kelgan, deyish mubolag'adan boshqa narsa emas. Xo'jalikning bu murakkab sohasi kishilik jamiyatining ancha keyingi davrlarida vujudga kelgan.

Fanda dehqonchilik bilan dastlab ayollar shug'ullangan degan fikr keng tarqalgan. Xaqiqatdan ham shunday bo'lishi mumkin. CHunki urug'chilik iuzumining dastlabki bosqichlarida ayollarning asosiy qismi termachilik bilan shug'ullangan. Ular istn'mol qilib bo'ladigan yovvoyi o'simliklarni terib kelib parvarishlaganlar va ularni ko'paytirish uchun xarakat qilganlar.

YOvvoyi o'simliklarni o'sish sharoitini va pishib etilishini ko'proq ayollar kuzatgan bo'lsa kerak. SHuning uchun ham mutaxassislar orasida ayollar dehqonchilikni kashf etgan degan fikr keng tarkalgan. YUksak darajada rivojlangan termachilik, yoki endigina shakllanayotgan dehqonchilik mezolit davriga to'g'ri keladi. SHu davrda ya'ni

11-8 ming yilliklarga mansub bo'lgan yuksak darajadagi termachilik yoki ilk dehqonchilik markazlari Palastin. Iordaniya, Iroq va YAqin SHarqning qator oblastlaridan topilgan. Mazkur joylardagi mezolit qarorgohlarini arheologik jihatdan kavlangan vaqtda toshdan suyakdan yasalgan motiga, yorg'uchoq, hovoncha, uning dastasi va donni yanchish uchun kerak bulgan toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan.

Dehqonchilikning eng dastlabki vujudga kelgan joyi masalasida olimlar orasida monotsentrik va politsentrik nazariyalar majud. Monosentritlarning fikriyaa dehqonchilikning dastlabki uchog'i Old Osiyo bo'lib, xo'jalikning bu yangi tarmog'i mazkur joydan SHimoliy SHarqiy Afrikaga, Janubiy sharqiy Evropaga, O'rta, janubiy-sharqiy, va janubiy Osiyoga, Okeaniyaga va Markaziy hamda Janubiy Amerikaga tarqalgan. Lekin bu fikr xaqiqatga to'g'ri kelmaydi. Xaqiqatdan ham so'ngi va xozirgi vaqtda to'plangan dalillar monotsentristlarning fikri noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi. To'plangan arxeologik dalillar har tomonlama polotsentrik nazariyani vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Politsentrik nazariyaga muvofiq ibtidoiy dehqonchilikning markazlari bir erda bo'lmay, balki subtropik iqlimi o'lkalarning bir necha joyida turli davrlarda mustaqil tarzda vujudga kelgan degan fikr mantiqiy jihatdan to'g'ridir. Politsentrik nazariyaga muvafiq ibtidoiy dehqonchilikning ilk markazlari Old Osiyo, Xuanxu, Mesoamerika va Peru bo'lib, shu erlardan mazkur joylarning atroflariga tarqalgan. Bu jihatdan Old Osiyo oblasti alohida ahamiyatga ega bo'lib, neolit va eneolit davrlarida bu joyda illk o'troq dehqonchilikning 10 ga yaqin markazlari vujudga keldi va rivoj topa boshladi. SHu erlardan esa atrov qo'shni oblastlarga tarqala boshlagan. Ibtidoiy dehqonchilikning vujudga kelishi, arpa, bug'doy, jo'gori, sholg'om, turp, lavlagi, piyoz, sarimsoq piyoz, karam, kartoshka, no'xat, yosmiq, loviya, pasternak, kashniya va boshqa yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish bilan bog'liqdir.

Bu yovvoyi ekinlarni madaniylashtirib ekish, o'zlashtirish albatta sekinlik bilan amalga oshirilgan. Buning uchun ibtidoiy kishilar uzoq vaqt sar-matonat ko'ratib mehnat qilganlar. Bu sohada odamlar qanchadan-qancha yutuq va muvffaqiyatsizlikka uchraganlar. Lekin oqibat natijada ibtidoiy dehqonlari ibtidoiy jamoa tuzimining oxirlariga kelib xozir bizga ma'lum bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlarining asosiy qismini madaniylashtirib bo'lgan edilar.

Ibtidoiy kishilar shubhasiz xilma-hil hayvonlar orasida yashab kelganlar. Ibtidoiy inson yovvoyi hayvonlarni avlodi, go'shtini ovqat sifatida iste'mol qildi, terisidan kiyim, polos va boshpana sifatida foydalandilar. Suyaklardan har hil mehnat va jangovar qurollar yasadi.

Tabitda yovvoyi hayvonlarning turlari ko'p. Ibtidoiy inson o'z atrofidagi yovvoyi hayvonarlarni o'rgandi. Tinimsiz kuzatish natijasida hayvonlarning xulq-atvori o'rganildi va ularning ba'zilar asta-sekin qo'lga o'rgatilib, honakilashtirila boshladi.

Ibtidoiy odam tomonidan eng dastlabki qo'lga o'rgatilib honakilashtirilgan hayvon itdir. Bu mezolit davriga to'g'ri keladi. Hayvon turlarining qo'lga o'rgatilishi va honakilashirilishining nisbiy tarzda bo'lsa ham o'troqlikni talab etar, ovchi va qabilalarning doimiyko'chib yurishiga monelik ko'rsatar edi. Er yuzining juda ko'p joylaridagi so'ng mezolit va neolit davriga o'z yodgorliklar kavlagan vaqtda madaniy qatlamlardan mehnat qurolari bilan bir qatorda honaki cho'sqa, qo'y, echki, va yirik shohli qoramollarning suyaklari topilgan. Bu hol mazkur xayvonlarning sunggi mezolit va neolit davrida qo'lga o'rgatilib, xonakilashtiraboshlanganidan dalolat beradi. YOvvoyi hayvon turlarini xonakilashtirish juda qiyin ish bo'lib, bu jarayon juda uzoq davom etyapganligi shubhasizdir. SHuni aytib o'tish kerakki odam er bzasidagi 140 ming tur hayvondan, faqatgina 17 turiniga xonakilashtirishga muvaffaq bo'ldi.

YOvvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatilishi va ulaning uy hayvonlariga aylantirish haqida xilma-xil fikr va mulohazalar bor. SHubhasiz yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirishning negizi ovchilik bilan bog'liq bo'lgan.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, mayda va yirik shoxlik qoramollar mezolit davridayoq qo'lga o'rgatilaboshlagan. Hayvonlarning qo'lga o'rgatish va ularni xonakilashtirish masalasida ham olimlar orasida monotsentrik va politsentrik qarashlar mavjud.

Monotsentritlarning fikricha dastlab yirik shohlik qoramol, cho'chqa, eshak, yakka o'rkachli tuya Old Osiyoda qo'lga o'rgatilib xonakilashtirilgan so'ng shu erdan er yuzining boshqa boshqa joylariga ham tarqalgan.

Politsentristlarning fikricha xar xil hayvon turlari er yuzining turdi joylarida bir-biridan mustaqil ravishda odamlar tomonidan avval qo'lga o'rgatilib so'ng xonakilashtirilgan.

YOvvoyi hayvon turlarini qo'lga o'rgatish va ulani xonkilashtirish bilan ibtidoiy chorvachilikka asos solishdi.

It, cho'chqa, echkilar SHarqiy, O'rta G'arbiy, Janubiy Osiyoda, G'arbiy Janubiy, Eropada va Afrikada qo'lga o'rgatilib xonakilashtirilgan bo'lsa kerak. CHunki mazkur xayvonda xozir ham keng tarqalgan qadimda ham ko'p bo'lgan Osiyo, Evropa va Afrikada, shak Osiyoning Markaziy Janubiy va G'arbiy rayonlarida va SHarqiy Afrikada, tuya esa asosan Osiyoning quruq iqlimli rayonlarida shimoliy va shimoliy-sharqiy afrikada xonkilashtirilgan bo'lsa kerak. Teyaning yovvoyi turi Mo'g'iliston va Markaziy

Osiyoning saxro va qo'larida hozir ham uchraydi. Ot esa asosan Osiyoning kontenital, iqlimi erlarida shuningdek Janubiy-SHarqiy va Janubiy Evropada qo'lga o'rgatilib xonakilashtirilgan bo'lishi mumkin. Chunki tosh tavridagi yovvoyi o'tningi turlari mazkur joylarda yashaganligi fanga ma'lum. Lekin nasldor otlari ibtidoiy davrda xususan brnza davrining oxiri va ilk temir asrida O'rta Osiyoda eron va unga tutash joylarda etishtirilib, shu erdan Mesopotamiya, Kichik Osiyo Falastin, Misr arabiston, Afrikaga, Evropaga va undan keyinroq Amerikaga va dunyoning boshqa joylariga tarqalgan.

Ot va eshakni biri-biri bilan chatishtirilishi natijasida sun'iy duragay xachir olish ibtidoiy davrga borib taqaldi. Bu murakkab duragaylash G'arbiy Osiyoda vujudga kelgan bo'lsa kerak. Tuyaning bir turi hisoblangan urkachsiz lama va uning kenja turi al'naka Amerikda qo'lga o'rgatilib honakilashtirilgan.

SHunday qilib, xozirgi vaqtda bizga ma'lum bo'gan uy hayvonlarining deyarli hamma turlari ibtidoiy davrda qo'lga o'rgatilib, honakilashtirilgan va ibtiodiy chorvachilik shu tariqa vujudga kelgan.

Dehqonchilik va chorvachilikning taraqqiy etishi ibtidoiy kishilarning iqtisodiy hayotda katta rol o'ynab, jamiyatda notekis rivojlanish kuchayishiga sabab bo'lgan. Bu holat ibtidoiy jamoa tuzilishining oxirlarda mulkiy tengsizlik va tabaqalar vujudga kelayotgan vaqtda yanada yoqqolroq ko'zga tashlanadi.

Neolik davrining ikkinchi yarimidan boshlab ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishi urug'chilik jamiyatining yangi tashkilotga patriarxatga lotincha pater (ota) o'tishga majbur etgan. YUqorida ta'kidlab o'tkanimizdek matriarxat va patriarxat urug'chilik jamiyati tashkilotining ikki uzviy tarixiy shakllarini ibtidoiy tarixning ikki uzviy davrni tashkil etadi. Matriarxatdan patriarxatga o'tish negizida ishlab qiarish kuchlarnig yuksalishi yotadi. Ishlab chiqarish kuchlarining o'zi nima? Moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda vosita bo'ladigan qurollari va ma'lum ishlab chiqarish tajribasiga va mehnat malakasiga ega bo'lganliklari orqasida ishlab chiqarish qurollarini xarakatga keltiruvchi va moddiy boyliklar ishlab chiqarishi amalga oshiruvchi kishilar jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Bu degani dehqonla, xunarmandlar va chorvadorlar demakdir. Bu o'g'ish avvalo xo'jalikning yuksalishida va motiga asoidagi dehqonchilikdan omoch asosidagi dehqonchilikka o'tishda o'zini ko'rsatadi. SHu munosabat bilan erkaklar endi yuqori mavqega ko'tarila boshladilar.

Ishlab chiqarish kuchlarning, xususan dehqonchilik va chorvachilikning, shuningdek, almashining rivojlanishi ayollarning mehnat sohasi bo'lib qoldi. erkaklar bilan ayollar orasidagi mehnat taqsimoti va oiladagi iqtisodiy o'zgarish ana shunday paydo bo'ldi. Bu matriarxatdan patriarxatga o'tishning eng muxim bosqichidir. Omoch

asosida dehqonchilikka o'tish va chorvachilikka o'tish matriarxatdan patriarxatga o'tishning keng tarqalgan va muhim asoslaridan biridir. SHuni ham aytib o'tish kerakki, bu o'tish etakchi ishlab chiqarish rivojlangan baliqchilik bo'lgan jamiyatlarda ham vositalarning rivojlanishi yotadi. Matriarxatdan patriarxatga o'tish konkret tarixiy sharoitda, turli otlarda turli darajada va turli vaqtda sodir bo'ldi. Bu esa ba'zi jamiyatlarning rivojlanishida o'ziga xoslik va notekis rivojlanishi.

Matriarxatdan patriarxatga o'tish nikohning va oilaning shakillarini paydo bo'lishi bilan birga sodir bo'ladi. Mazkur davrga kelib materilakal o'rnashish endilikda erkaklar gallay boshlagan ijtimoiy va xo'jalik vaziyati bilan murosasiz qarama-qarshilikka uchraydi. endilikda erkak o'zining yangi ijtimoiy vaziyatga tayangan holda matrilakal nikoo' tartibini emirib tashlaydi va xotinni o'z uyiga olib keladi. Bu patrilokal o'rnashish tartibi bo'lib, nikohning yangi yuqori shakli edi. Bolalari bilan birgalikda er va xotinning mustahkam bog'lanishi yakka nikohni monogamiyani vujudga keltirdi.

SHunday qilib katta ona oilasi o'rniga, katta patriarxal oila paydo bo'ldi. Bu jarayon qisqa vaqt ichida bo'lgani yo'q albatta. Undan matrarxatning sarqitlari uzoq vaqt saqlanib qolishidir. Patriarqatning dastlabki bosqichida oila erkak va ularning xotinlaridan iborat bo'lib, ularning bolalari ona urug'ida o'z tog'alari xuzurida yashaydilar.

Patriarxatda katta oilani katta yoshdagi erkak boshqaradi. Ayol o'z ona urug'idan qarindoshlari bilan aloqasini buzmaydi balki u erda tez-tez bo'lib, ma'lum muddatga qolib ketadi. Ayol xomilador bo'lib oy-kuni yaqinlashgach o'z ona oilasiga kelib yangi farzandini tavalludi etadi. Bu ayollarning ma'lum darajadagi mustaqilligidan darak beradi. Lekin vaqti kelib, patriarxatning ikkinchi bosqichlarida, ota matriarxatning bu qoldig'ini emirib tashlab bolalarini ham hotinini ham o'z uyida ushlab qoladi, oqibat natijada bu oila patriarxat oilaga aylanadi, urug' ham patriarxat uruqqa aylanadi. Erga va ishlab chiqarish qurollariga umumiy egalik oila xo'jaligining asosini tashkil etadi. Faqat bazilar shaxsiy bumlarni har bir kishining o'z mulki hisoblanadi. Ishlab chiqarish va iste'mol buyumlaridan foydalanish kollektiv ravishda olib boriladi. Bu vaqtga kelib katta patriarxal oila maydaroq oilalarga bo'linadi. Bundan er umumiylikiga qolib, uy-ro'zg'orlari bo'linadi. Bu patronimiya deb atalgan bir butun xo'jalik va ijtimoiy kollektivni tashkil qiladi. Erning ma'lum uchastkasi ham ularga beriladi, erda birgalikda ishlanadi, xosil esa onalar o'rtasida taqsimlanadi. Patronimilar dastlab aloxida qishloqni tashqil qilar edi. Lekin keyinchalik patriniimiyalardan iborat qishloqlar paydo bo'ladi.

Patriarxal oilalar va patrionimiyalar birlashib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan patriarhal urug' jamoasini tashkil etadi.

Patrialxal jamoasi qabilaning uruqqa berilgan eridan foydalanadi.

Mavzu: Oila va Nikoh.

REJA:

1. Jamiyatning jins va yoshlar asosida tuzilishi.
2. Oila mulki.
3. Ma'naviy madaniyat.

Ibtidoiy jamoa tuzumi buzilishining shart-sharoitlari. Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat jamiyati tarixining eng dastlabkisidir. Bu jamiyat bir joyda qotib qolgan narsa bo'lmay jamiyatning rivojlanishi natijasida mazkur jamiyat qator o'zgarishlar uchrab va inqirozga yuz tutdi, emirilib bordi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi buzilishi sababi oziq-ovqat va turli mahsulotlarni ortiqcha ishlab chiqarish bilan bog'liqdir. Bu hol odamni odam tomonidan zo'rlab ishlatish uchun zamin hozirladi.

Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish esa ishlabchiqarish kuchlari rivojlanishining oqibati bo'lib, ayniqsa xo'jalikning-dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqa asosiy tarmoqlarni o'saborishi bilan bevosita bog'liqdir.

Etnografiyaga shu narsa aniqki, baliqchilik yuksak darajada rivoj topgan xo'jaliklardan ham ibtidoiy jamoa tuzumi emirila boshlagan. Baliqchilik-oqchilik yuksak darajada rivoj topgan xo'jaliklarda ham ibtidoiy jamoa tuzumining buzilaboshlashi etnograflar tomonidan kuzatilgan. Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish va ibtidoiy jamoa tuzumining emirila borishi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarda yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Neolit revolyutsiyasi bu shart-sharoitlarning eng muximi bo'lib, xuddi shu davrda er yuzining ilg'or rayonlaridan termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan esa chorvachilikka o'tilaboshlandi. eradan avvalgi VIII-VI ming yilliklarda Old Osiyo o'lkalarida sodir bo'lgan voqea-dehqonchilik va chorvachilikka o'tish ibtidoiy jamoa tuzumining barham topishi uchun kishilik oldida dastlabki yo'lni ochib berdi. Ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi, binobarinYU dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi natijasida xo'jalikning muqarrarlighi kuchaydi, aholining soni ko'paydi, turmush darajasi ko'tarilib, sotsial strukturasi murakkablashdi, hamda ibtidoiy kishilarning psixologiyasida ham o'zgarish sodir bo'ldi. eng muhimi ishlab chiqarish kuchlarning ajralmas qismini tashkil etuvchi mehnat qurollari takomillashdi.

Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishning eng muhim shart-sharoitlaridan yana biri foydali ma'danlarini topish va undan foydalanishdir. engdi tsh asri o'rnini metall asri olib,

metallardan xo'jalikda keng foydalanish madaniyatning bundan keyingi rivojlanishicha juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Odam dastlab qanday metallardan foydalangan degan masala ham olimlar orasida tortishuvga sabab bo'lib kelmoqda.

Ko'pgina mutahassislarning fikricha odam tomonidan foydalanilgan birinchi ma'dan oltindir. Misrda er.avv. VI ming yillikka mansub neolit davri yodgorliklaridan oltindan yasalgan mayda buyumlar topilgan. Janubiy Amerikaga birinchi bo'lib bostirib kirgan portugaliyaliklar mahalliy aholi qo'lidagi qarmoqlar oltindan ekanligini ko'rganlar. Sof holda topiladigan misdan ham ancha erta foydalanilgan. Ibtidoiy kishilar tabiatda sof holda uchraydigan misdan oltin va kumushga nisbatana keng foydalanganlar.

O'rta Osiyo, Old Osiyo, Sinoy Ural, SHimoliy Amerikaning yuqori ko'l rayonlarida boy mis konlari bo'lgan.

Old Osiyo va O'rta Osiyodagi ibtidoiy qabilalar misdan foydalanganliklari ma'lum. Misr va Mesopotamiyada yashovchi qadimgi qabilalar sof holda uchraydigan meteo temiridan ham foydalanganlar.

SHuning uchun qadimgi shumeriklar temirni "osmon olovi" deb atashgan.

SHubxasiz ibtidoiy odamlar metallni jritmay ularni "tosh bolg'a" va "tosh bolta"lar yordami bilan ishlab xilma xil qurollar yasaganlar, keyinchalik esa odamlar metallarni eritish ularni bir-biriga qo'shishni o'rganib, metallurgiya sanoatiga asos solganlar. Old Osiyo va Nil vodiysida mis jritish va qizdirilib ishlash er.avv. V-IV ming yillikda vujudga kelgan.

O'rta Osiyo Xindiston va Xitoy miskarlikning eng qadimgi o'choqlaridan biri xisoblanadi. Afrikadagi ko'pgina qabilalarga ham mis ma'lum bo'lgan. Evropa mis eritish er.avv. III ming yillikdan paydo bo'lgan. Mis bo'sh bo'lganligi uchun undan pichoq, hanjar, bolta, bilakuzuk, marjon va boshqa ziynat yuumlari yasalgan. U katta, og'ir va kuchli mehnat qurollari yasash uchun yaroqsiz bo'lgan, shuning uchun ham mis ibtidoiy texnikaning asosini tashkil etgan toshni siqib chiqara olmadi. Ibtidoiy kishilar misni qalay bilan rux, bilan qo'rg'oshin va so'rma bilan qo'shib eritishdan bironza hosil qilishni o'rganib olganlar.

Bronzadan esa jangovor qurol-yarog'lar, mehnat qurollari, idishlar va bezaklar yasalgan. Bu metall sifat jihatidan misdan afzal bo'lib undan yasalgan mehnat qurollari xo'jalikda keng qo'llanaboshlagan. SHu tariqa bronza asri boshlangan. Janubiy eron, Mesopotamiyada bronza asri er.avv. III ming yillikning o'z ichiga olgan. Haqiqiy metalla asri bronza (jez) va temir kashf etilgandan so'ng boshlandiki, shuning uchun ham metall asri bronza temir davrlariga bo'linadi.

Metallani kashf qilishi va undan foydalanish xo'jalikning hamma sohalarini, eng avvalo dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishida juda katta rol' o'ynadi. Ibtidoiy dehqonchilikning dastlabki davrlarida o'rmonni kesib tozalash tosh boltalar yordami bilan amalga oshirilib buning uchun juda katta kuch va ko'p vaqt sarf etilgan.

S.A.Semenov mis boltalar yordamida o'rmonni kesib dehqonchilik maydonlari ochish ustida olib borgan tajribalar ajoyib natija berdi.

Mis bolta yordamida ochilgan er uchun sarf qilingan mehnat tosh boltaga nisbatana uch marta qisqarganligi hisobga olingan. Bronza yoki temir boltalar esa er ochish ishlarini osonlashtirgan va tezlashtirgan. Temir bolta va temir belkurak bo'lmagan taqdirda bu ishni keng miqyosda bajarish mumkin bo'lmas edi, deb yozgan edi. F.Engel's¹⁵³.

Endilikda mis, bronza va nihoyat temirdan dehqonchilik qurollari omoch dastlab ikki daryo oralig'i Misrda er.avva. IV Kritda I ming yillik o'rtalarida kashf etildi. Bronza va temir tishli ochoch dehqonchilikni rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bronza davrida Misr, Ikki daryo oralig'i, Xitoy, SHimoliy Italiya, SHvetsariya, germaniya, Daniya, Pol'sha territoriyasida er xaydov qurollari keng ko'lamda qo'llanilgan. Lekin bronza bo'sh bo'lganligi tufayli, undan omoch tishi tayyorlash yaxshi natija bermagan va haydov qurollarining tishi yog'ochigicha qolabergan. Lekin temir vujudga kelishi bu sohada katta o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lgan.

Dastlabki, omochni tortish odamlar zimmasiga tushgan bo'lsa kerak, lekin keyinchalik esa hayvonlardan tortuvchi kuch sifatida foydalanganlar. Bu hol motiga dehqonchiligidan erni haydab ekishga o'tishga olib keldi va haydov dehqonchiligi er yuzining katta qismiga tarqaldi. CHunki omoch asosidagi dehqonchilik o'zining ish unumi, xo'jalik natijasi bilan motiga asosidagi dehqonchilikdan juda yuqori turgan. CHunki u odamlarni ko'p miqdorda doimiy ovqat bilan ta'minladi. Ayniqsa sun'iy sug'orishga asoslangan qadimgi SHarq va O'rta Osiyoda haydov dehqonchiligi alohida ahamiyat kasb etdi. Temir tishli omoch orqasida ... miqyosida dehqonchilik ishi bilan, dalachilik ishi bilan shug'ullanish va shu bilan birga o'sha dvaqtdagi sharoitlar uchun amaliy jihatdan cheksiz ravishda turmush mablag'larini ko'paytirish mumkin bo'ldi.

Haydov dehqonchiligiga o'tish bilan tortish kuchiga ega bo'lgan hayvonlarga talabning ortaborishi natijasida chorvachilikni yanada rivojlantirish zaruriyati tug'ildi.

Endilikda dehqonchilik va chorvachilki muayyan territoriyanin o'zida yonma-yon rivojlanaboshladi.

Bir tomondan omoch asosidagi dehqonchilikning rivojlanishi, ikkinchi tomondan esa uy hayvonlarini urchitib ko'paytirish natijasida chorvachilikni yuksaltirish va ulardan dehqonchilikda keng foydalanish oqibatida eraka va ayollaning xo'jalikdagi

mavqei o'zgarabordi. Xo'jalikdagi asosiy ish-chorva mollariga qarshi, er xaydash uni parvarish qilish erkaklarning, uy xo'jaligi bilan shug'ullanish esa ayollarning vazifasi bo'lib qoldi. Texnika taraqqiyoti natijasida yangi-yangi ko'riklar ochilib dehqonchilik taraqqiy etabordi. Ikkinchi tomondan esa parvarishning yaxshilanishi natijasida chorva mollarini soni orta bordi. CHorva mollari sonning tobora ko'payaborishi natijasida ekin maydonlari payxon qilinib dehqonchilikka zarar keltira boshladi. endilikda xo'jalikning bu ikki buzoq tarmog'i muayyan maydonga sig'ishmay qoldi. Butiva emas ular bir-birlarining rivojlanishiga to'siqlik qila boshladi. F.Etnik ta'biri bilan aytganda oriylarda Xindistonda, Amudaryo va Sirdaryo, Don va Dnepr tekisliklariga cho'ponlik xayotiga olib keldi.

Xo'jalikning bu soxasi uchun alohida sharoit eng avvalo, o't, em-hashakka mo'l tabiiy yaylovlar zarur bo'lib qoldi. Dehqonchilik uchun esa avvalo suv va serhosil erlar talab etilar edi.

SHunday vaziyat vujudga keldiki, Qadimgi dunyoning O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy YAQIN SHarq Evropa va O'rta er dengizi atrofidagi ko'p o'lkalarda xo'jalikning bu ikki soxasi bir-birining rivojlanishiga to'sqinlik qila boshladi. Oqibat natijada chorvachilik dala dehqonchiligidan ajralib chiqib, xo'jalikning eng muhim, mustaqil sohasini tashkil etdi.

CHorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqar ekan, chorvador qabilalar chorva uchun qulay bo'lgan keng dasht, tog' old va tog'lik rayonlarga borib o'rnashaboshladilar, podalarni yaylov o'tloqlarda boqib, yarim ko'chmachilik va ko'chmanchilik hayotiga o'ta boshlaganlar. Bronza va ilk temir davriga kelib G'arbiy, Markaziy O'rta Osiyo, SHimoliy Qora dengiz bo'yi, Volga bo'yi, Orol bo'yi, Janubiy Sibir', SHimoliy Afrika va Qadimgi SHarqning dasht, tog' oldi hamda tog'lik rayonlarida yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvachilik keng tarqaldi.

Dehqon chorvachilikdan chorvachilikni ajralib chiqish mehnat taqsimotining yagona shakli emas. Kishilik jamiyati tarixida mehnat taqsimotining bundan boshqa shakillari ham ma'lumdir. etnografik ma'lumotlar shundan darak beradiki. Amerika, Okeaniyaning juda ko'p orollari, shimoliy va sharqiy yashagan chukcha evsik va boshqa qabilalarda mehnatning yirik ijtimoiy bo'lishini boshqacha shakliga ega bo'lgan. U erlarda dehqonlar bilan ovchilar, dehqonlar bilan baliqchilar, chorvadorlar bilan baliq oavlovchilar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimoti sodir bo'lan. Ijtimoiy mehnat taqsimotining mazkur shakli muayyan territoriyada yashagan muayyan qabilalarning iqtisodiy turmushdan kelib chiqib, xo'jalikning turi bilan bevosita bog'liqdir. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga ishlab

chiqarishni ixtisoslashtirishga, doimiy ortiqcha mahsulot etishtirishga, mol ayriboshlashni tartibga solishga xususiy mulkni vujudga kelishga, qullikning paydo bo'lishi va nihoyat davlatning qaror topishiga shart-sharoit tayyorladi.

Mavzu: Xususiy mulk sinflar va davlatni paydo bo'lishi.

REJA:

1. Jamoa er egaligi.
2. Harbiy asrlarni qullarga aylanish jarayoni.
3. Aholining ma'muriy bo'linishi.

Ota urug' davri dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik va xo'jalikning boshqa sohalaridagi qator siljishlar ya'ni ishlab chiqarish kuchlarning tobora rivojlanishi urug'chilik jamiyatining yangi tashkilotiga ota urug'i jamoasiga o'tish uchun zaruriy shart-sharoit vujudga keltirildi. Lekin ota urug'i jamoasi to'satdan vujudga kelmay ona urug'i quchog'ida tug'ildi. Ona urug'idan ota urug'iga o'tiish negizidan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi yotadi. Bu o'sish motiga asosida dehqonchilikdan omoch asosida dehqonchilikka o'tishda va xonaki xayvonlarni boqibparvarish qilishdan keng ma'nodagi chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi.

Bu o'zgarish sodir bo'lishda bronza va temirdan yasalgan qurollardan foydalanish ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Endilikda omochasosida dehqonchilik ham yarim ko'chmanchi va ko'chimanchi harakterdagi chorvachilik erkaklarning mashg'uloti bo'lib qoldi. Xo'jalikning bu ikki soxasining yuksalishi ortiqcha maxsulotlar ishlab chiqarilib mo ayriboshlashning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu xol xo'jalikning ajralib chiqishiga olib keldi. endilikda uy xo'jaligi bilan ayollar shug'ullana boshladilar. Oila: urug' jamoasidan barcha ayollar va bolalar endilikda xo'jalikning asosiy boshqaruvchilari-erkaklarga tobe bo'lib qolaboshladilar.

Ma'naviy, ijtimoiy va xo'jalikning hamma sohalarida erkaklar xkmron mavqeini egallay boshladilar.

SHuni unitmaslis kerakki ona urug'idan ota urug'iga o'tishning shakli va bosqichlari xilma xildir. Lekin omoch asosidagi dehqonchilikka va chorvachilikka o'tish ona urug'idan ota urug'iga o'tishning eng muhimva keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ona va ota urug'i davri btidoiy jamoa tarixining ikki umumiy-tarixiy bosqichini tashkil qilai. Xo'jalikning rivojlanishi natijasida ishlab chivarishda erkaklarning mehnati ustun darajaga etib ular asosiy o'rinni egallaganda ona urug'i o'rnini ta urug'i egallashi shubhasizdir.

Haydab ekiladigan dala dehqonchiligiga va chorvachilik ota urug'ini yuksalishida qulay imkoniyatlar keltirdi.

Xozir afrika va Avstariliya, Amerika va Okeaniyadagi patriarhal munosabatlar hukmron bo'lgan qabilalar qo'p uchraydi.

Ona urug'idan ota urug'iga o'tish nikoh va oila munosabatlarining o'zgarishiga materialaxil yoki dislaval joylashishning patriarhal joylashuviga o'rin bo'shatib berishga olib keldi. Demak ota urug'i davriga kelib nikoh yangicha shakl va yangicha mazmunga ega bo'ldi. Ota urug'i davriga kelib matriolokal va dislokal joylashuv vaqtidagi muvaqqat va u qadar mustahkam bo'lmagan juft nikoq o'rnini er va xotinning ancha barqaror va mustahkam bog'lanishiga ega bo'lgan monogamiya bir nikohlikka asoslangan oila shakli vujudga kela boshladi va tobora mustaqkamlandi.

Nihoyat ilgarigi matriarxat oilalar rniga ota urug'i davrining yirik patriarxal oilalari tashkil topa boshladi. Ota urug'i o'zining patriarxal va snggi bosqiyaga o'tgach matriarxal tartibini emirib tashlaydi. er o'z bolalari va xotinini o'z urug'i o'z uyida olib qoladi va bu oila patriarxal oilaga aylanliyu ayol va uning bolalari o'zi tug'ilgan oila, qarindosh va butun urug'dan aloqani uzib patriarxal oilaning uy xo'jaligida huquqsiz mehnat quchiga aylanadi, xotin va bolalar shu oila boshlig'ining qo'l ostiga o'tadi. SHu tariqa oilada onalik huquqi mag'lub bo'lib, otalik huquqi g'olib bo'lib qoladi.

Monogramiyaga o'tish natijasida er-xotin orasidagi nikoh mustahkamlanadi va ularning bir-biridan ajralii ancha mushkullashadi. etnografik va tarixiy adabiyotlarda katta patriarxal uy jamoasi nomi bilan masho'ur bo'lib, u bir otaning 3-4 avlodidan iborat eng yaqin qarindosh-urug'lari, ularning xotin va bolalari, oila doirasida yashovchi kuyqlari va oilaga qabul qilingan uzoq yaqig qarindoshlardan tarkib topgan, yangona xo'jalikka birikkan guruhlar majmuasidir. Bunday patriarxal oilalarda odam soni yuz va undan ortiq bo'ladi.

Ishlab chiqarish predmeti va ishlab chiqarish vositalariga umumiy egalik qilish patriarxal oila xo'jaligining pnegizini tashkil etib, ayrim shaxsiy buyumlargina (kiyim bosh, ayrim quollar) u yoki bu kishini shaxsiy mulki hisoblanadi. Ammo ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarilgan narsa iste'mol buyumlari oila jamoasiga barobar taqsim qilinadi.

Patriarxal oila jamoasi jamiyatining asosiy negizini tashkil etgan, oiladaga jng keksa erkak oida jamoasidagi barcha katta yoshdagi a'zolari bilan maslahatlashib uy jamoasining hamma ishlariga rahbarlik qilgan. Uy jamoasining butun a'zolari hamma uchun turar joyda istiqomat qilib, bir qozondan ovqat eganlar.

Lekin aholi sonining tobora ortib borishi ishlab chiqarishning yuksalishi va xo'jalik tarmoqlaridagi ishlarning tobora murakkablashuvi natijasida uy xo'jaligini boshqarish ancha og'irlashadi. Natijada oila jamoasi ayrim-ayrim guruhlariga bo'linib ketadi va alohida xo'jalik bo'lib yashay boshlaydi. Patriarxal oilaviy jamoaning bo'linishi natijasida paydo bo'lgan qon-qarindosh oilalar kattalashib borib bir butun xo'jalik va ijtimoiy kollektivni tashkil etgan patranomiyalarga aylanadi. Patranomiyaning asosiy mohiyati va xo'jalik birligi asosini patriarxal oila kabi erga umumiy egalik qilish va undan umumiy foydalaish tashkil etadi.

Patranomiya alohida qishloqni tashkil etib, o'zini o'zi idora etadi, o'z kengashiga, o'z boshlig'iga ega yuo'ladi. Ular birgalashib mehnat bir-birlariga ko'maklashadilar.

Patriarxal uy jamoasi va patranomiyalar birlashib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan patriarxal urug' jamoasi qabilaning ular uchun ajratilgan ekin eralridan qabila uchun umumiy bo'lgan o'tloq, o'rmon, tog', daryo, ko'llardan, barbar foydalniladi. Uruqqa berilgan er shatronomiyalar o'rtasida vaqti-vaqti bilan taqsimlanib turiladi.

Dastlab patriarxal urug' jamoasini boshqarish xalqchil harakterlarga ega bo'lgan.

Patriarxal urug' jamoaisni urug'idagi bosh paronomiya boshqarish urushdagi bshoqa patronomiya va oilalarning boshliqlaridan saylangan kishilar urug' kengashini tashkil etadi.

Urug'ning barcha katta yoshidagi e'lonlari bazi muhim masalalarini hal etishda qatnashadilar.

Bu davrning eng muhim xususiyati, shuki, undan ezuvchi xalq ezuvchi ham, yo'q bo'lib umumi manfaat shaxs manfaatidan ustun turadi, hokimiyat esa urug' ichidagi katta yoshdagi, tajribali, obro'li shaxs tomonidan boshqariladi. Ibtidoiy davrning eng katta, eng yirik etnik birlashmasi qabila bo'lib, u urug'larning o'zaro birlashuvidan tashkil topgan. Qabilaning ham xo'jalik ijtimoiy va mafkuraviy masalalarni hal qilishda o'z qoida qonuni mavjud. Qabilani urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengashi boshqargan. Kengashdagi eng keksa, obro'li tajribali, aqilli tadbirkor kishini qabila boshlig'i qilib tayinlaganlar.

Qabila uchun aloqador bo'lgan masalalar urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengashda hal qilingan.

Qabilada ham urug'larda bo'lgani kabi ezuvchi ham, eziluvchi ham, zolim ham, zulm ham ko'ruvchi ham bo'lmagan. CHunki buning uchun hech qanda iqtisodiy va siyosiy xamin yo'q edi.

Mavzu: Ma'naviy madaniyat.

REJA:

1. Jug'rofiy tasavvurlar.
2. Tabiat haqidagi bilimlar.
3. Piktorgafiya yozuviga o'tish.
4. Monomental me'morchilik.

Ishlab chiqarish kuchlarning rivojlana borishi mehnatning birinchi va uchinchi taqchisoti va boshqa qator sabablar jamiyat ichida katta o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bu hol oqibat natijada ibtidoiy tuzumning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon patriarxal jamiyatning asosiy negizini tashkil etgan katta oilalarga ta'sir etib, ular kichik-kichik mustaqil oila bo'lib ajraliyu chiqa boshladilar. Mustaqil xo'jalik yuritaboshladilar. Katta patriarxal oilalarning mayda oilalarga bo'linib ketishi, xo'jalik jixatidan mustaqillikka va erkinlikka intilishlari xususiy mulkning vujudga kelishi uchun zamin xoziradi va oqibat natijada uni vujudga keltiradi.

Xususiy mulkning vujudga kelishi masalasi ibtidoiy jamiyat umuman bashariyat atrixi bilan shug'ullanuvchi barcha olimlar oldida turgan jng muhim masalalardan biridir. Xususiy mulkning kelibyu chiqishi masalasida reaksion burjua olimlari qator "nazariya"larini ilgari suradilar. Ularning fikricha xususiy mulk azaliy va tabiiy emish.

Ular qoloq qabilalardagi ba'zi shaxsiy buyuk, yog'och va turli tuman bezaklarni xususiy mulk deb biladilar. Burjua fani shaxsiy mulk bilan xususiy mulkning negizida qo'shimcha maxsulot yotadi.

Eng avval qaysi narsalar, nimalar xususiy mulkka aylangan degan masala olimlarni qiziqtirgan. Bu masalada hali olimlarning fikr-mulohazalari bir xil emas. Bi'zilar chorvani eng dastlabki xususiy mulk desalar, oshqalar erni va bo'lak narsalarni eng dastlabki xususiy mulk bo'lgan dedilar.

SHuni aytish kerakki, kaerda xo'jalikning qaysi tarmog'i rivojlangan bo'lsa, mazkur xo'jalik etishtirgan maxsulot shu joyda xususiy mulkning ramzi bo'ladi.

CHorvachilik rivojlangan rayonlarda chorva molarining dastlabki xususiy mulkka aylanganligi shak-shubxasizdir. Xo'jalikning asosini dehqonchilik, bog'dorchilik tashkil etar ekan, demak, u joylarda er xususiy mulkning manbai bo'lib qolgan. Demak ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi yirik patriarxal oilalar emirilib uning o'rniga kichik oilalar maydonga keldi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida kichik oila jamiyatning asosiy xo'jalik va ijtimoiy tashkilotiga aylandi. Mol-mulk chorva, er va boshqa narsalar kichik oilalar ixtiyoridagi xususiy mulkka aylanadi. Oila boshlig'i esa oila ixtiyoridagi, er, suv, sorva, o'z xotini bolalari ustidan ayni vaqtda ularning mexnati ustidan cheksiz huquqga ega bo'lgan hukmron shaxsga aylandi. SHunday qilib xususiy mlukchilik kelib chikdi.

Kichik oilada ishlab chiqarishning ham deo'qonchilik, chorvachilik ayrboshlash va boshqa sohalarining yuksala borishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talab kuchayabordi. Kichik oila katta xo'jalik yuritaboshlash natijasida oilada kishilarning ish kuchi kifoya qilmay qoldi. endilikda xo'jalik ishlarini olib borish uchun tashqaridan qo'shimcha yangi ishchi kuchi kerak bo'lib qoldi. Bunday ishchi kuchni o'zga qabilalar bilan olib borilgan urushlar vaqti asr olingan kishilar tashkil etib, ular qullarga aylantirilgan, ular mexnatidan turli xo'jalikning turli sohalarida foydalanilgan. SHuni ham aytib o'tish kerakki, harbiy asrlar qo'shimcha ishchi kuchi qulning yagona manbai emas. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilayotgan so'nggi bosqichiga klib, iste'mol buyumlarini taqsimoti o'zgarib, ba'zi kishilar nochor ahvolga tushib qoladi. Natijada qarsh olish paydo bo'lib, qarzni o'z vaqtida yoki umuman to'lay olmaslik qaramlik va asoratga olib keladi. SHunday qilib qul va qulchilik vujudga keldi. Qulchilik ba'zi joylarda matriarxatning so'ngi bosqiyalaridayoq vujudga keldi, ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlariga uning tanazzulga yuz tutgan davrida biroz rivoj topdi. Lekin bu davrdagi qulchilikni klassik qulchilikka taqqoslab bo'lmas edi. CHunki u hali xo'jalik sistemasiga ishlab chiqarining alohida vositasiga aylanmagan edi. Ular o'z mulklariga ega bo'lish bilan birga, yu'zi shaxsiy huquqlarga ham ega edilar. Ibtidoiy jamoa tuzumi emirilayotgan bir sharoitda hamma oilalar boylik jihatidan bir hil emas edilar. Ba'zi oilalar sermulk, badavlat, ba'zilari o'rta xol, ayrimlari esa kambag'alroq edilar. Ko'rinib turibdiki, bu davrga kelib oilalar, urug'lar va qabilalar jamoasi ichida ham mulkiy-tengsizlik vujudga keldi. Mulkiy tengsizlikda esa jamiyatni boy va kambag'al tabaqalarga bo'lib yubordi. Bu ziddiyatlar esa ular orasidagi to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi xususiy mulkning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi bilan jamiyatning bir necha qarama qarshi toifalarga bo'linish ibtidoiy jamoa tuzumining negizida dastlabki quldorlik davlatlarini vujudga kelishi uchun asos yaratdi. Ibtidoiy jamoa tuzumi so'nggi davrda urug' jamoalari tarqalib qo'shni jamoalar vujudga kelaboshlaydi. Urug' jamoalarining ko'chishi boshlanadi. YOki ular borib o'rnashgan erga o'za joylardan o'zga uruqqa mansub odamlar guruhi kelib o'rnasha boshlaydi. Bu qo'chishlarning urug'larning dastlabki teritorial birligini tuzib yuborib, turli urug'lardan tashkil topgan aralash qishloqlarni vujudga keltiradi. Bu qo'shni jamoalar edi.

SHu tariqa qong'qarindosh urug'chiligiga buzilib qo'shni jamoalar paydo bo'ladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bu jamoasi, chorvadorlarda esa ko'chmanchilar jamoasi nomini oladi.

Qishloq jamoasi ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Qishloq jamoasi dualizm-ikki tomonlama harakterga ega edi. Bu ikkiyoqlama qishloq jamoasida

ayni bir qatning o'zida ham xususiy ham ijtimoiy mulkning mavjud ekanligi bilan harakterlanadi. Erni yakka-yakka ishlash undan hosilni xususiy o'zlashtirish hayvonlar qishloq xo'jalik buyumlari qullar, "uy va uning qo'shimcha qismi-hovli" xususiy mulk, xisoblanib ekiladigan er, o'tzorlar, o'tloq, yaylovlar, o'rmonlar, tog'-toshlar va suvlar umumiy mulk hammaga tegishli bo'lgan.

Lekin qishloq jamoasi ham barqaror bo'lmay, ham keyinchalik o'zgarishga uchragan.

Qo'shni qishloq jamoasidagi dualizm uning umumiy mulkdan xususiy mulkka o'tish formasi bilan izohlandi. Lekin qadimgi sharqning sug'orma dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarida qishloq jamoalari nisbatan barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar. CHunki sug'orma dehqonchlikka asoslangan mamlakatlarda kanalra, qazish sug'orish inshootlarini qurish va ularni tartibga solib turish hamisha, hamma vaqt birgalikda mehnat qilishni taqozo etar edi. SHuning uchun ham bunday mamlakatlar uchun qo'shni qishloq jamoasining ahamiyati katta edi.

Mavzu: Tillar va etnoslar.

REJA:

1. Qabilalararo birlashmalar.
2. Tillarning o'zaro ta'siri.
3. etnik birlashmalrning qadimiy halqlarga aylanish jarayoni.
4. Til va etnik vaziyat.

Xususiy mulk va mulkiy tengsizlikning vujudga kelib kuchayaborishi qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu xol urug' jamoa va qabilalar orasidagi munosabatlarini ular orasida qator-qator qilishmovchiliklarni vujudga keltirdi. Bu kelishmovchiliklar esa qabilalar-aro urushlarni kuchayishiga sabab bo'ldi. Ilgari chegarani himoya qilish, o'ldirilgan qabilalar, urug' a'zolarining xunini olish uchun urushlar olib borilgan bo'lsa, endilikda urush talonchilik boylik orttirish va qo'lga kiritishning asosiy manbaiga aylandi. Urushda g'olib chiqqan qabilalar, qo'lga tushurgan xazina, qurol, chorva va boshqa qimmat baho buyumlarni o'lja qilib olar, erkin aholini esa qo'l qilib haydab ketar edilar, aholi sonning orta borishi bilan esa engilgan qabilalarning ekin erlarini, ajoyib o'tloqlarini hayvonot olamiga boy bo'lgan ov qilish maydonlarini ham tortib olar edilar.

Talonchilik, bosqinchi qabilalarga mashaqqatli mehnatdan ko'ra osonroq va xatto sharfliroq bo'lib ko'rindi. Demak o'sha davrdagi harbiy yurishlar, harbiy texnika va harbiy tashkilotlarni qayta qayta ko'rishni talab etar edi.

Jangovor va mudofaa ahamiyatga ega bo'lgan nayza, oybolta, cho'qmor, qilich, dubulg'a, qalqon, xanjar kabi qurollar o'sha vaqtlarda paydo bo'ldi va takomillashaborgan. Dushman hujumidan saqlanish uchun qishloqlarni atrofi qalin devor, ko'tarma va xandaq kabi mudofaa inshootlari bilan ihota qilina boshladi.

SHunga muvofiq urush harakatlari, uning taktika va strategiyasi o'zgarib murakkablasha boshladi. Axolining borgan sari zich bo'lib yashashi talonchilik urushlari, o'z-o'zini mudofaa qilish qator ichki va tashqi sabablar hamma erda qarindosh qabilalar ittifoqini tuzish zarurayati taqozo etdi. Qabilalar ittifoqi, ular orasidagi iqtisodiy siyosiy va madaniy munosabatlar esa turli qabilalarning bir-biriga qo'shilib, aralashib ketishi natijasida jamiyatda yangi ijtimoiy shakl-xalqlar vujudga keldi. Dastlab harbiy yurishlari vaqtida qabila boshlig'ining o'zi barcha ishlarga rahbarlik qilgan. Lekin urush harakatlarining kuchayishi va urush texnikasining takomilashuvi natijasida alohida harbiy boshliqlar ajralib chiqaboshlaydi. Bu harbiy boshliq yoki lashkar boshi atrofida esa kuchli, botir ephil va sadoqatli jangchilardan tashkil topgan askarlari bo'lgan.

Qabilan tashqi dushmanlardan muvaffaqiyatli ravishda mudofaa qilish va talonchilik urushlari va xarbiy sohada olib borilgan boshqa ishlar lashkarboshilarning obro'-e'tiborini oshirib yuboradi. Qo'shni qabilalar ustiga bosib borish, talonchilpk urushlari natijasida hisobsiz o'ljalar va asirlar qo'lga kiritilgan. SHubhasiz bu o'lja va asirlar g'oliblar orasida taqsimlanib, boylik va asirlarning katta qismi harbiy boshliqqa tekkan. SHunday qilib g'olib kelgan lashkarboshilar va askarlar o'zga qabila va xalqlarni talash yo'li bilan boyib ketaboshlaganlar.

Endilikda ilgari xalq lashkarboshi qabila uchun zarur bo'lgan mansabdor kishiga aylana boshlaydi. Xalq majlisi bo'lmagan joyda xalq majlislari paydo bo'lib, maxlq majlisi, lashkarboshi, oq soqollar kengashi harbiy deomraktiya deb atalmish tashkilotni tashkil etadilar.

Xalq yig'inida 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar ya'ni xarbiy yoshdagi kishilar qatnashar edi. Unda yo'lboshchini, demokratik muassasi hisoblangan xalq yig'ilishi va oq soqollar kengashi saylab qshyar edi. Harbiy demokratiyaning demokratik deyilishining sabab ham shundadir.

Xalq yig'ilishi harbiylar yig'ilishi ham edi. Unda xalq lashkarboshisining ta'siri kuchli bo'lib, endilikda urushning o'zi va urash olib borish uchun uyushish xalq turmushining muntazam funksiyalariga aylandiki, shuning uchun ham u harbiydir. Harbiy demokratik tushunchasini tarix faniga olib kuirgan kishi L.G.Morgan bo'lib, u rug'chili tuzumning so'nggi bosqichi davridagi jamiyatni boshqarish tashkilotini "harbiy demokratiya", deb atagan.

Normalar, qadimgi germanlar, kel'tlar, skiflar, jamiyatining qadimgi Rimning podsholik davri va Gomer davridagi grek jamiyati xarbiy demokratiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

SHunday qilib, harbiy demokratiyaning vujudga kelishi talonchilik urushlari, qabilalararo munosabatlar, savdo sotiq ayriboshlashning kuchayishi xususiy mulkchilik, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalar va davlatning kelishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida tabaqasiz jamiyat o'rniga tabaqali jamiyat va yuqori ijtimoiy toifalarning manfaatlarini himoya qiluvchi davlat vujudga keldi.

Ijtimoiy tabaqalar va davlatning vujudga kelishi masalasi tarix fani oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mehnatning birinchi ikkinchi va uchinchi yirik ijtimoiy bo'linishi talonchilik urushlari, urug' qabila va qabilalar orasidagi tashqi va ichki munosabatlar ijtimoiy tabaqalar va ilk davlatning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratdi. Natijada uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa tuzumi o'rnida dastlabki quldorlik davlatlari vujudga keldi.

Lekin ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi va dastlabki davlatlarning vujudga kelishi er sharining odam yashaydigan joylarida ayni bir vaqtda emas balki turli sharoitda shu bilan birga turli davrlarda vujudga keldi.

Jamiyat erdor, mulkdor, yirik chorvador, katta boylikka ega bo'lgan guruhlar va qullar, kambag'allar ozod kishilarga bo'linib ketar ekan, ular orasida kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatlar ham vujudga keldi.

Endi ibtidoiy dardagi xalqchil boshqaruv tashkilotlar-urug' qabila va xalq kengashlari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Tabaqaviy jamiyatni boshqarish tashkilotlari vujudga keldi. Ibtidoiy javrdagi urug' qabila oq soqollari ayniqsa xarbiy boshliqlar va ularning homiylari o'z davrining nufuzli aslzoda zodagonlari xukmron doiralariga aylana boshladilar.

Urug' qabila zadogorlari asta sekin xalq ommasidan uzoqlashib, ularni ezuvchi guruhlariga aylanadilar. Nufuzli, bdavlat kishilar atrofida jangchi, ruhoniylar va boshqlardan iborat sodiq kishilar guruhi to'planadi. Bu dastlabki tizimining apparatining ko'rinishi edi.

Davlat va ijtimoiy tabaqalarnig kelib chiqishi masalasida turli hil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar va din xomiylari uni azaldan mavjud deb talqin qiladilar.

Olimlarning ba'zi namoyondalari bu masalada zo'rlik nazariyasi bilan maydonga chiqdilar.

Zo'rlik nazariyasining tarafdorlari ijtimoiy tabaqalar va davlat, faqat istilolar natijasida vujudgake kelgan, deb sharxlaydilar. Ularning fikricha istilochi talonchilar

nufuzli hukmron tabaqani tashkil etib istelo natijasida asir olinib qulga aylantirilgan kishilarni o'z qo'l ostilarida saqlab turish uchun davlat barpo etgan emishlar. Bu nazariyaga ko'ra hukm chiqarilsa davlat u yoi bu xalq turmushiga, qabilalar ittifoqiga tashqaridan kirib kelgan bo'ladi.

Istilolar va zo'rlik ijtimoiy tabaqa va davlatning vujudga kelishi uchun hech qachon asosiy omil bo'lmagan emas. SHuning uchun ham zo'rlik nazariyasi ham amaliy ham mantiqiy jihatdan noto'g'ridir.

Demak tabaqalar va davlat ibtidoiy jamoa tuzumining buzilishi natijasida uning xarobalarida vujudga keldi. Dastlabki davlatlar quldorlik davlatlari bo'lib dastlab kichik, kuchsiz edi, bora bra ular kengayib qudratli quldorlik davlatlariga aylanadi.

Davlat paydo bo'lishi bilan bir vaqtda hukmrontoifalarning manfaatlarini ximoya qiluvchi qoida-qonunlar vujudga kelib, shunga muvofiq idora tashkilotlari ham joriy qilindi.

Ishalb chiqarish kuchlari, geografik muxit, ichki, tashqi va boshqa qator sabablarga muvofiq davlat er yuzining hamma joylarida bir vatda emas, balki turli davrlarda vujudga kelgan.

Dastlabki tabaqaviy jamiyat-ya'ni ilk davlatlar mesopotamiya va misrda milddan avvyu IV ming yillikning ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan.

III ming yillikning oxirlariga kelib Xindistonda Ham eng dastlabki davrlarda vujudga kelganini kuzatish mumkin. Miloddan avvalgi II ming yillikda esa Kisik Osiyo, Janubiy Arabiston, Urartu va egey dengizi xavzasidagi o'lkalarida qator katta kichik davlatlar tashkil topadi. Xuddi shu davrda Xitoyning Xuanxe daryosi va unga tutash bo'lgan o'lkalarda dastlabki davlatning vujudga kelgan. eron, O'rta Osiyo, Kavkaz Evrosiyo, Janubiy Sibir' erlarida ilk tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi. Milodan avvalgi II ming yilning oxiri va I ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Evropaning ba'zi joylarida tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, ba'zi joylarida esa milodning boshlariga to'g'ri keladi.

YAngi Dunyo-ya'ni Amerikaning ko'pgina qabilalari ham bu jarayoni o'z boshlaridan kechirganlar.

Lekin Amerikada tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi Osiyo, shimoliya-sharq Afrika, Janubiy Evropa o'lkalaridan birmunsa keyinroq sodir bo'ldi.

SHuni ham unitmaslik kerakki, Amerika, Afrika, Okeaniya va boshqa joylarda ijtimoiy tabaqa nima ekanligini davlat nima ekanligini bilmaydigan qabilalar ham xozirgacha uchraydi.

SHunday qilib beshta tarixiy davrning eng dastlabkisi ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati tarixining juda katta davrni tashkil etib, u ba'zi joylarda mil.avv. ekan, joylarda esa mil.avvalgi II-I- ming yilliklargacha davom etdi. Ammo er yuzining ba'zi joylarida bu jarayon XV-XVI asrlargacha davom etib keldi.

Lekin hozir ham tabaqa sinf, davlat, tabaqaviy qarama qarshilik ekanligini bilmaydigan qabilalar Afrika, Oksaniya va Amerikaning ba'zi janubiy rayonlarida uchraydi.

Mavzu: Urug' jamoaning parchalanish davri.

REJA:

1. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning yuksalishi.
2. Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi.
3. Mehnat qurollari.
4. Birinchi mehnat taqsimoti.

Xozirgi jismoniy tipdagi odamning etilishi va urug' jamoa tuzumining vujudga kelishi faqatgina sotsial sohasidagini emas, balki ibtidoiy kishilar ma'naviy hayotni rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratdi.

Ilk urug'chilik tuzumidan boshlab ishlabchiqarish kuchlarinig rivojlana borishi bilan bir qatorda, insonda yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida kishilarning tafakkuri va tili rivojlanib ularning so'z boyligi ham ortabordi.

YAngi-yangi so'zlar paydo bo'lib, ularning mma'naviy mazmuni boydi, so'zlarning bir-biri bilan mantiqiy bog'lanishi natijasida sintaksisi ham rivoj topaboshladi.

U yoki bu vokeani, fikrni o'zgalarga tushuntirishda so'zlashuv odamlar orasida munosabatning asosiy negizini tashkil etaboshlaydi. Lekin ibtidoiy davrda fikrni anglatishning boshqa bir sodda usuli ham mavjud bo'lib u "signallar tili" deb atalagan. "Signallar tili"da biror xabarni aniq belgilar yordami bilan ifoda qilinadi. Buni Avstraliya, Akeaniya, Afrikadan va boshqa qabila, elatlar hayotidan olingan etnografik materillar ham tasdiqlaydi. Mahalliy avstraliyaliklar bir joydan ikkinchi joyga ko'chganlarida qumg oyoqlari bilan chiziq chizib, uning uchiga xivich tiqib ketadilar. CHiziqning yo'nalishi va uning uchiga uzunligi ketuvchi guruhlarining qaysi tomonga va qacha masofaga ketganligini bildiradi. Bu mazkur guruhning kechikib qolgan a'zolari va qo'shni guruhlar uchun shartli belgisi edi.

"Signalalar tili" hozirgi zamon qabila va xalqlar xarakterli bo'lib SHimoliy qabilalar xabar, fikr yoki qandaydir tuyg'uni ifodalash uchun "simvollar tili" yoki "belgilar tili"dan keng foydalanishgan.

SHimoliy Amerika Xindilarida tomaguk (so'yil) yuborish urush e'ron qilishning simvolik belgisi hisoblangan.

Tamagauk dushmanga maxsus elchi orqali yuorilgan. elchi tomagaukni dushman qarorgoxiga borib erga qo'ygan. Agar dushman tamon tomogaukni erdan ko'tarsa urushga rozi, tomagaukni ko'masa suyak tuzishga moyil ekanligi tushunilganyu

Tarix otasi Gerododning xabariga ko'ra eroniylar skiflarning erlariga bostirib kelganlar. SHunda skiflar eroniylarga kush, sichqon, qurbaqa va beshta o'q-yoy yuborganlar. Bu ramziy belgining ma'nosi quyidagicha edi. "Agar siz eroniylar qush singari osmonga uchmasangiz, sichqon singari kavakka bekinmasangiz yoki qurbaqa singari qo'lga saqrab, suv ostiga yashirinmasangiz elingizga qayta olmaysiz va bizning o'q-yoylarimiz ostida qirilasiz".

SHunday qilib "signallar tila" va "simvollik tillar" o'z davri uchun muhim madaniy-tarixiy rol' o'ynab iqtisodiy harbiy va mudofaa ishlarida katta ahamiyat kasb etgan.

Tabiiki ibtidoiy odamning turmush sharoiti o'zi yashab turgan joyni va tevara atrofni yaxshi o'rgnishni taqozo etgan. Odamlar o'z atroflarini o'rab turgan muhitni bilmay turib tirikchilik qila olmas edilar albatta.

Etnografiya ma'lum bo'lgan Avstraliya, Janubiy Amerika, Afrika va boshqa joylarda istiqomat qiluvchi xilma-xil qabilalar o'zlari yashab turgan joydagi xayvonlar va o'simliklar dunyosin yaxshi biladilaryu lar tilida har bir hayvon va o'simlikning o'z nomi bo'lgan.

Bugina jmas ular loy, tuproq va kum ustida qoldirilgan izlar qaysi xayvonga xos ekanligini osonlik bilan aniqlaganlar. Ularga o'sha erda yashaydigan xayvonlarning fe'l-atvori ham yaxshi ma'lum bo'lgan. Xuddi shunday-kuzatuvchanlik ibtidoiy odamlarga ham xos bo'lganligi shak-shubxasiz.

Demak xulosa qilib aytish mumkinki tilshunoslik, geografiya, botanika, zoologiya, iqlimshunoslik va boshqa fanlarning negizi o'rganaboshlash kishilkining ibtidoiy davriga borib taqaladi.

SHak-shubxasiz ibtidoiy kishilar "oltin davrda" emas juda og'ir sharoitda yashagan. U davrda kasallik keng tarqalib kishilar 35-40 yoshdan nariga o'tmay o'lib ketishgan.

Lekin inson kasalligini oldin olish choralarini ham qidirgan. Bu esa dastlabki, sodda tabobat ilmining kelishiga sabab bo'lgan. Qiyosiy etnografik materiallar shuni ko'rsatadiki hozirgi er yuzining turli eralarda yashayotgan qoloq qbilalar kasallarni davolashda xalq tabobatidan keng foydalanadilar. Ibtidoiy davr tabiblari muolida

qilishning oddiy usullarini qo'llab chiqqanYU singari suyaklarni joylash, jaroxatni davolash va og'rigan tishlarni sug'irib tashlashni bilganlar.

Undan tashqari ibtidoiy kishilar shamollash, ilon chaqqani davolab ba'zi sodda xirurgik operatsiyalarni bajarganda. Lekin xirurgiyada soda tibbiy usullaridan tashqari davolashning yaxshiy usullaridan foydalanganlar. Bosh og'rig'ini kalla suyagini kesib ochish yo'li bilan davolashga urunganlar. Ibtidoiy tabobat silash, uqalash, issiq, souvq kompres va bug'li hammom kng foydalanganlar. Ibtidoiy kishilar tibbiy davolash davolash vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, maxsus tayyorlangan tarkibiy qaynatma, suriladigan, kukun va suyultirilgan dorilardan keng foydalanglar. SHuni aytib o'tish kerakki qadimgi O'rta Osiyo, O'rta va YAqin SHarq, Xitoy Amerika va Evropa qabilalari mazkur rayonlarda o'sadigan o'simlik va evvoyi mevalarning ayrimlaridan turli doirdarmonlar tayyorlab ulardan davolash maqsadida foydalanganlar. Bu xoldorishunoslikning ham negizi ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqalishini ko'rsatadi.

SHunday qilib hozirgi zamon tabobat faniga O'rta asrlarda feodal yoki alimgi quldorlik davrila emas, balki kishilk jamiyati tarixining ibtidoiy davrida eng dastlabki podenvor toshi qo'yilgan ekan. Ibtidoiy san'at. San'at ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib ibtidoiy jamiyat tarixining tngida emas, balki ancha keyinroq vujudga kelgan, degan fikr keng tarqalgan.

Lekin ibtidoiy san'atning kelib chiqishi masalasi haqida olimlar orasida kuchli tortishuvlar mavjuddir. Olimlarning bir guruhi san'atni dinga, afsungarlikka va totalizmga bog'laydilar. Olimlarning boshqa bir guruhi "san'at uchun" degan mantiqsiz nazariyaga yopishib olib, san'atni kishilk jamiyati hayotidan ajratib qo'yishga urindilar va erishmoqdalar. Ibtidoiy san'at va uning kelib chiqishini tushunishida. G.V.Plexanovanning "Adressiz xat" maqolasi muxim ahamiyatga egadir. Keyigi vaqtda er kurrasining turli joylaridan kishilikning ibtidoiy davriga mansub bo'lgan ko'pgina san'at obidalarini topildi. Ilg'or fikrli olimlar ibtidoiy san'atning barcha turlari o'z mohiyati va mazmuni bilan shakshubxasiz insonning mexnat faoliyati bilan uning izchil tafakkuri, kayfiyati va fikr-mulohazasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ibtidoiy san'atning vujudga kelishini o'ziga xo shart-sharoiti bo'lib ibtidoiy kishilarning ongi ma'lum darajaga etaboshlagach vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'at to'satdan, birdaniga vujudga kelmagan albatta. U mehnat jarayonida vujudga keldi va rivojlanib kamol topdi.

Million, necha yuz ming yillar davomida ibtidoiy insoning ong tafakkuri mehnat bo'lgan munosabati, malakasi rivoj topdi va o'zgardi. Bu hol o'z-o'zidan ibtidoiy san'atning vujudga kelishi uchun zamin xozirlagan edi. San'atning vujudga kelishi kishilki madaniyati tarixida olg'a tashlagan katta qadam edi.

Arxeologik qazilmalardan shu narsa ayonki kishilarning ibtidoiy to'da davrida san'at, din va ma'naviy-madaniyat mavjud bo'lmagan.

Ma'naviy madaniy, uning bir turi hisoblangan san'at kishilki jamiyatning ancha keiyngi bosqichida urug'chilik tuzumining shakllana boshlagan. Chunki bu vaqtga kelib odamlar tafakkur, til, atrofni bilish, narsalarni farqlash, qurol ishlash, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlashda ma'lum darajada muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ibtidoiy san'at hozirgi zamon kishisiga oddiy ko'rinadi. Lekin ibtidoiy inson tomonidan yaratilgan ilk san'at ko'p qirrali bo'lib, tosh, loydan ishlangan odam hayvon haykalchalar oxra bilan chizilgan rasmlar, toshga, suyakka va boshqa bumlarga, o'yib chizilgan xilma-xil rasmlar ibtidoiy san'atning eng dastlabki namunalari xisoblanadi. Bu jihatdan qora, qizil, sariq, yashil bo'yoqlar bilan chizilgan mamont, yovvoyi ot, arslon, fil, bug'i, yovvoyi echki, karkidon yovvoyi sigir, buqa, to'ng'iz kabi boshqa yovvoyi hayvon va narsalarning tasvirlari ayniqsa diqqatga sazovodir.

Tosh asrining so'nggi bosqichlarida, ayniqsa, mezolit (o'rta tosh asri) davrida ishlangan ibtidoiy tasviriy san'atning Al'tamira, Nvo, Uch barodari, Pinedel, Saxro Kabir, Kapova g'ori, Lena Enisey, Ob', Amur, Alyaska, Saxalin, Mug'iliston, O'zbekistondagi Zarautsoy, Tojikistondagi SHaxta g'ori, Bittik chashma, Qirg'izistondagi Sari-jaz va er yuzining turli joylaridan topilgan boshqa namunalar ayniqsa diqqatga sazovordir. Ibtidoiy davrda oxaktosh, mergel' kabi yumshoq toshlardan ba'zan ayol va erkaklarning tasvirlarini ishlash odat bo'lagan. Er yuzining turli joylaridan, xususan sobiq SSRdagi Gagarino, Kostyonka, Mal'ta va boshqa erlaridan topilgan haykallar shular jumlasiga kiradi. Ayollarning tasviri ayniqsa realistik tarzda bo'lib, ularning onalik va jinsiy belgilari ayniqsa bo'rttirib ko'rsatilgan. Lekin tosh asridagi rassmolardan ko'p narsa kutib bo'lmas edi albatta. U davrda ishlangan qoya tosh suratlari odam haykalchalari o'zining soddaligi bilan ajralib turardi. Lekin ijodiyotning eng dastlabki ilk namunasi va tasviriy san'at sohasidagi dastlabki qadam edi. Uning madaniy tarixiy ahamiyatga ham shunda edi.

Bu xol keyingi davr tasviriy san'ati uchun dastlabki poydevor toshi xisoblanadi.

Qo'shiq ertak, muzika, maqola va xalq ijodiyotining boshqa turlari btidoiy san'atning ajralmas qismini tashkil qiladi. Qo'shiq erak, maqol, matal va boshqalarning vujudga kelishi ham kishilkining ibtidoiy davriga borib taqaladi.

San'atning xilma-xil turlari singari xususan muzika ham mehnat jarayonida vujudga kelganligi shak-shubxasizdir. XIX asrning oxirlarida yashagan nemis Karl Byuxer muzika meniat jarayonida paydo bo'lgan, degan nazariya yaratdi. Ibtidoiy davrdagi diniy tushunchalar. Gap din haqida borar ekan, u hamisha barqaror va azaldan mavjud bo'lgan emas.

Kishilarning qadimgi hayotiga nazar tashlansa uning ilk bosqichida din va diniy tushunchalarning bo'lmaganligi ishonch hosil qilish mumkin.

Din ham san'at kabi ijtimoiy ong shakllaridan biri xisoblanadi. Ammo ibtidoiy davrdagi diniy tushunchalarni tiklash, tushunish va tushuntirish juda murakkab masaladir. SHak shubxasiz ibtidoiy odamlar o'z atroflarida bo'layotgan voqea va hodisalarga bevarq qarayolmaganlar.

Tabiatda sodir bo'lgan turli tuman hodisa va voqealar shamol, toshqin, momaqaldiraq, tun va kunning almashinuvi, yog'in-sochin, issiq-sovuq, er qimirlash, tug'ilish, kasallik, o'lim, o'sib ulg'ayish, uyqu va boshqa narsalar odamlarga g'ayri tabiiy bo'lib ko'ringan. Ibtidoiy odamning bilim doirasi past bo'lganligi ko'p narsa va hodisalarning bilim doirasi past bo'lganligi ko'p narsa va hodisalarning mohiyatiga tushinib etmagan. Demak, bu narsa va hodisalarning mohiyati ibtidoiy odam uchun sirli tuyulib, ularning negizida qandaydir g'ayritabiiy kuch bordek tuyulgan. SHu tufayli ibtidoiy kishilar orasida narsa hodisalarga sig'inish ularni ulug'lash hissiini vujudga kelib, dastlabki diniy tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Ibtidoiy kishilar ojizligining asosiy sababi ishlab chiqarish kuchlarining etarli darajad rivojlanmaganligi, mehnat qurollari binobarin mehnatning kam takomillashgani va bilimsizligidan iboratdir.

Ibtidoiy davrda din va diniy tushunchalar xilma-xil ko'rinishiga ega bo'lganligi shakl shubxasizdir. Buni dunyo xalqlaridan olingan etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Ibtidoiy din shakllaridan biri totemizm bo'lib, u juda qadimiy bo'lsa kerak.

Totemiz – algonkinlar (alyaskada yashovchi qabilalar) totem-uning urug'i degan so'zidan olingan.

Totemiz bu odamlar guruhining qandaydir hayvon qoplon, yo'lbars, arxar, tog' echkisi yoki o'simlik turi kuntaboqar, do'lana, qovoq va shu kabi o'simlik turi bilan qandaydir bog'liqligi, g'ayri tabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonish e'tiqodidir. Bundan ko'rinib turibdiki, totemizm ibtidoiy jamiyatning tarixining ovchilik-termachilik xo'jaligi rivojlangan vaqtda urug'chilik tuzumi ijtimoiy hayotda qaror topgach vujudga kelgan bo'lishi mumkin.

SHuning uchun ham urug'lar, fratriyalar va qabilalarning nomlari muayyan territoriyada tarqalgan hayvon yoki o'simlik nomi bilan atalgan.

Afrika, Amerika, Osiyo, Evropa va Avstraliyada yashovchi urug' va qabilalarning hayvon va o'simlik nomi bilan atalishi fikrimizning dalilidir. Urug'lar qabilalar va

fratriyalar emas ayrim joylarda ba'zi odmlarning ismlari ba'zi hayvon va o'simlik nomi bilan ataladi.

Har bir urug' va qabilaning totem hayvon alohida e'zozlanib, hurmat va izzat qilganlar.

Totemizning dastlabki bosqich davrida odatga muvofiq o'z totemizni olish va uning go'shtini ovqat sifatda iste'mol qilish ta'qiqlangan edi. U muqaddas hayvon hisoblangan. Faqatgina bayramlarda, urf odat marosimlari vaqtida muqaddas hisoblangan totmin ovlanib uning go'shti eyilgan.

Totem xayvonlarni ovlash, o'ldirish ta'qiqilangan, ularning ko'payishi uchun g'amxo'rlik qilingan. Ba'zan ularning sharafiga bayramlar o'tkazilib odamlar mazkur hayvon terisini yopinib, yoki kiyib raqsga tushganlar.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, tetmizm qoldiqlari ko'pgina xalqlar xayotida yaqin vaqtlargacha saqlanib qolgan. Lekin astraliyaliklar dini klassik totemizmga tegishli ekan u kenguru haqida "bu mening akam" yoki "mening onam" deydi.

Mustamlkachilar Avetlaiyada totem hayvonii o'ldirganlarida mazkur urug'ning odamlari ularga "Nega siz bu odamni o'ldirdingiz, u bizning birodarimiz" eb aytganlar. Agar totemizning boshlang'ich davrilarida totem hayvonining go'shti iste'mol qilish taqiqlangan bo'lsa, keyinchalik uning go'shtini ovat sifatida iste'mol qilishga ruxsat etilgan.

Lekin totem xayvon o'ldirilgach undan uzr so'rag odati ham bo'lgan yoki aybini o'zlaridan soqit qilib, uni o'zgalarga to'nkab, o'z totemlari g'azabidan xalos bo'lishga intilganlar. Sinbir' erlari mustamlaka qilinyotgan vaqtda eveklar, tushuslar va boshqa kiyik totem hayvonini g'azabini ko'zg'atmaslik maqsadida unga "bizdan hafa bo'lma, seni biz emas, ruslar o'ldirdilar" deganlar. Ibtidoiy dining shakllaridan biri bo'lgan totemizm juda ko'p xalqlarda xususan turkiy xalqlarda zamonavmizgacha saqlanib qolgan.

Osiyodagi juda ko'p xalqlarda shuningdek Turkiy xalqlarning kalendarida 12 hayvon nomi bilan yuritiladigan muchal yil xisobi uzoq vaqtlardan beri qo'llanilib keladi. SHuningdek O'rta Osiyoda Arslonbek, Bo'riboy, Yo'lbars, Bobir, Qoplon, SHer, SHerali, Qo'chqor, Qo'zibonv, Alqar kabi ismlarning keng tarqalishi totemizm bilan aloqador emasmikan.

O'rta Osiyo klassik adabiyotining zabardast namoyondasi A.Firdavsiyning "SHoo'noma" asarini o'qir ekansiz unda, ot-asl bilan bog'liq bo'lgan odam va joy nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu totemizga aloqador ismlar bo'lishiehtimoldan xoli emas. O'rta Osiyo, Osiyo va er yuzining juda ko'p joylaridagi qoya toshlarda arslon va yo'lbars, kiyik va to'ng'iz, arxar va bug'i, ot va it, bo'ri va tulki, qulov va sayga,

yovvoyi buqa va fil, antilop va jirafa, mamont va karkidon kabi hayvon tasvirlarining uchrashi qadimgi qabilalarda totemizning keng tarqalganligini nishonasi bo'lishi mumkin.

Ibtidoiy o'troq dehqonchilik qishloqlari harobalaridan topilansopol, mis, jez va boshqa narsalarga xilma-xil hayvonlarning bo'yoq bilan chizilgan tasairlari ham mazkur idishlarda taom egan kishilar e'tiqodida totemizm mavjudligi yaqqol kzga tashlanadi.

Ibtidiy qabilalarning mfkuraviy qarashlarida seyr-jodu va afsungarlik ham keng tarqalib, u ham ibtidoiy dining bir turi hisoblangan. O'z-o'zining savol tug'iladiki, seyr-jodu afsungarlik nima?

Afsungarlik deb yozadi M.O.Kosven, noto'g'ri, yolg'on va ko'zga krinmaydigan aloqa ta'sirlarining tabiatda mavjudligiga ishonish va odamlarni ishontirish, ayrim xalqlarda tabiat odamlarga ko'zga krinmaydigan ta'mirlar ko'rsatish mumkinligi va ayniq odamlarning tabiatga, shuningdek nihoyat bir odamning boshqa odamga ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan iboratdir. Diniy e'tiqodning mazkur ko'rinishi odam hayotining juda ko'p tomonlariga ta'sir etgan. Hatto u tasviriy san'atni ham o'zicha bo'yin sindiran. So'ngi poleolit, mezolit, neolit va broiza davri qoya toshlaridagi hayvon, ularga sanchilgan nayza, kamol o'qi va ular qoldirgan jarohat izdarining tasvirlari seyrlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Seyrlik bir narsa xuddi shunday ikkinchi bir narsa o'rnidadir, bo'lak butun o'rnidadir, degan tasavvurga asoslangan. "Nayza tirik hayvonga uning xuddi shunday tasvir yoki kalla suyagiga sanchilgani kabi sanchilsin" ibtidoiy seyrlikning mantiqi shundan iboratdir. Ibtidoiy davr kishilarining e'tiqodiga ko'ra seyrlik odatlari, irim-sirimlari, ov yoki xo'jalik sohasidagi boshqa ishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishiga yordam berar ekan.

Etnografik ma'lumotlarga ko'ra mahalliy astraliyalik ovchilar kenguru oviga borish oldidan kenguru tasvirini chizib, unga tevarak atrovdan nayza sanchishgach, ovga jo'nab ketganlar.

Etnograflarning kuzatishlaridan shu narsa ravshanki, Afrikada yashovchi pigmeylar antilopa yoki boshqa hayvonni oavlashga jo'nashdan oldin sokin bir joyga borib erga ovlanuvchi hayvon suratini chizib, unga nayza sanchgach ovga ketganlar. Seyrlik faqat ov va xo'jalikning o'zidagina qo'llangan emas. Qadimgi urug' va qabilalar sexrgarlikni yoddirish, dushmanni maxv etish, hayvonlarni ko'paytirish, sevish, sevilish, davolanish va boshqa narsalarda ham qo'llaganlar. Seyrlikda har bir voqea va hodisaning o'ziga yarasha irim-chirimi va urf-odatlari bo'lgan. SHunday qilib, seyrlik ibtidoiy diniy e'tiqodning shakllaridan biri edi.

Sehrgarlik sarqitlari u qadar rivojlanmagan qabilalarning dinida zamonamizgacha saqlanib qolgan. Bunday sarqitlar yuqori darajada rivojlangan xalqlar orasida islom, yaxudiy, xristian dinlarida ham uchraydi.

Mantiviy jihatdan o'ylab qaralsa diniy e'tiqodning sehrgarchilik shakli ancha murakkab bo'lib, inson tafakkurinig ancha rivojlangan davriga to'g'ri kelib, totemizm va fetishizmga nisbatan keyinroq vujudga kelgan bo'lsak kerak.

Ibtidoiy davr kishilarining diniy e'tiqodlaridan yana biri animizm bo'lib, mazkur so'z lotincha anima – jon, ruo' so'zidan olingan.

Ibtidoiy kishilarning tasavvuri bo'yicha va har bir odam tabiatdagi barcha hayvonlar va o'simliklar olami jonga, ruxga egadirlarkim, ular o'lgach narigi dunyoda tirilib hayot kechiradilar. Aftidan animistik e'tiqod ham keyingi paleolitda, inson ongida nariga dunyo haqidagi tasavvur vujudga kelishi munosabati bilan kelib chiqqan. U davrda o'likni bukchaytirib tizzalarini iyagigacha bukib, kafanlab, qayish bilan bog'lab ko'mganlar. O'lik ustida qizil oxra sepib, uning yoniga mehnat qurollari va bezak bumlarini ham birga qo'yib ko'mganlar.

Go'rlarga har xil ish qurollari, yaroq va ziynat buyumlarining qo'shib qo'milishi murdaga qizil oxra sepish narigi dunyodagi hayotga ishonish bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod bo'lsa kerak. YAqin-yaqin vaqtlargacha ham adamonliklar, papuaslar, eskpimoslar va bosh va qator rivojlanmagan qabilalarda murdani bukchaytirib bog'lab, kafanlab ko'mish odati bo'lgan.

Oxra, qizil rang esa ibtidoiy kishilar tasavvurida qon va olovni e'timol hayot ramzini anglatgan. Animizm terminini fanga ingliz olimi e.Teeylor kiritgan. SHuni ham unutmaslik kerakki, so'ngi poleolitdagi totemizm, sehrganlik, animizm va boshqa diniy e'tiqodlar bir-biri bilan bog'lanib ketgan va biri ikkichisiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Keyingi davrda vujudga kelgan islom, yaxudiy, xristian dinlarining bir tomoni ibtidoiylik davriga borib taqaladi.

SHunday qilib insonning tabiat oldidagi ojizligi, nodonligi, bilimsizligi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanmaganligi oqibatida har turli qabilalarda hmlma-xil ko'rinishga ega bo'lgan diniy e'tiqodlar vujudga keldi.

Demak, madaniyat keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, kishilkining uzoq tarixiy davri mobaynida aqliy, ijtimoiy va ishlab chiqarish, sohasida qo'lga kiritgan juda boy yutuqlari majmuasidan iboratdir.

Hozirgi juda katta yutuqa erishgan insoniyat ma'naviy madaniyatining negizi ibtidoiy jamoa tuzumining ilk davrlariga borib taqaladi. engel's ta'biri bilan aytganda, biz tarix sohasini inson bilan birga kishilki jamiyati tarixi boshlanadi, binobarin kishilik

madaniyatiga ilk bor poydevor toshi qo'yiladi. Mehnat inson hayotining eng dastlabki asosiy sharti bo'lishi bilan birga, u odamni yaratuvchi hamdir.

Mehnat jarayoni faqat qurol yasashdan boshlanar ekan, bu ilk madaniyatga asos solish demakdir. Chunki dunyodagi hech bir mavjudod, xatto brorta odamsimon maymun qo'pol qilib bo'lsada toshdan qurol yasay olgan emas. Shubhasiz ibtidoiy jamoa tuzumining dastlabki bosqichida ya'ni ibtidoiy gala davrida kishilarning tafakkuri va nutqlari u qadar iyojlanmagan bo'lib, mehnat qurllari juda sodda edi.

Lekin ibtidoiy odamlarning yashashi uchun tabiat bilan olib borgan sermashaqqat kurashida ularning tafakkuri va nutqi rivojlana bordi. Inson tafakkurining o'sa borishi mehnat qurolining takomillashishi va muarkkablashuviga olib keldi.

Odamlar tabiat bilan kurashda, uni bo'ysundirish yo'lida juda ko'p g'ayrat va mehnat sarf qildilar. Dag'al shaklsiz tosh parchalarining eng birinchi oddiy qurollarga aylanishi, odamlarning olovdan foydalanishi bilib olishlari, go'shtni olovda pishirib eyishni suyakdan qilingan birinchi qurollarni, doimiy yashaydigan dastlabki turar joylarni vujudga keltirish uchun, necha yuz ming xatto million yillar kerak bo'ldi. Inson oddiy termachilik va ovchilikdan sug'orma dehqonchilik va chorvachilikka etib kelgunicha ajoyib sopol idishlar va har xil metall byumlar, hamda qurollarni kashf qilgunicha juda katta trixiy davrni 2.-2.5 million yillik tarixiy davrni bosib o'tdi.

Lekin bu bu yo'lda juda katta qiyinchiliklarga duch kelib ko'plab qurbonlar ham berdi. Ammo har qancha og'ir mashaqqatlarga qaramay inson qiyinchilikni eng borib ilg'or tarixiy rivojlanish yo'lida olg'a qarab odam tashalab, kelajak avlod uchun zarur bo'lgan madaniyatga asos soldi.

Ibtidoiy poda davrining ohiriga kelib, ibtidoiy kishilar hayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar avvalo kishilarning tashqi qiyofasi, tafakkur doirasi, nutqi, ishlab chiqarish qurollari va xo'jaligida ko'zga tashlandi. Insonning tafakkuri va nutqi ularning birgalashib qilgan mehnati natijasida vujudga keldi. Inson tafakkur qilmasa toshdan oddiy bo'lsada qurollar yasay olmasdi. Demak inson tafakkuri nutqi va oddiy tosh qurollar ular mehnatining samarasi edi. YUqorida ta'kidlab o'tilganidek qadimgi tosh asrining oxirgi va so'ngi tosh asrining boshlariga kelib isonning tafakkur doirasi nutqi yanada rivojlana boshladi. Bu hol ular yaratgan madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Urug'chilik jamoasi va uning emirilish davrida uy qurilishi ibtidoiy dehqonchilik, chorvailik, tog'-kon sanoati, metalsozlik qurolsozlik, kulolchilik va xunarmandchilik boshqa tarmoqlariga asos solinib bu sohada kattagina muvaffaqiyatlarga erishildi. Hozirri zamon kishilarining xo'jalik va madaniyat sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarining pegizi

ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yaratilgan ekan. Bu xol Levl-Boyul' va boshqa burjua olimlarining ibtidoiy odamlarning ibtidoiy odamlar va shuningdek hozirgi zamondagi qoloq qabilalar qikrlash qobiliyatiga egaemas, binobarin madaniyat yaratishga qodir emas, degan uydurma qarashlarini fosh qilib tashladi.

Shunday qilib ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi jamiyat kishilari uchun olamshumul tarixiy ahamiyatiga eng ekan, uni bashariyatning boshlng'ich maktabi deb aytish maqsadga muvofiqdir..